



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
KIMYO TEXNIKA FAKULTETI
“KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR” KAFEDRASI



5320400 Kasb-ta'limi (kimyoviy texnologiya ishlab chiqarish turlari bo'yicha)
yo'nalishi uchun

“KASB TA'LIM USLUBIYOTI”

fanidan

O'QUV USLUBIY QO'LLANMA

Urganch-2012



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIMVAZIRLIGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“ KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR ” KAFEDRASI

“KASB TA'LIM USLUBIYOTI”
FANIDAN

O'QUV USLUBIY QO'LLANMA

5320400 Kasb-ta'limi (kimyoviy texnologiya ishlab chiqarish turlari bo'yicha)
yo'nalishi uchun

Mazkur o'quv uslubiy qo'llanma “kimyoviy texnologiyalar” kafedrası majlisida (Bayonnama № 4,2012 yil, 26 noyabr) va Kimyo – texnika fakulteti o'quv uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan (№4,2012yil, noyabr) va UrDU ilmiy uslubiy kengashiga tavsiya etilgan.

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma UrDU ilmiy uslubiy kengashida muxokama qilingan va ko'p nusxada nashr etishga ruhsat etilgan

Tuzuvchilar: Saparbayeva N.K. “kimyoviy texnologiyalar” kafedrası
dotsenti

Matkarimova D.B. “kimyoviy texnologiyalar” kafedrası
o'qituvchisi

Taqrizchilar: UrDU “Umumiy kimyo” kafedrası
dotsenti Eshchanov E.U.
UrDU “Umuminjinerlik fanlari” kafedrası
profssori Raximov R.O




Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma «Kasb ta'limi o'qitish metodikasi» faniga oid bo'lib, talabalarning nazariy bilimlarini mustaxkamlashga yordam beradi.

Yuqori malakali mutaxasislarni tayyorlash va uzliksiz takomillashtirish hozirgi davrning asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarini joriy qilish hisobiga kadrlarning sifatini oshirish ushbu muammolarni hal qilishning asosiy yo'nalishidir.

Talaba o'quvchilarning asosiy maqsadi- oliy ma'lumotli bo'lish, ilm, fan, texnika - texnologiyalarni o'zlashtiribgina qolmay, balki ushbu bilimlarni yosh avlodni dunyoqarashida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga intilishni tarbiyalashga qaratilgan.

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma "Kasb ta'lim metodikasi" dasturi asosida tuzilgan bo'lib 5320400 Kasb-ta'limi (kimyoviy texnologiya ishlab chiqarish turlari bo'yicha) yo'nalishi bakalavrlari uchun mo'ljallangan.



KASB TA'LIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ILMIY TADQIQOT METODLARI. KASB TA'LIMINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Reja:

1. Ta'lim tushunchasi.
2. Kasbiy pedagogika.
3. Kasb ta'limi texnologiyasi.
4. Didaktika, metodika, o'qitish metodikasi. Metodologiya.
5. Ta'limiy kenglik. Ko'nikma va malakalar.

1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Bu muhim xujjatlarni amalga oshirish bo'yicha xukumatimiz qabul qilgan qarorlarida respublikamizda kasb-hunar kollejlarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish chora tadbirlari belgilangan.

Bu yangi o'quv maskanlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bir tomondan o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quv yurtini zamonaviy texnika bilan ta'minlanganligiga bog'liq.

Kasb-hunar kolleji muhandis-pedagog xodimlari oldiga tayyorlanadigan malakali ishchi kadrlarda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish, ularda yuksak mehnat intizomi va madaniyatni, jamoa oldiga burch xis tuyg'ularini tarbiyalash vazifasini qo'yadi.

Bu vazifalarni bajarish ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyadan foydalana oladigan yuqori malakali ishchilarni etishtirish demakdir.

Mazkur vazifani muvaffaqiyatli hal qilishda muhandis-pedagoglarning fan va texnika sohasidagi yutuqlaridan muttasil foydalana bilishlari, o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish ta'limi tajribalarini tadbqiq eta olishlari katta ahamiyatga ega. YUqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni hal qilishda «Maxsus fanlar va ishlab chiqarish ta'limining o'qitish metodikasi» fani katta ahamiyat kasb etadi.

Metodika – metod va usullarning yig'indisidan iborat bo'lib, qandaydir xarakatni amalda bajarilishidir. O'qitish metodikasida u yoki bu fanni o'rganish haqida tushuniladi. Adabiyotlarda shunday so'z talqini uchraydi «O'qitish metodikasi», «O'rgatish metodikasi».


Lekin bu ikki tushuncha ham amalda teng huquqlidir. Chunki o'qitish – bu o'rgatilganni faoliyati, o'rgatish esa – ularni birgalikdagi faoliyatidir. O'qitish metodikasining metodologik asoslari bilim nazariyasi bo'lib, umumiy qonuniyatlarni, inson atrofida sodir bo'layotgan, uni urab turgan dunyo shakli va metodlarni o'rganadi.

O'qitish metodikasi o'quv predmeti sifatida bo'lg'usi muhandis-pedagogga quyidagini tushunitirishi kerak. Qanday va nimaga o'qitish, qanday ketma-ketlikda va nimaga endi shunday o'qitiladi, boshqacha emas. U nafaqat metodlarning bilim ta'lim mazmunini, o'qitilayotgan fanlar majmuasini o'z ichiga oladi.

O'qitish metodikasi fani maxsus va ishlab chiqarish ta'limi fanlarni kasb-hunar maktablari va kollejlarda o'qitiladigan predmetlarni bir butun guruhlar sifatida birlashtiradi.

Maxsus fanlar o'qitish metodikasi fanida talabalarga mutaxassislik fanlarini ishlab chiqarishiga tadbiq etilgan holda o'quvchilarga o'qitish metodlarini o'rgatishdan iborat. O'quv jarayonida tarbiyaviy ishlarni olib borish, mutaxassislikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va qobiliyatlarini rivojlantirish, kasb-hunar kolleji o'quv dasturlari hamda xujjatlarini to'g'ri yuritish kabi muammolarni echishga yordam beradi.

«O'qitish metodikasi» fani asosan «Pedagogika», «Psixologiya», «Fiziologiya» va mutaxassislik fanlari bilan bog'liq xolda o'qitiladi. (1-sxema).




1-sxema. O'qitish metodikasini boshqa fanlar bilan aloqasi

1. **TA'LIM** -bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida bilim o'zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli o'quv yurtlarida o'qitish jarayoni emas, balki oila, ishlab chiqarish va shu kabi sohalarda ham ma'lumot o'zlashtirish jarayonidir.

Ta'lim ilm berish va tarbiyalashni o'ziga qamrab olib, respublikaning aql zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. SHuning uchun ham u ustuvor soha hisoblanadi.

Ta'lim faoliyati o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi: a) ma'lum bir tajriba va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyat bilan tashkil qilish uchun olamning zarur xususiyatlari haqidagi axborotlarni o'zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimlardir); b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va vositalarni o'zlashtirish (bu jarayonlarning mahsuloti malakalardan iborat bo'ladi); v) ko'zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to'g'ri yo'l va usul tanlash hamda nazorat qilish



uchun ko'rsatilgan axborotlardan foydalanish usullarini egallash (bu jarayonning mahsuli – malakadan iborat bo'ladi).

Insonning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishida ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta'lim bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan talab va ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi g'oyalarga qarab kishilik jamiyatining turli davr (bosqich)larida ta'limning mohiyati, maqsadi, mazmuni tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o'zgarib, takomillashib boradi.

Ta'lim mohiyatiga ko'ra bu jarayonda ishtirok etuvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining natijasidir. Ta'lim jarayonida shaxsning dunyoqarashi, qobiliyati, fazilat (xislat)lari o'zgaradi. Ta'lim jarayonida kishilik jamiyatining ijtimoiy-tarixiy tajribalari tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtiriladi va shu yo'l bilan u avlodlar orasidagi ma'naviy-madaniy, ijtimoiy, ijtimoiy vorislikni taminlaydi.

Ta'limning metodologik asosini dealektik bilish nazariyasi tashkil etadi.

KASBIY PEDAGOGIKA – umumiy pedagogikaning bir sohasi bo'lib, u tarbiya, ta'lim, o'qitish haqida qator nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug'ullanadi. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi bir necha bo'limlariga bo'linib, bu bo'limlarda kasbiy pedagogikaning asoslari va muhim malasalalarini, ya'ni kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari, mehnat pedagogikasi, kasb-hunar didaktikasi kabi masalalarni qamrab oladi. SHuningdek ularda kasb-hunar tarbiyasining ijtimoiy psixologik shart-sharoitlari, kasb-hunar ta'limi nazariyasi va kasb-hunar ta'limi huquqi o'rganiladi.

KASB TA'LIM TEXNOLOGIYASI - butun o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimi usuli bo'lib, u maqsadga erishishga yo'naltirilgan holda insonlarning o'rganish qobiliyati va ular o'rtasida muloqot to'g'risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug'ullanishga asoslanadi.

DIDAKTIKA – grekcha didaskien so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'tgataman ma'nolarini anglatadi. SHunga ko'ra didaktika – bu o'qitish nazariyasidir. Didaktika ukitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maksadlarini ishlab chikadi.

METODIKA– Pedagogikaning o'qitish, qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalari nazorat qilib baholash metod hamda vositalarini o'zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog'idir. Har bir o'quv fani o'qitish sohasi o'rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko'rinishi haqidagi metodika asosida quriladi.

O'QITISH METODIKASI - bu turli usullar tizimi bo'lib, o'quv-didaktik materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmuasidir.

Kasbiy ta'lim metodikasi ijtimoiy hayotning ma'lum sohasida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari,



qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog'idir.

METOD– iborasi (yunoncha-methodas-tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatib) voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasidir. Metod aslida insonning amaliy faoliyati negizida vujudga kelgan. Metod – pedagogik jarayon elementi sifatida mazmun maqsadlarga maksimal mos kelishi kerak, ana shunda – tarbiya, o'qish, o'rganish amalga oshadi. Metodning asosiy vazifasi – qobiliyatni rivojlantirish. Kasbiy faoliyatda metodning asosiy ko'rsatkichi – uning kasbiy faoliyat vositalariga mosligidadir.

METODOLOGIYA– metod va logiya iboralarining birligida bilish faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta'limot ma'nosini anglatadi. Demak, metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy tashkiliy komponentidir.

Metodologik bilimlar, eng avvalo, muayyan faoliyat turlarining mazmuni va izchilligini o'ziga qamrab olib, odat hamda me'yorlar shaklida, ikkinchidan, amalda bajariladigan faoliyatning ta'siri sifatida yuzaga chiqadi. Har ikkala holda ham bilimning asosiy vazifasi bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yoki biror ob'ektni amaliy o'zgartirishdan iborat.

TA'LIMIY KENGLIK – ta'lim jarayonlari amalga oshiradigan, ya'ni tashqi atrof – muhit bilan o'zaro harakat anglanadigan va amalga oshiriladigan kenglik.

Pedagogik jarayonda ta'limiy kenglikning son va sifat jihatdan tavsifi asosan pedagogga, uning ichki madaniyati, dunyoqarashi, qarashlariga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun ham pedagogning professional tayyorgarligi nafaqat aniq mazmunni egallashga, balki, ekologik madaniyat, ma'naviyat, umumiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan taqdirda maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashqi va ichki ta'limiy kenglik kasbiy faoliyatning ahamiyati bugungi kun ta'limining eng dolzarb muammolaridandir.

BILIM- bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog'liqlikdir. Uni qonuniyat deb ham yuritiladi. CHunki bu zaruriy bog'liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqib, bizning ixtiyorimizdan tashqari o'zi mavjud. Uni o'zgartirib bo'lmaydi. Bilim kishidan kishiga ma'lumot (axborot) orqali o'tadi.

KO'NIKMA VA MALAKALAR. Ko'nikma va malakalar deganda biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi. **Malakalar** ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuzberadigan harakatlardir.

MALAKA- kishi egallagan bilimlari ko'nikma bosqichidan o'tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorati hosil qilishi.

MAHORAT- o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

BAXOLASH- ta'lim jarayonining ma'lum boskichida o'quv maksadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida ulchash, natijalarni aniqlash va taxlil qilishdan iborat jarayondir.



KASB- muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turi. Kasb hunar sirlarini egallashga umumiy hamda maxsus ma'lumot hamda amaliy ish-harakat usullarini o'zlashtirish orqali erishiladi.

Kasb o'ziga mehnat faoliyatining tor doirasi bilan xarakterlanuvchi ixtisosliklarni mujassamlashtiradi. Ba'zi kasblarda bir qancha ixtisosliklar mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchilik kasbi o'qitiladigan o'quv predmetlariga binoan: umumta'lim, umumtexnik, maxsus fanlar o'qituvchisi bo'lishini ko'rsatishi o'zi kifoya. Kasb va ixtisos shaxsning muntazam ravishda ma'lum turdagi ish bilan shug'ullanishini ifodalaydi. Respublikamiz fuqarolariga kasb va ixtisos tanlashlariga keng imkoniyatlar yaratilgan.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim tushunchasini izoxlang.
2. Ta'limning metodologik asosini kanday nazariya tashkil etadi?
3. Didaktika bilan metodikaning bir-biridan farqi nimada?
4. Ta'limiy kenglik deganda nimani tushunasiz?
5. Kasb qanday faoliyat turiga kiradi?

Tayanch iboralari:

Ta'lim, kasbiy pedagogika, didaktika, metodika, metod, ukitish metodikasi, metodologiya, ta'limiy kenglik, bilim, malaka, mahorat.

KASB TA'LIMINING METODOLOGIK ASOSLARI


Reja:

1. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari.
3. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.
4. Dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar.
5. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining metodologik asoslari.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi.

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni:
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonuni.

Qomusiy qonun, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun- 8 dekabr umumxalq bayrami va dam olish kuni sifatida belgilab qo'yilgan. 1978 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda boshlab o'z kuchini yo'qotgan. Mazkur qonunda O'zbekiston xalqi



-inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantana ravishda e'lon qilib;

- hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma'suliyatini anglagan holda;
- o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga suyanib;
- demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib;
- xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda;
- respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib;
- insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab;
- fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida;
- o'zining maxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur konstitutsiyasini qabul qilgan.

Respublikamiz asosiy qomusi VI bo'lim 26 bob va 128 modddadan iborat. Konstitutsiya mohiyati va mazmuni boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish davrida chuqur o'rganganligi bois, uning bevosita ta'lim-tarbiya bilan bog'liq 41 va 42 moddalariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Konstitutsiyamizning 41-moddasida. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

42-moddasida. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi deb belgilab qo'yilgan.


Mustaqil O'zbekistonning birinchi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni 1992 yil 2 iyulidan amalga joriy etilgan bo'lib, u VII bo'lim 44 modddadan iborat edi.

Amaldagi ta'lim to'g'risidagi qonunga binoan respublikamizda hech bir mamlakatda avval ishlab chiqilmagan va amalga joriy etilmagan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunidir. Bu qonun ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX-sessiyasida 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingandir.

Fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Bu qonun quyidagi bo'lim va fasllardan tashkil topgan:

- I. *Bo'lim. Umumiy qoidalar: Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari.*
 - 1.1 Rivojlanishning erishilgan darajasi.
 - 1.2 Kamchiliklar va muammolar.
 - 1.3 Isloh qilish omillari.
- II. *Bo'lim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari.*
 - 1.2 Dasturning maqsad va vazifalari.
 - 1.3 Dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari.
- III. *Bo'lim. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli.*
 - 3.1 SHaxs.
 - 1.4 Davlat va jamiyat.
 - 1.5 Uzluksiz ta'lim.



- 1.5.1 Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish pritsiplari.
- 1.5.2 Uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari.
- 1.5.3 Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.
- 1.6 Kadrlar tayyorlash tizimidagi fan.
- 1.7 Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish.
- II. *Bo'lim. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.*

- 4.1 Ta'limning uzluksizligini ta'minlash.
- 2.2 Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash , qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
- 2.3 Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish.
- 2.4 Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar.
- 2.5 Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar.
- 2.6 Ta'lim tizimini boshqarish.
- 2.7 Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish.
- 2.8 Ta'lim tizimini moliyalash.
- 2.9 Moddiy-texnika ta'minoti.
- 2.10 Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish. (monitoring).
- 2.11 Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish.
- 2.12 Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.
- 2.13 Fan va ta'lim jarayonlari aloqalarini rivojlantirish.
- 2.14 Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish.
- 2.15 Ta'lim bilan kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik.


III. *Bo'lim. Dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora tadbirlar.*

Uzluksiz ta'lim tizimi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.



Ta'lim muassasalarini hududiy yo'nalishga o'tkazish va tarkibiy tuzilmasini o'zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustivorligi ta'minlanadi.

Ta'limning uzluksizligi shunday ma'no beradiki, inson tug'ilgandan boshlab toki umrining oxirigacha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Bunday tizim O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida qonuni" da o'z aksini topgan.

Kasb-hunar ta'limi- talabalarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi.

Oliy ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining yuqori malakali mutaxassislar to'yyorlovchi mustaqil turi. U oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim quyidagi ikki bosqichdan iborat: *bakalavriat* va *magistratura*.

Bakalavriat – o'rta mahsus kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim;

Magistratura – bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim;

Bakalavr, magistr – oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni mavaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan *akademik darajalardir*.


Yuqorida keltirilgan qisqa jumlar mazmuni, ular umuman respublikamiz ta'lim tizimi, shuningdek kasb-hunar ta'limining ham metodologik asosi ekanligiga ishoradir. Kasb-hunar ta'limining metodologik asoslarisiz uni maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkil etish shakllari, metod va vositalari, ishtirokchilari, natijalari hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish mumkin emas. Kasb-ta'limining metodologik asoslari uning me'yoriy hujjatlari aniqlashga imkon beradi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining metodologik asoslariga nimalar kiradi?
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi nechanchi yildan boshlab o'z kuchini yo'qotgan?
3. Respublikamiz asosiy qomusi necha bo'lim, nechta bob va nechta moddadan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida qonuni" da kandy tizimlar o'z aksini topgan?

Tayanch iboralari:

Konstitutsiya, qonun, suverenitet, fuqaro, uzluksiz ta'lim, kadrlar, bakalavriat, magistratura.



KASB-HUNAR TA'LIMINING O'QUV ME'YORIY HUJJATLARI

Reja:

1. Davlat ta'lim standartlari.
2. Kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari tasniflagichlari.
3. Kasb-hunar ta'limi tarmoq standarti.
4. Dastur. O'quv dasturi.

Ma'lumki, insonning har bir xatti-harakati ongli ravishda amalga oshadi. Ana shu ongi xatti-harakat etuk psixolog olim P.YA. Galperin va uning maslakdoshlari fikricha asosan quyidagi uch bosqichda amalga oshadi:

- I. Bosqich. Mo'ljalga olish bosqichi bo'lib, unda shaxs o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadini mo'ljalga oladi, ya'ni rejalashtiradi, loyihalashtiradi. Maqsadga erishish yo'llarini modellashtiradi.
- II. Bochqich. Asosiy amalga oshirish bosqichida o'z imkoniyati, shart-sharoit, mavjud bo'lgan ko'plab boshqa omillarni hisobga olgan holda amaliy xatti-harakatlar amalga oshirilib, ma'lum natijaga erishiladi.
- III. Bosqich. Nazorat qilish va o'zlashtirishlar kiritish bosqichi hisoblanib, unda ko'zlangan maqsad bilan olingan natija qiyoslanadi va kerakli xulosaga kelinadi. Kerakli hollarda reja va amalga oshirish bosqichlarining mazmuni, tuzilmasi va shakliga o'zgartirishlar kiritilib, ish-harakat usullari takomillashtiriladi.

Kishilar (inson) tomonidan amalga oshiriladigan barcha jarayonlar kabi ta'lim-tarbiya ishi ham ushbu yuqoridagi qonuniyatga to'liq bo'ysunadi. Demak ta'lim-tarbiya ishi ma'lum me'yorlar doirasida amal qiladi. Bu me'yorlarsiz ta'lim-tarbiya ishi mazmun, shakl, zamon va makon hamda natijalar tekisligida samarasiz bo'ladi. Aslini olganda maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar aniq maqsadni ko'zlab, reja asosida kechadi.


O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning joriy etilishi yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni va tadbiq taqozo etdi.

SHu nuqtai nazardan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim jarayoni, mazmunini isloh qilish asosan me'yoriy hujjatlar majmui (davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari va dasturlari) asosida, kadrlarga ta'lim va tarbiya berish milliy istiqloq g'oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Klassifikator – bu O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlashtirish va tartibga solish yagona tizimining tarkibiy qismidir.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari (klassifikatori) tasniflag ichi- Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati. Unda quyidagi sakkizta bilim sohasi ko'zda tutiladi:

1. Ta'lim
2. Gumanitar fanlar va san'at



3. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq
4. Fan
5. Muhandislik, ishlov berish va urilish tarmoqlari
6. Qishloq xo'jaligi
7. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
8. Xizmatlar.

Klassifikatorda ta'lim bosqichlari (bakalavriat, magistratura), bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ettita raqamli kod bilan belgilanadi.

- mutaxassislik kodi;
- yo'nalish kodi;
- ta'lim sohasi kodi;
- bilim sohasi kodi;
- ta'lim dasturlari bosqichi kodi.

Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichlari bakalavriat yo'nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida – 5 A (raqam va harf) bilan belgilanadi. Masalan: bakalavriat kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hokazo; magistratlar 5 A 140101, 5A211301, 5A520403 va hokazo.

Kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari tasniflagichi – urta maxsus va kasb-xunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash buyicha tayyorlov yunalishlari kasblarining iva mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ruyxati

Davlat ta'lim standartlari (DTS)- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va Oliy ta'lim mazmuniga hamda sifati ga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTS larini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.


Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti (bundan keyin OTDTS) kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar; ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va etarli ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yilgan malakaviy talablar; o'quv yuklamasining maksimal hajmi; ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda yo'l-yo'riqlarini belgilaydi.

OT DTS o'quv jarayonini tartibga soluvchi, ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholovchi me'yoriy hujjatlar: bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura ixtisosliklari uchun DTS, o'quv rejalari, o'quv fanlari dasturlari va boshqalarni tayyorlash uchun asosdir.

Kasb-hunar ta'limi tarmoq standarti – yo'nalishlar bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va etarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamalari hajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.

Oliy ta'limning birinchi bosqichida ta'lim dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksiz va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishni nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy-ilmiy;
- umum kasbiy;



- ixtisoslik;
- qo'shimcha;

Kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikma va malakalarni bakalavriat ta'lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini ko'zda tutib, ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

Ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy hujjat o'quv rejalari hisoblanadi. O'quv rejasi kasb-hunar ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o'quv fanlarini alohida o'rganish sur'atini ta'minlovchi hujjat hisoblanadi.

O'quv rejasi – har bir yo'nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalish (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi.
2. O'qish muddati.
3. Tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi.
4. Ta'lim shakli.
5. O'quv davrining taqsimoti (jadvali)
6. O'quv jarayonining rejasi.

O'rganiladigan o'quv predmetlari.

Har bir o'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.

O'rganish uchun ajratilgan vaqtni-ma'ruza amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta'limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.

O'quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda haftasiga qancha soatdan o'rganish tartibi.


7. Davlat attestatsiyasi.
8. Tanlov fanlarining ro'yxati.
9. Izohlar kabilar.

O'quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim:

- Ta'lim va tarbiyaning maqsadli yo'naltirilganligiga;
- Mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- Ta'lim- tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O'quv rejalarini ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rganish davriga aniq mos tushishini e'tiborga tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma-bosqich o'rganishlari chuqurligi, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

Dastur o'quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjatdir.



O'quv dasturi - shu nom bilan nomlangan o'quv predmetiga tegishli bo'ladigan. O'quv predmeti – ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimidir.

Ta'lim standartlarida belgilab berilganidek umumiy va maxsus talablar, bilim va ko'nikmalar, o'quv rejalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarda o'zaro uzviyligini ta'minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo'shimcha ko'rgazmali qurollar yaratish-o'qituvchilarga murakkab vazifalarni qo'yadi, talabalarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

Kichik mutaxassislar tayyorlashga qo'yilgan talablarning xujjatli asosini tasvirlaydigan o'quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to'liq va aniq belgilanishi talab qilinadi. To'liqlik deganda mazmunning barcha zaruriy va qo'yilgan maqsadga erishish uchun etarli elementlarni kiritish tushuniladi. Aniqlik deganda real o'quv jarayonida berilgan mazmunni joriy qilish yo'lini ko'rsatadigan elementlar va belgilar tasavvurlanadi.

O'quv dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o'qitish jarayonini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Nazorat savollari:

1. Insonning har bir xatti-harakati ongli ravishda kandy boskichda amalga oshadi?
2. Klassifikator tushunchasiga izox bering.
3. Davlat ta'lim standartlari kandy talablarni belgilaydi?
4. Kasb-hunar ta'limi tarmoq standarti kandy vazifani bajaradi?

Tayanch iboralari:


Klassifikator, tasniflagich, gumanitar, mutaxassis, kod, attestatsiya, dastur.

KASB TA'LIMINING ILMIY TADQIQOT METODLARI

Reja:

1. Umummilliy usullar. Test, so'rovnomalar.
2. Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli.
3. Matematika va kibernetika usuli. Ijtimoiy tadqiqot usuli.

Kasb ta'limi muammolariga karatilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad o'qitish va o'rgatish xususiyatlari, samarali metodlarni ishlab chiqish va amaliy qo'llash, texnik vositalarini qo'llashga doir masalalarni echishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o'qituvchida fanning mazmunini chuqur bilish talab etiladi. Ko'pchilik bo'lajak pedagoglar talabalik vaqtlaridayoq pedagogik izlanishlar bilan shug'ullanadilar. Fan bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma'ruzalari bilan qatnashib o'zlarining pedagogik mahoratini oshirib boradilar.



Ilmiy pedagogik izlanishlarni jarayonini shartli ravishda quyidag bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining adabiyotlar o'rganish va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

O'qituvchi adabiyotlarni o'rganishi davomida quyidagilarni aniqlashi kerak.

- o'rganilayotgan muammo to'g'risida adabiyot muallifining fikr-mulohazasi;

- o'rganilayotgan muammo to'g'risida traditsion metoddan farqliroq kiritgan takliflari;

- qanaqa asosiy masalalar adabiyotlar yoritilmagan;

- muammoni echishda keyingi olib boriladigan izlanishlar.

O'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammoga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchi dars jarayonida qanday qiyinchilikka duch kelish;

- kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari.

2. Gipoteza qurish ya'ni o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Faktlar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni beradi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umumiy va maxsus metodlari qo'llaniladi.


Umumilmiy metodlarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

Nazariy metod - adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish, hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Kuzatish - odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatishlar turlarga bo'linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayon kuzatuvchilarning hatti-harakatlari va hokazolarni yozib qo'yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish usuli biror-bir hodisaning oqibatlarini haqidagi faktik materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari (kinofilm, videotasvir, teleko'rsatuv,) ni qo'llash bilan tobora ko'p qo'llanilmoqda.

Suhbat metodi - so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.



Suhbat metodida - o'qituvchilar va talabalar jamoasi bilan ota-onalar keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib, intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va praktikasida intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinov va h.k.

Talabalar ijodini o'rganish – ularning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, xulosalar yasaladi.

Pedagogik so'rash metodi – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. SHuningdek, qat'iy formadagi javobni ("ha", "yo'q") ham taqozo etishi mumkin.

Test, so'rovnomalar - bu so'rovnoma, ya'ni anketa usuli qo'llanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, talabalarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.


Mutaxassislarining bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri - bu test yordamidagi sinovdir.

Test yordamida sinov talaba yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimni baholashning pedagogika nuqtai nazaridan ba'zi bir yutuqlari va kamchiliklarida keltirilgan va baholash jarayonini EHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta'kidlangan. Test savollari va masalalarining jozibadorligiga sabab, uning qisqa va lo'ndaligi, to'g'ri javobni umumiy javoblar ichida borligi va ularning talabalarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, uning topishmoqli o'yinga o'xshashligi va javobni topishda xotira, intuitsiya va topqirliklar qo'l keladi. Test savollarini chop etish talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

Test sinovlar metodi - bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda test savollarining ma'lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlash imkon beradigan qilib tuziladi.

Eksperiment-tajriba-sinov usuli - ushbu tajriba asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqu jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli – ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari,



ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'lim muassalarining qurilish, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika usullari - o'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish differentsial va individual ta'lim berish kabi jarayonlardir.

Sotsiologiya tadqiqot metodi - anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini o'quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga xususan tasavvufga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatlar darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, uqituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv qo'llanmalarining sifati, kompyuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalar talabalarning xarajatini qanchalik qoplaydi, haq to'lanadigan ishlarda talabalar qatnashishi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bo'lib etishishida hal qiluvchi omillar, talabalarning ongliklik darajasi jarayoni, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, o'zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

Ushbu metodlardan tashqari kasb ta'limda maxsus empirik metodlardan foydalaniladi.


Kasbiy pedagogikada tadqiqotning maxsus empirik usullari keng tarqalib unda hodisa va jarayonlarni o'rganishga yo'naltirilgan asbob uskunalar va apparatlar ob'ektiv miqdoriy kattaliklarni olish maqsadida qo'llaniladi.

Tadqiqotning maxsus empirik metodlarini shartli ravishda 3 guruxga bo'lish mumkin:

1. Ish harakatlarining natijaviy tavsilotini o'rganish (xarakatlarni aniq bajarish, sarflanadigan vaqt, ish unumi);
2. Biomexanik usullar;
3. Psixofiziologik usullar.

Ish xarakatlarining natijaviy ko'rsatkichlari bilan bog'liq tadqiqotlarda shu jumladan ularni o'zlashtirish jarayonida xronometraj katta rol o'ynaydi. Ish me'yori, maqbul vaqt shu jumladan ishlab chiqarish ta'limining turli davrlarida talabalar vaqt me'yori, ish tartibotini aniqlash maqsadida, shuningdek, harakatlarning vaqtinchalik tuzilmasini o'rganish talabalar yoki ishchilarning tayyorgarlik darajasini baxolash uchun xronometrajdan foydalaniladi.

Ish kunini tasvirga olish xronometrajning bir turi bo'lib, unda ish kuni davomida yoki ishlab chiqarish ta'limi darajasida barcha vaqt sarflari o'lchanadi va ta'lil qilinadi. Bu bilan ish vaqtining sarfi va uning sabablari, shuningdek ishni tashkil etishning xolati ajratib ko'rsatiladi. Xuddi shu maqsadlarda shuningdek o'z-o'zini tasvirga olish



qo'llanilib, unda talaba yoki ishchi o'z ishini o'zi kuzatadi va olingan natijalar maxsus kuzatish varaqasiga kiritadi.

Biomexanik metodlar – bu ish harakatining fazoviy vaqt va kuch parametrlarini o'rganishdir: ularning mukammallik darajasi, ishchining asbob, dastgoh va hokazolar bilan o'zaro kuch ta'siri, asbob va qo'l harakatining kinematikasi va boshqalar aniqlanadi.

Tarixiy ilk biomexanik metodiga tsiklogramma kiradi. TSiklogramma harakat elementlarining ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligini o'zida aks ettiradi. TSiklogramma metodlarida asboblarga, qo'l yoki oyoqlarga elektrik lampochkalar biriktiriladi. Ishchi jarayoni fotoapparat bilan suratga olinadi. Fotoplastinkada lampochka tasvirining yorug' nuqtalar ko'rinishida qolgan izi, mos ravishdagi harakat traektoriyasini beradi. Olingan traektoriya tahlili harakatning tezligi, tezlanishi, yo'nalishi va boshqa tashkil etuvchilarni aniqlash insonini beradi.

Psixologik metodlar o'quv va mehnat faoliyati jarayoni natijasida inson organizmining turli organlarning funktsional holatini o'rganish uchun qo'llaniladi. Bulardan elektromiografiya, elektrokardiografiya, elektrodermografiya usullari keng qo'llaniladi.


Elektromiografiya – harakatlanuvchi muskullar elektrik potentsialini yozishdir. Istalgan muskul harakati boshmiyadan elektrik impuls ko'rinishida uzatiladigan ta'sirlar natijasida ishlaydi. Muskullarning elektrik faolligi uning qisqarish kuchini aniqlaydi. Muskullarning elektrik potentsiali maxsus elektrodlar yordamida kuchaytirgichga, o'zidan-o'zi yozgichga uzatiladi va u erda miogramma – elektrik signallarning qog'ozda yozilishi qayd qilinadi.

Elektrokardiografiya – yurak tomirlarining elektrik potentsiallarini qayd qilishdir. Yurak tomirlari ham muskullar kabi bosh miyadan keluvchi elektrik signallar ta'siri ostida qisqaradi. Ularni qayd qilish elektrokardiografiya deb aytiladi.

Elektrodermografiya – terining elektrik potentsialini qayd qilishdir. Inson tanasidan ter oqib chiqishi ham miyaning elektrik signallari ta'siri ostida amalga oshadi. Elektrodermogramma birinchi navbatda insonning ish jarayonidagi emotsional holati ko'rsatkichi hisoblanadi.

Markaziy asab tizimining funktsional holatini aniqlash uslubi o'quv mehnat faoliyatining talaba organizmi holatiga ta'sirini o'rganish uchun qo'llaniladi, masalan, diqqat darajasi, ish jarayonida toliqishning rivojlanishi, mashqlar ta'siri ostida markaziy asab tizimida sodir bo'ladigan siljishlar va hokazo.

Ko'pincha shartli reaksiyalar usuli qo'llaniladi, ya'ni talabalarga nurli, tovushli yoki boshqa xildagi signallar uzatiladi. Unga javob tariqasida talaba uncha murakkab bo'lmagan qandaydir holatini amalga oshirishi kerak, masalan, tugmachaga bosish. Bu harakatni bajarish vaqti bo'yicha va xarakteri bo'yicha ushbu vaziyatda talaba markaziy asab tizimining holati va turli mezonlar ta'siri ostida undagi o'zgarishlarni aniqlash mumkin.



Nazorat savollari.

1. Ilmiy pedagogik izlanishlarni jarayonining bosqichlarini ayting.
2. Suxbat metodi kaysi formada kullaniladi?
3. Pedagogik so'rash metodini tushuntiring.
4. Elektromiografiya tushunchasini yoritng.

Tayanch iboralar

Videotasvir, magnit tasmasi, intensiv, kompyuter, statistika, kibernetika, sotsiologiya, tsiklogramma, elektrokardiografiya, elektrodermografiya.

KASB TA'LIMI TAMOYILLARI VA METODLARI. KASB TA'LIMI TAMOYILLARI

Reja:

1. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi.
2. O'qitishning ko'rsatmaliligi.
3. O'qitishning tushunarli bo'lishi.
4. Namunalardan foydalanish tamoyili.
5. Didaktik reduksiya tamoyili. Ilmiylik tamoyili. O'qitishning tarbiyalovchi xarakteri. O'qitishda sistemalilik va izchillik.
6. O'qitishda talabalarning ongliligi va faolligi. Talabalarning yoshi va individual imkoniyatlarini hisobga olish.
7. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi

O'qitish tamoyillari-o'qitish nazariyasining boshlang'ich qoidalarini bo'lib, o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etishda ularga amal qilishi kerak.

Kasb ta'limi tamoyillarini tizimlashtirishga bo'lgan yondashishlarda quyidagicha fikrlar bildirilgan.

M.N.Skatkin ta'lim tamoyillarini quyidagicha belgilaydi: ilmiylik, har tomonlamalik, hayot bilan aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, o'quv fanlari orasidagi o'zaro aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, joriylilik.

M.G.Ogorodnikov esa o'z tadqiqotlarida ilmiylilik, g'oyaviylik, tarixiylik, tizimlilik, nazariya va amaliyotning birligi, ta'limning hayot bilan aloqasi kabi ta'riflarni asosiy sifatida tamoyillarini ajratadi.

S.YA.Batishhev-kasb ta'limi mazmunini ishlab chiqarish va mehnat jarayoni rivojlanishi bilan uzviy bog'langan holda tasavvur etish kerak deb hisoblaydi va ta'limning quyidagi tamoyillarini belgilaydi: ilmiylik, tizimlilik va joriylilik, amaliy ta'lim bilan ishlab chiqarish mehnatining birligi.


V.A. Skakun – kasb ta'limi tamoyillarini quyidagicha talqin qiladi: ilmiylik va g'oyaviylik; ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligi; ilmiy-texnika taraqqiyotiga ta'limning bog'liqligi, politexnizm; malakali ishchilarni tayyorlash barcha tomonlarining bir-biriga aloqasi; ta'limning birligi va tabaqalanishi.


A.P.Belyaeva ta'limda haqchillik, ilmiylik, politexnikaviylik, tizimlilik, muqobillilik, politexnik va kasbiy ta'limning birligi hamda o'zaro aloqasi; fanlararo va

majmuaviy o'zaro aloqadorlik, kasbiy safarbarlik, ta'limning egiluvchanligi turg'unligi, mujassamlangan ham tabaqalashganligini ta'limning asosiy tamoyillari sifatida talqin etadi.

O'qitish tamoyillarining majmuasi mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- faollik tamoyili;
- o'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi tamoyili;
- ko'rsatmalilik tamoyili;
- o'qitishning tarbiyalovchi xarakteri tamoyili;
- ilmiylik tamoyili;
- o'qitishda sistemalilik va izchillik tamoyili;
- o'qitishning tushunarli bo'lishi tamoyili;
- talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
- bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning puxta bo'lishi tamoyili;
- didaktik reduktsiya tamoyili;





Faollik tamoyili - talaba o'zi harakat qilgan paytda yaxshi o'rganadi o'zlashtiradi. SHuning uchun o'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ko'proq harakatlar qilishi kerak bo'lsin.

Talabalar har bir darsga faol qatnashishi kerak, chunki talaba qandaydir ish bajarish ishni ongliroq ravishda o'zlashtiradi va bu bilim xotirasida chuqurroq o'rnatilib qoladi. Buning natijasida talabalar bilimlarni yaxshiroq va chuqurroq o'zlashtiradi va eslab qoladi hamda ularning qiziqishi ortadi. Ba'zi bir qobiliyatlarga esa, masalan mustaqillik va individual ravishda o'rganish kabi qobiliyatlarga faqat shu tarzda erishish mumkin xolos. Buning uchun, o'qituvchi juda yaxshi uslubiy qobiliyatlarga va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.


O'qitishda nazariya bilan amaliyoti bilan bog'liqligi-Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularning mazmunini o'zlashtirib olishgina emas, balki bilimlarni amalda qo'llay bilish ham kerak.

Talabalarni amaliy faoliyatga tayirlash nazariy bilimlarni egallash jarayonida boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda talabalar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarning ishonarli ekanligini tekshiradilar, bu bilimlarni mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar hamda ularni amalda qo'llanish ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi talabalar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Ular egallab olgan nazariy bilimlari asosida tanlagan kasblariga doir mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar. SHu bilan birga nazariy bilim ham to'ldirilib, konkretlashtirilib boriladi.

O'qitishning ko'rsatmaliligi-o'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar talabalarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. Buyumni qanchalik har tomonlama idrok qilinsa, talabalarning shu buyum haqidagi bilimi ham shunchalik to'la va chuqur bo'ladi.

Ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish maqsadlariga mos bo'lib, materialning mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o'rganish esa talabalarni chinakkam ilmiy va hayotiy muhim bilimlar bilan qurollantirishi kerak. Ko'rsatmalilik bu bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirib olishga hamda ularning hayot bilan, mehnat amaliyoti bilan bog'lanishiga yordam beradi. Mashg'ulotlarda turli xil ko'rsatmali qurollarni qo'llash talabalarning fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi, ularning diqqatini safarbar etadi. SHuning ko'rsatmalilik vositalari o'qitishning hamma bosqichlarida: talabalarning yangi materialni idrok qilishlarida, bilimlarni mustahkamlashda, tekshirish hamda amaliy faoliyatda va ishda qo'llashlarida, mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qilishda tadbiq etiladi. Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin qilib tadbiq etish - bir tomondan tilning tushunarligini va o'qitish jarayonida audio-vezual



vositalardan foydalanishni talab qilsa, ikkinchidan u bevosita ish jarayonida va reholatda o'qitishni talab etadi.

O'qitishning tushunarli bo'lishi –o'qitishning tushunarli bo'lish tamoyili o'rganilayotgan material mazmuni, hajmi va o'qitish metodlariga ko'ra talabalarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jismoniy kuchi va bilish imkoniyatlarini mos bo'lishini talab etadi.

O'qitishni tushunarli qilish degani uni oson qilishni bildirmaydi. haddan tashqari oson materialni talabalar ortiqcha kuch-g'ayrat sarflamay o'zlashtirib oladilar. Bunday o'qitish talabalarning aqliy bilish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam bermaydi. O'qitishni tushunarligi talaba imkoniyatlarining eng yuqori chegarasi va uni asta-sekin oshirib borish bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonining borishida talabalar oldiga quyiladigan o'quv va mehnat topshiriqlarini izchillik bilan murakkablashtirib borish talabalarning aqliy imkoniyatlari va jismoniy kuchlarini rivojlantiradi. O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, talabalar uni o'zlarining oldingi bilimlari bilan bog'lay olishlari va uni tushunishda qiynalmasligi lozim.


Namunalardan foydalanish tamoyili- o'qituvchi o'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim yaxshi namunalarni tanlashga harakat qilishi kerak. Yaxshi model, amaliyotdan tipik misollar, yaxshi hamda yomon mahsulotlar ham kutilgan darajadagi natijaning sifati qanday bo'lishi yoki bo'lmasligini aniq ko'rsatadi.

Didaktik reduktsiya tamoyili- talabaning bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishi uchun bu o'quv material kerakli miqdorgacha qisqartirilishi lozim. Agar o'quv materialining hajmi juda katta bo'lsa, undan aynan kasb-hunar vazifalarini bajarish uchun kerakli qismlar tanlab olinishi kerak. Kompleks (umumiy) va murakkab topshiriqlar doimo didaktik ravishda osonlashtirilishi lozim, lekin ma'nosi o'zgarmasligi shart. SHuning uchun, agar faqat boshlang'ich bilimlar berish kerak bo'lsa, o'quv materialini iloji boricha oddiyroq tushuntirishga va nihoyatda ko'p va keng o'quv material bilan talabani qiynamaslikka harakat qilish kerak. Tajribali o'qituvchi murakkab jarayonlarni oson so'zlar bilan tushuntira oladi.

Ilmiylik tamoyili - talabalarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng yangi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi va talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishni hamda talabaning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Bu uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Talaba o'rganayotgan bilimlar albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

O'qitishning tarbiyalovchi xarakteri – o'qitish va tarbiyalash jarayonlari uzviy bir-biriga bog'liq bo'ladi. O'qitish bilim berish vazifalarini hal qilish bilan birga talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. U talabalarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning o'quv va mehnat faoliyatidagi aktivligi va mustaqilligini, bilimga qiziqishini oshirishga yordam beradi.



Biroq o'qitish jarayonidagi tarbiya stixiyali ravishda amalga oshirilmaydi. Uning maqsadi, mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va talabalarga ta'sir etish samaradorligi bir qator shartlarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiylari: o'rganilayotgan fanning mazmuni, o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi va metodikasi hamda bu mashg'ulotlarni o'tkazayotgan pedagogning shaxsidir.

O'quv mashg'ulotlarining to'g'ri tashkil etilishi va ularni o'tkazish metodikasi talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlarda talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga doir individual ishlari ham, bu ishlarning guruhli ko'rinishlari ham qo'llaniladi.

Ta'lim tarbiya jarayonining mahsulligini oshirish maqsadida tarbiyaviy yo'nalishning ustuvorligini ta'minlash asosiy mezon hisoblanadi.


Tarbiya orqaligina inson o'z shaxsini etib anglaydi. O'z-o'zini anglagan kishigina o'z qobiliyatlari va imkoniyatini bilgan holda ehtiyojini shakllantirish zaruratini vujudga keltiradi.

O'qitishda sistemalilik va izchillik- sistemalilik va izchillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi, talabalar bilim ko'nikma hamda malakalarni izchillik bilan egallab boradilar va ayni zamonda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar.

Sistemalilik va izchillik jarayoni o'quv jarayonining hamma zvenolarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. Ulardagi material bir qator didaktik talablar (fanni o'rganish maqsadi, uning boshqa hamda fanning mantiqi bilan belgilanadigan sistema bo'yicha joylashtiriladi. O'quv dasturida nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir-biriga uzviy bog'lanishi saqlanishi kerak. Har bir darsda o'quv maqsadini aniq belgilash va belgilangan maqsadga muvofiq keluvchi mazmunini tarkib toptirish kerak. Har bir kasbiy fani uchun o'quv dasturi talabiga mos holda dastavval tayanch tushunchalarni aniq belgilab olib, ularning darajasi va me'yorini aniqlash kerak. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan metodlarni aniq belgilab, yuqori samara beruvchi usuldan foydalanish, mashg'ulotlar davomida berilayotgan bilim va ko'nikmalarning talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi nazorat va tekshirishning turli usullari hamda testlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar bilim darajasi oshib borishiga va rivojlanishiga qarab predmetni bayon qilishning didaktik sistemasi fan sistemasiga to'g'ri bora yaqinlashib boradi. Mashg'ulotlarni utkazishda dasturga aniq rioya qilish va talabalar bilim darslik bilan ishlashi ularning bilimlarni muayyan sistemada o'zlashtirib olishga yordam beradi.

O'qitishda talabalar bilim ongliligi va faolligi - bu tamoyil o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va aktiv egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustakillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

O'qitishdagi onglilik tamoyili talabalar bilim o'z o'quv ishlarining konkret maqsadlarini aniq tushunishini, o'rganilayotgan fakt, hodisa, jarayonlarni va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olishini, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilishini bildiradi.



Talabalarning faolligi ularning nazariy materialni egallab olishida va sinf laboratoriyada, ustaxona hamda ishlab chiqarish sharoitlarida o'quv mehnat topshiriqlarini bajarishda namoyon bo'ladi. Aktivlik talabalarning o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'langan.

Talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish -har bir talaba o'zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o'rganishi va hisobga olishi o'qitish sifatini oshirish va har bir talabaning ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Talabaning xususiyatlarini bunday o'rganish uzoq vaqt mobaynida olib boriladi. Pedagog talabalarning darslardagi va ishlab chiqarish ta'limi vaqtida ustaxonalaridagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari va tayyorlagan buyumlarini tekshiradi, maslahatlarda va darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan suhbatlashadi. Talabaning kuchli va ojiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri va irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, talabalarning hayotiy va mehnat tajribalarini, ularning kollejga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o'rganadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi. Nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'limi jarayonida talabalar o'zlarining bo'lajak kasbiy faoliyatlari uchun kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar. Bundan tashqari avvalgi mashg'ulotlarda hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalar ancha murakkabroq materialni o'zlashtirib olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy bilimlarni egallash talabalarning xotirasi, mantiqiy tafakkuri, xilma-xil faoliyat turlaridagi ijodiy aktivligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi. Lekin hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarning kelgusida ilmiy bilimlar sistemasini o'zlashtirib olishda asos bo'lib xizmat qilishi uchun ular puxta o'zlashtirilgan, yaxshi mustahkamlangan bo'lishi va talabalarning xotirasida o'zaro vaqt saqlanishi kerak. Mustahkamlik tamoyilining talablari shulardan iborat bo'lib, bularga rioya qilmaslik talabalarning o'zlashtirmasligiga, ularning o'qishda orqada qolishiga sabab bo'ladi. O'qitish tamoyillari bilan bir qatorda o'qitishning asosiy qoidalar ham bo'lib ularga quyidagilar kiradi:


- tushunarli - tushunarsizga;
- yaqindan - uzoqqa;
- osondan - qiyinga;
- aniqdan - mavhumga;
- umumiydan - xususiyga.

Nazorat savollari

1. O'qitish tamoyillari.
2. O'qitish tamoyillarining majmuasiga nimalar kiradi?
3. O'qitishda nazariya bilan amaliyot urtasida kanday bog'liqlik bor?
4. o'qitishning asosiy qoidalariga nimalar kiradi?

Tayanch iboralari

Nazariya, amaliyot, reduksiya, model, kompleks, individual



KASBIY TA'LIM METODLARI

Reja:

1. Ta'lim metodlari.
2. Og'zaki usullar.
3. Ko'rgazmali usullar. Amaliy usullar.

Ta'lim berish metodlari deganda pedagogning ish usullarini tushunmoq kerak.

O'qitish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, nihoyatda xilma-xil va turli xarakterdagi faktorlarga bog'liq. O'qituvchi o'qitish metodlarining bitmas tunganmas xazinasiga ega. O'qitish metodlarini har xil klassifikatsiyalarini tahlil qilmay, ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz.

1. O'qitishda talabaning harakatlari xarakteristikasiga ko'ra:

- a) Faol metodlar
- b) Passiv metodlar

2. O'quv ishining turlariga qarab:

- a) bilimlarni o'zlashtirishning dastlabki metodi;
- b) bilimlarni takomillashtirish metodi;
- v) Bilimlarni tekshirib ko'rish va baholash metodi;

3. Bilim manbalariga qarab:

- a) Og'zaki metodlar;
- b) Ko'rgazmali metodlar;
- v) Amaliy metodlar.

O'qitish metodlari o'quv jarayonining amalga oshirish ya'ni o'qitish va o'qish usullari bo'lganligidan, har bir metodni ikki tomondan o'qituvchi faoliyati va talabalar faoliyati nuqtai nazaridan qarash kerak. SHuning uchun ham o'qitish metodini bilim manbalari bo'yicha quyidagicha guruhlaymiz.

Og'zaki metodlar	Ko'rsatmali metodlar	Amaliy metodlar
A) Suhbat Maqsadni tushuntirish talabalarga muammoli savol berish, talabalarining javoblarini muhokama qilish. B) O'quv adabiyoti bilan mustaqil ishlash. Maqsadni tushuntirish. Topshiriqning mazmuni va Talabalarining ish tartibini aniqlash, talabalar ishiga rahbarlik qilish, yakun yasash. V) Ovoz yozishdan va	A) Ko'rgazmali o'quv adabiyotlari rasmlar va sxemalarni, videotasvirlar, Multimediyalar, tajribaviy mehnat usullarini namoyish qilish. Maqsadni tushuntirish Topshiriqni aniqlash Texnika vositalarini boshqarish, tajribalarni amalda ko'rsatish B) Talabalarining ob'ekt va jarayonning mustaqil kuzatishlari.	A) Laboratoriya va amaliy ishlar Maqsadni tushuntirish, talabalar ishini tartibini va mazmunini aniqlash hamda rahbarlik qilish. Yakun yasash. B) Mashqlar. Maqsadni tushuntirish, talabalar ishi ni tartibini va mazmunini tushuntirish, yakun yasash.

radio,televidiniadan multimedia resurslaridan foydalanish. Maqsadni tushuntirish kompyuter, texnika va multimedia vositalarini boshqarish. Talabalarni idrok etishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.	Maqsadni tushuntirish kuzatish ob'ektlarini aniqlash talabalarning kuzatishlariga rahbarlik qilish,yakun yasash.	V)Talabalarning ijodiy ishlari. Maqsadni tushuntirish,muammo qo'yish, talabalar ishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.
---	--	--

Og'zaki metodlar. Agar talabalar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining o'quv mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki darslik mavzulari asosida olsalar, bunday metodlar Og'zaki metodlar jumlasiga kiradi.(tushuntirish, hikoya, suhbat, va h.o.).

Og'zaki metodlardan foydalanish jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Ammo ular yordamchi rol o'ynaydilar.

Bayon darsda ko'rgazmali vositalardan foydalanish yoki foydalanmasligiga bog'liq bo'lmagan holda tuziladi. Masalan, o'qituvchi tikuv mashinasining tuzilishini va ishlash tartibini tushuntirayotganda kinematik sxemadan foydalanish mumkin. Lekin isbot mantiqini kinematik sxema belgilamaydi,balki u tushunchani o'zlashtirishda yordam beradi xolos.

Og'zaki metodlardan foydalanish muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichlari-talabalarning yangi bilimlarni eslab qolishlari va aytib bera olishlaridir. Og'zaki metodlarda talabalar o'qituvchi mulohazalari jarayonini takrorlaydilar, unga taqlid qiladilar.

Talaba o'qituvchining tushuntirish mantiqiga qanchalik yaqinlashsa, materialni shunchalik muvaffaqiyatliroq o'zlashtiradi.


Og'zaki metodlardan asosan yangi materialni o'rganish paytida foydalaniladi va bilimlarni egallashning boshqa usullari bilan qo'shib olib borilsagina ular ta'limda yaxshi samara beradi.

Ko'rgazmali metodlar deganda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgan o'quv materialini o'zlashtirish formalari tushuniladi.

Ta'limning kurgazmali vositalari bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish xarakterini belgilaydi. Masalan, tikuv mashinasi detallari namunalari ko'rsatilishi mexanizmlarining ishlashi virtual yoki model orqali yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayon videotasviri namoyish qilinishi mumkin, deylik.

Asosiy maqsad dars mazmuni, albatta. O'qituvchi esa qo'shimcha tuzatish kiritishi mumkin xolos.

Ta'limning bunday metodlaridan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyati ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'ladi.Ko'rgazmali qurollar bilimlarni sistemaga solish va boyitishda, shuningdek talabalarning fikr yuritish faoliyatini aktivlashtirishda yordam beradi.



Ta'limning ko'rgazmali metodlari talabalarning bilim faoliyatida obrazli, mantiqiy, konkret va abstrakt, hissiy va aqliy jihatlarning nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

Amaliy metodlar. Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba ishlari asosida o'quv materialini egallash formalari ta'limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Ana shu metodlar yordamida amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bunda ko'nikmani shakllantirish jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'nikmalarni egallashning muvaffaqiyati uni shakllantirish sharoitiga bog'liq.

Birinchi shart-ko'nikma nima maqsadda shakllantirilishini anglashdir. Har qanday ko'nikma-avtomatlashgan darajaga etkazilgan harakatlar sistemasidir. Agar talaba o'quv materialini o'zlashtirishda ularning ahamiyatini tushunmasa, bu harakatlarni shakllantirish qiyin buladi. Masalan: tikuv mashinasi kiyimni qaysi qismlarini tikishga mo'ljallanganligini va buning uchun kiyim materialiga mos ravishda ip va ignalar tanlanishi tartibini bilmasa, shu ishlarni bajarishdagi harakatlarini shakllashtirish qiyin bo'ladi.

Ikkinchi shart-mashqlarning sistemali bo'lishi. Odatda ko'nikmalarni egallashdagi kamchiliklarga o'quv mashqlari sistemasini tashkil etish va o'tkazishdagi kamchiliklar sabab bo'ladi, ya'ni mashqlarni o'tkazish uchun kerakli vositalar bilan ta'minlanmaganligi.

Uchinchi shart-amaliy harakatlarni anglagan holda bajarish. Talabalar harakatlarning muayyan fikriy rejasiga asoslanishlari, ish jarayonlarining izchilligini yaxshi tushunishlari, mexanik tarzda takrorlashga va yodlab olishga yo'l qo'ymaslik kerak.

To'rtinchi shart-dastlabki amaliy harakatlar va jarayonlarga puxta tayyorlanish. Ular ongli ravishda reja asosida bajarilsa, ko'nikma tezroq muvaffaqiyatliroq shakllanadi. Buning uchun talabalar nazariy bilimlarini yaxshi egallashlari kerak.

Beshinchi shart-mashqlarni mustaqil bajarish va o'zini-o'zi nazorat qilish. Talaba ko'nikmani mustaqil bajara boshlaganida u o'z harakatlarini nazorat qiladi. O'qituvchi talabaga o'z-o'zini nazorat qilish usullarini o'rgatishi zarur. Masalan, talaba kiyimni birona detaliga bezak berish jarayonini amaliy o'rgangandan keyin, uyda o'zi mustaqil ravishda bajarishga va baho berishga o'rganadi.

Oltinchi shart-bajarilgan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ularni baholash. O'quv ko'nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy jihatlari bo'ladi. Talabalar yo'l qo'yadigan tipik xatolar namoyon bo'ladi. Lekin sinfda yaxshi ishlarni namoyish qilish kerak. Ijobiy namuna asosida o'qitish afzalroqdir.


Agar ko'nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o'qitishning amaliy metodlari o'quv materialining muvaffaqiyatli egallanishiga olib keladi.

Nazorat savollari

1. Ta'lim berish metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. Uqitish metodini bilim manbalari bo'yicha guruxlarini ayting?
3. Ogzaki metod bilan kurgazma metod urtasidagi fark nimada?
4. Ko'nikmani shakllantirish shartlarini ayting.

Tayanch iboralari

Kunikma, avtomatlashgan, passiv metodlar, xarakteristika.



FAOL O'QITISH METODLARI

Reja:

1. Faol metodlar xakida ma'lumot
2. Muammoli o'qitish.
3. Modulli o'qitish metodi
4. Dasturlashtirilgan o'qitish metodi.
5. Motivatsiya (qiziqtirish) metodi

Keyingi yillarda pedagogika fani va amaliyotida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda faollashtirishga yo'naltirilgan faol metodlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishga katta e'tibor qaratilayapti.

O'qitishda eng samarali metodlaridan biri bu muammoli o'qitishdir.

Muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomondan yaratiladigan vaziyatlar va ularni echishga qaratilgan talabalarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida talabalar kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Albatta talabalarning darslarga qanchalik darajada faol qatnashish yoki qatnashmasligi talabaga juda bog'liq. Lekin bunda o'qituvchi tayyor bilimni talabalarga berib qoladi xolos. Umuman olganda talabalarning aktivligi sezilarli darajada emas. SHuning uchun ham o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan har qanday urinish etarli darajada samara bermasligi mumkin. Bunday holatda qanday yo'l tutish mumkin. Albatta o'qitish jarayonida juda ko'p usullarni qo'llash mumkin. Lekin darslarni muammoli qilib o'tish ana shu yuqorida aytilgan kamchiliklardan xolis bo'lishi mumkin. Bunda har bir talaba darsning mohiyatini tushunib olishi va uni oldida ma'lum bir muammo o'qituvchi tomonidan qo'yilishi kerak. Bu qo'yilgan muammoning qanchalik darajada talabalarga ijodiy intilishni uyg'otishi albatta muammoning xarakteriga bog'liq. Bunda har bir talaba o'z oldida turgan muammoni bila turib uni ijobiy echishga harakat qilishi kerak. O'qituvchi esa bu jarayonni kuzatib borib, tegishli maslahat va yo'nalishlarni ko'rsatishi kerak.


Hozirgi zamonaviy darslarning eng xarakterli tomoni ham shundadir. Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lish - individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli darslarning yana bir xarakterli tomoni shundaki, bu metodni qo'llash bilan faqatgina talabalar bilimini o'stiribgina qolmay, balki talabalarda shu fanga qiziqish uyg'onadi.

Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, talabani uni echishga yo'naltiradi, echimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi - individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli vaziyat yaratishning uslubiy yo'llari quyidagilar:

- qarama-qarshiliklarga olib kelinadi va talabalar o'zlariga echim yo'llarini izlash taklif etiladi;
- ishtirokchilarga, hodisaga turli xil holatlardan baho berish taklif etiladi;



- muammoli nazariy va amaliy topshiriqlar aniqlanadi;
- taqqoslash umumlashtirish va xulosalar chiqarish;
- aniq savollar qo'yiladi.

Ta'limning muammoli – qidiruv uslublari amalda bilimni so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot uslublari yordamida amalga oshiriladi. SHu bilan birgalikda o'quv materialini muammoli bayon qilish uslubini qo'llash, amaliy muammoli – qidiruv ishlarini bajarish, hatto tadqiqot tipidagi amallarni olib borish to'g'risida so'z yuritish mumkin.

O'quv materialini muammoli uslub yordamida o'tish muammoli tuzilgan ma'ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni tahlil qilish, talaba fikrini o'z ortidan ergashtirish, uni faolroq qilish kabi usullardan foydalanishni ko'zda tutadi.


Muammoli ta'lim uslublari biri evristik va muammoli qidiruv suhbat hisoblanadi. Bunda o'qituvchi (pedagog) talabalar oldiga qator izchil va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan savollar majmuini qo'yadi. Talabalar ularga javob berganda qandaydir shakllarni aytadilar. Aytganlari to'g'ri ekanligini mustaqil isbotlashga harakat qiladilar. SHu bilan birga yangi bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil ravishda oldinga siljishni amalga oshiradilar. Agar evristik suhbatda bunday taxminlar yangi mavzuning faqatgina biror qismiga aloqador bo'lsa, muammoli-qidiruv suhbatda talabalar muammoli vaziyatning butun bir tizimini echadilar. SHuning uchun ham bu suhbatlarning farqi shartli va faqatgina muammoli vaziyatda qo'llanish tadbirlariga taalluqlidir.

Ta'limning muammoli – qidiruv uslublari ko'rgazmali qo'llanmalar esda saqlashni faollashtirish maqsadida emas, balki darsda muammoli vaziyatni yaratadigan eksperimental masalalarni qo'yish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, keyingi paytda rasmlar va chizmalar tizimi ko'rinishida muayyan o'quv vaziyatlari tasvirlarining ko'rgazmali qo'llanmalari ko'p tayyorlanmoqda. Bu usulda talabalarning mustaqil fikrlashining ustuvor sabablarini aniqlash oson ko'chadi.

Muammoli - qidiruv uslublari ko'proq ijodiy bilim faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Ular talabalarning bilimni chuqur anglashiga, mustaqil egallashiga yordam beradi. Bu uslublari, ayniqsa, quyidagi hollarda samarali qo'llaniladi: o'quv jarayonida tushuncha, qonun va nazariya kabilarni shakllantirish ko'zda tutilganda, faktik axborotni ma'lum qilish, mehnat faoliyatining laboratoriya-eksperimental o'quv va ko'nikmalarini hosil qilishda, o'quv materialining mazmuni printsiplal jihatdan yangi bo'lmasdan, ilgari o'rganilganining mantiqiy davomi bo'lsa, uning asosida talabalar yangi bilimni qidirish uchun mustaqil qadam tashlasa, mazmun hodisadagi sabab-oqibat va boshqalarga olib kelsa.

Modulli o'qitish metodi

«Modulli o'qitish» termini xalqaro tushuncha modul bilan bog'liq bo'lib, uning bitta ma'nosi - faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u, modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi.



Modul fanining fundamental tushunchalarini – ma'lum xodisa yoki qonun, yoki bo'lim, yoki ma'lum bir yirik mavzu yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhini o'z ichiga oladi.

Modul bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgandir.

Har bir modul ma'ruzaviy mashg'ulotlar va shu bilan bog'liq bo'lgan amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali, o'qitishni tabaqalash imkoniyati yaratiladi. YA'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi.

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u talabalarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir (20).

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini xar tomonlama echish imkoniyatini yaratadi [98].

- Modul – faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash, dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida, faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq [76]:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitish, fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o'quv o'yinlar;
- loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo.

Modulli o'qitishda talabalarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Modulli yondashuv o'qituvchi uchun ma'lum darajada darslik funktsiyasini bajaruvchi o'quv qo'llanmalar va o'quv materiallarini ishlab chiqishda ham qo'llanishi

mumkin. Maxsus fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'qish amaliyotlarini o'tkazishda qo'llaniladigan o'quv materiallari bo'yicha namunaviy modullar 1- ilovada keltirilgan. Ushbu o'quv materiallarining afzalligi shundaki, modul bo'yicha amalga oshiriladigan har bir faoliyat turi xaritalar ko'rinishida berilib, ular asosan talabaning mustaqil ravishda amaliy ishlarni bajarish, tajribalar o'tkazishga yo'naltirilish imkoniyatini beradi.

Dasturlashtirilgan o'qitish metodi.

Dasturlashtirilgan o'qitish - bu dasturlashtirilgan o'quv materialining o'qituvchi (kompyuterlar, elektron darslik, kinotrinajer va boshqalar) yordamida boshqaradigan o'zlashtirishdir.

Dasturlashtirilgan o'qitish tamoyillarga ajraladi.

- Boshqaruvchi tuzilmalarning ma'lum darajasidagi ierarxiyasi quyidagi mas'uliyatli vaziyatlarda pedagog tizimni boshqaradi: fandan umumiy yo'nalishni belgilash, fanga munosabat, individual yordam va tuzatishlar kiritish;

- Pedagog va talabaga zarur bo'lgan tezkor teskari aloqa, biriga o'quv materialini tushunish uchun ikkinchisiga tuzatishlar kiritish uchun.

Teskari aloqa ikki xil shaklda amalga oshiriladi. Ichki va tashqi ko'rinishda. Ichki teskari aloqa – talabaning o'zi tomonidan bajariladigan, o'quv materialining o'zlashtirilishini muttasil tahlil qilib borish. Tashqi teskari aloqa – pedagog yoki boshqaruvchi - o'qituvchi o'urilma tomonidan o'quv materialining talaba tomonidan o'zlashtirilishini muttasil baholab borish.


O'quv materialini qadamlab beruvchi texnologik jarayon asosida ishlab chiqilgan o'qituvchi dasturlar. Bu esa, o'quv materialini dastruda alohida mustaqil, ammo o'zaro bog'liq qismlar ko'rinishida shakllanishini anglatadi. Qadam o'zaro bog'liq uchta zvenodan iborat: axborot, teskari aloqa elementi va nazorat izchil qadamli o'quv amallari yig'indisi o'qituvchi dasturni – dasturlashtirilgan o'qitish asosini tashkil etadi.

O'qitishning individualligini turli xil vaqtda bo'lsa ham, o'quv materialining to'la o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Chunki o'qitish, sur'ati, o'quv materialining har bir talaba tomonidan o'zlashtirilishi individualdir.

O'qituvchi (o'rgatuvchi) vositalardan foydalanish. Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasining xususiyati shundaki, o'quv materialini talabalar tomonidan nazorat topshiriqlarini o'z ichiga olgan uncha katta bo'lmagan bloklar bo'yicha o'zlashtiriladi.

Dasturlashtirilgan o'qitish jarayonida talabalar juda faol ishlaydilar. Talabalar egallagan bilim albatta oldindan tuzilgan dasturning qanchalik darajada to'g'riligiga bog'liq. Dasturlashtirilgan o'qitishning yana bir xususiyati shundaki, u o'qituvchiga juda katta imkoniyatlar ochib beradi, ya'ni, o'qituvchi ijodiy ishlarini olib borishi hamda talabalar bilan ko'proq mustaqil ishlashi uchun imkoniyat yaratiladi.

Dasturlashtirilgan o'qitishning asosiy afzalliklarida biri doimo o'z-o'zini nazorat qilish va talabalarining material ustida ishlash jarayonida ularning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari ustidan nazorat qilishdir. Talabalar o'z-o'zlarini nazorat qilishlari bajarilgan jarayon natijalarini namuna bilan solishtirib ko'rish orqali amalga oshiriladi; namuna esa dasturning har bir qadamdagi ichki



teskari aloqa materiallarida keltiriladi. Tashqi teskari aloqani amalga oshirish, ya'ni o'qituvchi tomonidan nazorat qilish ancha murakkab ishdir. Nazorat qilishning uzluksizligini ta'minlash maqsadida turli xil nazorat qiluvchi qurilmalari qo'llaniladi.

Nazorat qiluvchi qurilmalari sifatida kompyuter ishlatiladi. Talabalar bilimini tekshirish maqsadida har bir mavzu oxirida, o'quv material oxirida o'qituvchi test savollari va ularning to'g'ri javob kodini kiritishi kerak. SHuning uchun ham talaba o'qituvchining ishtirokisiz ob'ektiv ravishda o'z-o'zini nazorat qila olmaydi, chunki u savolning to'g'ri javobi kodini qurilmaga kiritish uchun bu javobni oldindan bilishi kerak.

Motivatsiya (qiziqtirish) metodi.

Motivatsiya metodida darsda talabalar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo'lmagan mavzular to'g'risidagi suxbat bilan boshlanadi.

Iloji bo'lsa darsga bog'liq bo'lgan mavzular yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Masalan qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikoyat tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida talabalarning kayfiyatga, shu sohaga qiziqishiga yoki keiyngi darslarda talabalar o'rganadigan faniga e'tiborini qaratishga yordam beradi.


Agar dars birinchi bor yangi talaba guruhida o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi qisqacha o'zini tanishtirib o'tib, talabalarga ham o'zlarini tanishtirish imkoniyatini berish kerak. Bu talabalarda ishonch tug'diradi, talabalar o'zlariga bildirilayotgan hurmatni his qiladilar. Ta'riflangan va tanlangan o'qitish fanlarni va modullari asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinli (ichki) va ekstrinli (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

So'ngra o'qituvchi talabalarga maxsus soha bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi mavzuni boshlashdan avval o'tilgan mavzular qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak.

Talabalarga mavzularga mos tarqatma materiallar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini engillashtiradi. Mavzuga kirilmay turib, tarqatma materiallar tarqatilmaydi. Ularni mavzuga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni o'qib chiqish uchun etarli daqiqalar berish va talabalar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talabalarga tafakkur qilish va qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarurdir. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni echish va natijalarni taqdim etish samarali o'qitish usullari hisoblanadi.

U har bir topshiriq yoki mashqdan keyin talabalar o'zlari bajargan ishlarini baholashlari lozim. Boshqa bir imkoniyat esa natijalarni guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilishdan iboratdir. O'quv fani yakunida suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida talabalarning natijalari, ularning amalga oshgan va oshmagan ishlari, shuningdek, talabalarning o'z natijalari yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.



Nazorat savollari

1. Muammoli o'qitish deganda nimani tushunasiz?
2. Muammoli vaziyat yaratishning uslubiy yo'llari kaysilar?
3. «Moduli o'qitish» tushunchasini izoxlang. Modul nima?
4. Modulli o'qitish samaradorligi kaysi omillarga bog'liq?
5. Dasturlashtirilgan o'qitish va motivatsiya (qiziqtirish) metodi urtasidagi fark nimada?

Tayanch iboralari

Tafakkur, motivatsiya, intrinli, ekstrinli, dasturlashtirilgan, kompyuter, elektron darslik, kinotrinajer, modul.

ISHLAB CHIQUARISH TA'LIM METODLARI

Reja:

1. Ishlab chiqarish ta'limi xususiyatlari.
2. Ish harakati usullarini namoyish qilish metodi. Mashq.
3. Talabalarning mustaqil kuzatuvi.
4. Ishlab chiqarish ta'limning faol usullari.
5. Ta'lim metodlarini tanlash.

Zamonaviy sharoitda bozor iqtisodiyoti yuksak kasb mahoratga mutaxassilarni tayyorlashni talab etiladi. Bu esa kasb ta'limi muassasalari oldiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish uchun ishlab chiqarish ta'limi tubdan yaxshilash vazifasini qo'yadi.

Ishlab chiqarish ta'limi xususiyatlari. Kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida o'quv jarayonining ishlab chiqarish ta'limi tashkil etuvchi qismi hisoblanadi. SHu bilan birga ishlab chiqarish ta'limi maqsadi, mazmuni, shakli va usullari bilan o'ziga xos xususiyatiga xam ega.

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy maqsadi talabalarda ma'lum kasb, mutaxassislik sohasi buyicha kasbiy mahoratning shakllanishi hisoblanadi. «Kasbiy mahorat» tushunchasi mohiyatini ochib beruvchi quyidagi ko'rsatkich-mezonlarni ajratib ko'rsatamiz:

ishni bajarish sifati – Texnik talablarning ish natijalari bo'yicha bajarilishi; uning o'rnatilgan ko'rsatkich va me'yorlarga mos kelishi; ijobiy natijalarni olish;

mehnat unumdorligi – o'rnatilgan vaqt me'yorlarining bajarilishi; mehnatni tashkil qilish va ishni bajarishning eng tejimli va unumli usullarini, yuqori unumdorlikka ega bo'lgan texnika va texnologiyani o'zlashtirishga va bo'lgan intilishni aniqlab beruvchi vaqt mezonini baholash qobiliyati va mahorati;

kasbiy mustaqillik – mehnatning yuqori sifati va unumdorligini ta'minlovchi ish usulini mustaqil tanlash mahorati; ishlab chiqarish vaziyatlarida muammolvrni mustaqil hal qilish, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati; ishda o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarishni amalga oshirish;

mehnat madaniyati – o'z mehnatini rejalashtirish qobiliyati va odati; mehnatni maqbul usul va uslublari, zamonaviy texnika va texnologiyani qo'llash bilan ishlay olish maxorati; ish faoliyatida kasbiy bilimni qo'llash maxorati; ish o'rni va mehnatni to'g'ri tashkil qilish, mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;

mexnatga bo'lgan munosabat – mehnatni tashkil etishni va usullarni takomillashtirish, ish jarayoniga yangi asl nusxadagi mehnat qurolini joriy qilishga intilish va etakchilik qobiliyati, ilmiy echimlar va ixtirolarni topishga bo'lgan intilish va qobiliyat;

mehnat faoliyatining iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiqligi – bajariladigan mehnat jarayonini iqtisodiy tahlil qilish, ishni bajarish jarayonida iqtisodiy jihatdan maqbul qarorlarni qabul qilish qobiliyati.

Bu ko'rsatkichlar orqali ishlab chiqarish ta'limi mazmuni, tashkil etilishi va usullarining barcha masalalarini ko'rib chiqish zarur.

Ishlab chiqarish ta'limi usullari oldingi paragrafda ko'rib o'tilgan nazariy o'qitish usullariga o'xshashdir. Ayniqsa ishlab chiqarish ta'limi jarayonida nazariy o'qitishning ko'plab usullari ishtirok etadi. SHu bilan bog'liq ravishda faqat ishlab chiqarish ta'limi uchun xos bo'lgan metodlarni ko'rib chiqamiz. Bularga to'rt pog'onali, xarakat usulini namoyish qilish, mashqlar, talabalarning mustaqil kuzatishi, yozma ko'rsatmalar, mehnatga ijodiy yondashuvning shakllantirish, shuningdek ishlab chiqarish ta'limining ba'zi «faol» usullari kiradi.

Kasb hunar kollejlari talabalar o'z tanlagan kasb ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishlarida **«to'rt pog'onali usuli»** eng samarali usul hisoblanadi. Bu usul O'zbekiston Respublikasi AQSH va Evropaning bir qancha davlatlari kasb hunar ta'limida keng qo'llaniladi. Bu usulda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi.

Amaliy o'qituvchisi talabalarga avval bajariladigan kichikroq bir ishni tushuntirib beradi, so'ngra qanday tartibda bajarilishini qilib ko'rsatadi. Keyin talaba shu ishni ko'rsatilgan tarzda qaytarishi (immitatsiya) kerak. Talaba qaytarib qilayotgan paytda amaliyot o'qituvchisi uning xatolarini to'g'rilab turadi. Talaba ushbu mashqni bir necha marotaba qaytarishi kerak. Misol tariqasida to'rt pog'onali usuli doirasi kasb-hunar kollejlarining engil sanoat yo'nalishlari uchun o'tiladigan «Tikuvchilik korxonalari jihozlari» bo'yicha o'quv amaliyoti mashg'ulotlarini o'tkazishini ko'rib chiqamiz.

1-pog'ona – tushuntirish - qiziqtirish – ma'lumot berish. Mashg'ulot talabalarni tikuvchilik sohasi va unga qarashli zamonaviy tikuv mashinalariga qiziqishini uyg'otishdan boshlanadi. So'ngra o'qituvchi talabalarga amaliy mashg'ulotni bajarish uchun tikuv mashinasi to'g'risidagi ma'lumotlarni, unda bajariladigan tikuv jarayonini tushuntiradi. Bunda o'qituvchi barcha o'quv didaktik materiallardan, masalan, tikuv mashinasining kinematik sxemalari, mashinada ishlash bo'yicha ko'rsatmalar, sozlash asboblari va gazlamalardan ko'rgazmali materiallar sifatida foydalanishi mumkin.

Amaliyot o'qituvchisi tikuv mashinasini ishlatishdan oldin qilinadigan tayyorgarlik ishlari ketma-ketligini tushuntiradi. Tikish sifatini namoyish etish maqsadida mashinaning to'g'ri sozlanganligi yoki uning ishida sodir bo'ladigan nuqsonlarni ko'rsatib o'tishi mumkin.

2-pog'ona –namoyish qilish.

Bu pog'onada amaliyot o'qituvchisi tushuntirgan ish bosqichlarini o'zi qilib ko'rsatadi, ya'ni tikuv mashinasiga ustki va ostki iplarni taqish, ignanini o'rnatish, gazlamani tepki ostiga joylashtirish va mashinani ishga tushurishni ko'rsatib beradi.

Buning uchun kerakli tikuv mashinasi, gazlama va iplar va sozlash asboblari tayyorlab qo'yilgan bo'lishi kerak.

Amaliy ko'nikmalarni 3 marta namoyish qilish tavsiya etiladi:

- 1.Talabalarda to'la va haqiqiy tasavvur paydo bo'lishi uchun namoyish oddiy tezlikda o'tkaziladi.
- 2.Har bir ish bosqichini alohida va xususiyatlarini yaxshiroq ko'rsatish uchun sekin tezlikda namoyish qilinadi.
- 3.Talabalarda aniq tasavvur hosil qilish uchun oddiy tezlikda yana bir marta to'la ravishda ko'rsatiladi.

3-pog'ona – ko'rsatilgan tarzda qaytarish.

Talabalar har biri amaliyot o'qituvchisining harakatlarini u ko'rsatgan tarzda qaytaradilar. Talabalar ishlayotgan paytda o'qituvchi ularni xatosini tuzatadi. YAxshi ishni maqtaydi yoki tanqid qiladi.

4-pog'ona – mashq qilish.

Talabalar tikuv mashinasiga ustki va ostki iplarni taqish, ignani o'rnatish va gazlamani tepki ostiga joylashtirib, tikish jarayonini bajarishlari uchun o'qituvchi ularga etarlicha gazlama va ip berib qo'yadi.

Agar ish natijalari sifat mezonlariga javob bersa, ya'ni gazlamadagi bahyaqator sifatli bajarilsa, ish tugatilishi mumkin.

Bir va ikkinchi bosqich bo'yicha talabalar dastlabki nazariy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Ushbu usulni o'quv jarayoniga qo'llab o'tkazilgan tadqiqotlar va olimlar fikri bo'yicha, reja asosida ishlatilgan tashqi qo'zg'ovchilar va nazorat qilinishi mumkin bo'lgan reaksiyalargina etarli darajada tekshirilishi mumkin. SHundan kelib chiqib o'rganishning «To'rt pog'onali» usuli bo'yicha quyidagi ilmiy xulosalarni berish mumkin:

O'zlashtirish (o'rganish) – bu qo'zg'ash ta'siri va reaksiya ketma-ketligi takrorlanishining natijasidir.

Takrorlash orqali «SHartli reflekslar orqali o'rganish» printsipi hosil bo'ladi.


O'zlashtirishda erishilgan natijalar rag'batlantirilsa (maqtab turilsa) o'rganish samarasi oshib boradi.

Bugungi kunda bosqichlarni murakkabroq qilishga harakat qilinmoqda. YA'ni shunday mashqlar kiritilishi mumkinki, ular doirasida talaba bir vaqtning o'zida bir nechta ko'nikmalar va jarayonlarni amalda bajarishi kerak. «Tushuntirish» va «Namoyish etish» pog'onalari esa, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bu usul kasb-hunar kollejlari kasbiy fanlardan amaliy ko'nikmalarni o'rgatishda juda yaxshi samara beradi.

Ish harakati usullarini namoyish qilish metodi. Bu metodini qo'llashdan maqsad talabalar ongiga ish harakatining aniq ko'rish tarzini yaratishdir.

Ish harakatining aniq va to'liq tarzi talabalar ongiga bir lahzada yuzaga kelmaydi. Avval u umumiy ko'rinishda taassurot qoldiradi. So'ngra asta-sekin faoliyatlar bo'yicha aniqlanadi.



Ish usullari namoyishini qabul qila borib talabalar nafaqat tushunishlari, bilki usul tomonidan ularga ko'rsatilayotgan barcha usullarni alohida faoliyatlar bo'yicha yodda saqlab qolishlari kerak. SHuning uchun ish usullari namoyishini takrorlash, ya'ni bir necha marta amalga oshirish lozim.

Mashq-ko'nikma va maxoratlarning tashkil etuvchilari bo'lganligi kabi ishlab chiqarish ta'limining ham asosiy usuli bo'lib xisoblangan mashqlar bilan shakllanadi. Mashq deganda ongli ravishda ma'lum bir faoliyat usuli bo'yicha amaliy xarakatlarni ko'p martalab takrorlash tushuniladi.

Mashqlarni mazmuni va o'tkazish usullari xususiyatlariga qarab guruhlarga ajratish mumkin. Mashqlar ikki xil yondashuv – asosida tuzilishi mumkin. Birinchisiga didaktik maksadlar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar; boshlang'ich maxoratni va murakkab maxorat shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar kiradi. Ikkinchisiga mazmun bo'yicha: ish usullarini bajarishda yo'naltirilgan mashqlar; ish jarayonlarini bajarishda yo'naltirilgan; texnologik jarayonlarni boshqarishga yo'naltirilgan mashqlar kiradi.

Ishlab chikarish ta'limi jarayonida talabalarning kasbiy maxoratni shakllantirish maqsadida ketma-ket murakkablashib boruvchi mashklar tizimi ishlab chiqilishi lozim.

Talabalarning mustaqil kuzatuvi. Bu usul asosan murakkab tuzilishdagi jixozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kasbni egallamokchi bo'lgan talabalarning ishlab chiqarish ta'limida qo'llaniladi.

Kuzatuv talabalar tomonidan mustaqil ravishda, ishlab chikarish ta'limi ustasining nazorati va uning ko'rsatmalari bo'yicha o'tkaziladi. Topshiriqda odatda mustaqil kuzatuvlar maqsadi qo'yiladi, ularni o'tkazish tartibi ko'rsatiladi va kuzatuvlar natijalarini qayd qilish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.


YOzma ko'rsatma berish. Bu usulni qo'llash ishlab chiqarish ta'limi darslarida mustaqil axborot manbai xisoblangan turli xil ko'rsatmali o'quv hujjatlaridan foydalanish bilan bog'liq. Ishlab chiqarish ta'limida ko'rsatmali, texnologik xaritalar va o'quv algoritmlari ko'p qo'llaniladi.

Ko'rsatmali xaritalar texnologik jarayonlarini o'rganishda qo'llaniladi. Urganilayotgan ob'ektda texnologik jarayonlar bajarilishi usullari, ketma-ketligi, qoidasi, vositalari, tartibi, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishni ochib beradi.

Texnologik xaritalar xar tomonlama xususiyatga ega bo'lgan ishlarni bajarishda qo'llaniladi; ular faoliyat usulini bajarishning texnologik ketma-ketligi, tartiboti, texnik talablari, vositalarini ochib beradi.

O'quv algoritmlari talabalarga murakkab jixozlarni rostlash, ularga xizmat ko'rsatish va sozlashni o'rgatishda qo'llaniladi.

Ishlab chiqarish ta'limning faol usullari. O'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarishda faollik ya'ni fikriy, ongli ravishdagi, ijodiy faollik muxim ahamiyatga ega. U talabalarda o'z xarakatlarini ko'rsatilgan namuna bilan mos ravishda ongli ravishda tuzatishlarida, ijobiy natijalarga olib keluvchi faoliyat usullarini mustaqil tanlashlarida, o'z mehnatlarini rejalashtirish, xatolarni taxlil kilish va tuzatishda namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishda talabalarning faolligi – bu ularning mashina, agregat, qurilma ishining tashqi belgilari bo'yicha ichki jarayonlarni tasavvur qilishlari va ushbu belgilarining taxlili asosida zaruriy xollarda uni rostlash bo'yicha maqsadga muvofiq



qarorlar qabul qilish qobiliyatidir; bu egallangan faoliyat usullarini makbullashtirish, o'zgaruvchan sharoitlarda mahorat bilan harakat qilish qobiliyatidir.

Ishlab chiqarish ta'limining «faol» usullariga avvalambor ishlab-chiqarish texnik vazifalarini echish kiradi, ya'ni:

1. ishlov berish, rostlash, sozlash ishlari;
2. dastur bilan boshkariladigan avtomatlashtirilgan jihozlar uchun boshqaruv dasturlarini ishlab chiqish va sozlash;
3. mashinalarning kinematik va printsipl sxemalaridan foydalanib ishlash tartibotlari va parametrlarini aniqlash;
4. jihozlarni urnatish sxemalarini ishlab chiqish;
5. ishlov berish, yig'ish, rostlash bo'yicha texnologik jarayonlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi tomonidan taklif etilgan yoki talabalar mustaqil ishlab chiqqan bir necha texnologik jarayondan eng maqbulini tanlash;

6. ish vaqti, materiallar, energiyani tejash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va hokazo.

Ishlab chiqarish ta'limining «faol» usullariga shuningdek turli xil ishlab chiqarish vaziyatlarida mustaqil qaror qabul qilishga va echishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar ham kiradi. Bunday mashqlar talabalarni haqiqiy sharoitlarda yuzaga keluvchi o'xshash vaziyatlarda harakatlarga tayyorlaydi.


Mashq uchun mashinada ish sharoitini u yoki bu darajada o'xshatuvchi, shuningdek muayyan ish joyida yuzaga keluvchi texnologik tartibotning asosiy buzilishlari vaziyatini yaratish zarur. Bunday vaziyatlar texnologik vazifalar deb ataluvchi topshiriqlarda berilishi mumkin.

Ta'lim metodlarini tanlash

Ta'lim metodlarini tanlash birinchidan, darsdan ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, agar darsning maqsadi yangi bilimlarni egallashdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon qiladi yoki talabalarning kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi. Birinchi holda u turli xil narsalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladigan hikoya, tushuntirish, ma'ruza yoki suhbat metodidan foydalanishi mumkin. Agar darsda talabalarda amaliy ko'nikmalar hosil qilinishi kerak bo'lsa, buning uchun mashq qilish metodi qo'llaniladi.

Ikkinchidan, o'rganiladigan fanning mazmuni va darsning konkret materialiga bog'liq bo'ladi. Masalan, "Tikuvchilik texnologiyasi" fanida o'rganish kiyimga ishlov berishda bir xil metodlar, ishlab chiqarish ta'limi darslarida esa butunlay boshqa metodlar qo'llaniladi. Ayrim hollarda o'rganilayotgan texnologik jarayonlarni talabalar bevosita kuzatishlari mumkin. Shuning uchun o'qituvchi bu kuzatishni tajribalarda yoki mehnat faoliyati jarayonida tashkil etadi. Agar ularni bevosita kuzatish mumkin bo'lmasa, o'qituvchi turli xil ko'rsatmali qurollarni namoyish qilishdan foydalanadi.

Uchinchidan, talabalarning ilgari tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq. Agar yangi material talabalarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni o'zi bayon qiladi, buni ko'rsatmali qurollar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boradi.



Nihoyat, ma'lum bir o'qitish metodini tanlash asbob-uskunalar, ko'rsatma qurollar va o'quv jarayonining normal o'tishini ta'minlaydigan boshqa shart-sharoitlarning borligiga, shuningdek, o'qituvchining tajribasi, ish uslubi va shaxsiy sifatlariga bog'liq. O'qituvchining vazifasi-bu shart-sharoitlarni yaxshilash hamda o'zining pedagogik mahoratini doimo takomillashtirib borishdan iborat.

Nazorat savollari

1. «Kasbiy mahorat» tushunchasi mohiyatining ko'rsatkich-mezonlarni ayting.
2. «To'rt pog'onali usul» ni ayting.
3. Ish harakati usullarini namoyish qilish metodiga ta'rif bering.
4. Talabalarning mustaqil kuzatuvi kanday ta'limda kullaniladi?
5. Ishlab chiqarish ta'limning faol usullariga nimalar kiradi?
6. Ta'lim metodlarini aytib uting.
7. Misol kilib, birorta fanni olib kaysi metoddan foydalanganingizni tushuntirib bering.

Tayanch iboralari.

Faol, parametr, kinematik, algoritm, texnologik xarita, mashk, kasbiy mustakillik, ta'lim, xikoya, ma'ruza, suxbat, ish uslubi.

KASBIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH. KASB TA'LIMINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH. O'QUV USTAXONALARNING JIHOZLANISHI

Reja:


1. Ta'limning tashkiliy shakllari. Kasbiy-ta'lim darslariga qo'yiladigan talablar.
2. Tahsil oluvchilarga o'quv ustaxonasi, korxonaning o'quv tsexlarida ta'lim berish. Guruhlarda o'qitish. Malakali ishchilar tarkibiga kiritib o'qitish. Tahsil oluvchilarga asosiy ish joyida ta'lim berish.
3. Kasb ta'limda zamonaviy darslarga qo'yiladigan didaktik talablar.
4. O'quv ustaxonalarini tashkil qilish
5. O'quv ustaxonalarini rejalashtirishda qo'yiladigan umumiy talablar.
6. Ish urnida rioya kilinadigan talablar.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (O'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish davrida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlariga ega bo'lganligi bois hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. O'rta asrga kelib, kasbiy ta'lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o'tkazila boshlagan. chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan davr edi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida chex pedagogi YA.A.Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.



Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlariga binoan turlanadi:

1. Tahsil oluvchilar soniga ko'ra-ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.
2. O'qitish joyiga ko'ra-ta'lim-tarbiya muassasalarida va ta'lim muassasalaridan tashqarida (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).
3. O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra-45 minutlik, juftlik (90 min), qisqartirilgan (70 minutlik), qo'ng'iroqsiz.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli dars ta'lim tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi. Sinf-dars tizimining asosiy o'ziga hos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

-deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajadagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi;

-ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;

-har bir dars o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'ladi;

-darslar muntazam ravishda almashib turadi;

-kasb ta'lim darslariga o'qituvchi muhandis-pedagog, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qiladi;

-tahsil oluvchilar turli ko'rinishdan o'quv-bilish faoliyatida ishtirok etadilar.

Quyidagilar sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari hisoblanadi:

-qat'iy tashkiliy tuzilmaga egaligi;

-iqtisodiy ko'rsatgichlarining nisbatan yuqoriligi. Chunki bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida ko'p sonli tahsil oluvchilar bilan ishlaydi;

-o'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratiladi.

Shu bilan birga sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e'tirof etilgan:

-o'rtacha tahsil oluvchiga mo'ljallanganligi;

-har bir tahsil oluvchilar bilan individual ishlash imkoniyatining yo'qligi.

Ijtimoiy talablar, kasb ta'limining maqsad va vazifalari, tahsil oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, printsiplari kabilarga ko'ra kasbiy-ta'lim darslariga quyidagi talablar qo'yilishi kelib chiqadi:

1. Fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asosanib dars tuzilmasini maqbullashtirish;

2. Darsda barcha didaktik printsiplarning maqbul nisbatini ta'minlash


3. Tahsil oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda mahsulli o'quv-bilish faoliyatiga shart-sharoit yaratish;

4. O'quv materialini mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;

5. Tahsil oluvchilar tomonidan ilgari o'lashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish;

6. Tahsil oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag'batlantirish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo'li bilan rivojlantirishga erishish;

7. Darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va emotsional his-tuyg'ularga asoslanish;



8. Didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish;
9. Nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish;
10. Zaruriy bilim, ish harakat usullari, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib topdirish;
11. Tahsil oluvchilarda uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'z bilimi va kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish;
12. Darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashhislash.

Kasb ta'limiga oid zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog'liq ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg'unlashtirish bu sohadagi aniq maqsadlarni ham aniqlashtirib olishni talab etadi.

Kasb ta'limda zamonaviy darslarga quyidagi didaktik tadlablar qo'yiladi:

- A) har bir darsning ta'limiy vazifasini aniq belgilab olish;
- B) ijtimoiy talab va tahsil oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini maqbullashtirish;
- V) o'quv-bilish faoliyatini samarali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;
- G) ta'limning turli shakl, metod va vositalarining oqilona uyg'unligini ta'minlash;
- D) dars tuzilmasini ijodiy yondoshgan holda shakllantirish;
- J) tahsil oluvchilarning turli o'quv-bilish faoliyatlarini uyg'unlashtirish;
- Z) ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida tezkor teskari aloqani ta'minlash, ta'sirchan boshqaruv mexanizmini ishlatish;
- E) darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish.

Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talablar quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

-o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlariga aniqlab, ulardan oqilona foydalanish:

-ta'lim mazmuni va maqsadlaridan kelib chiqadigan tarbiyaviy vazifalarni qo'yish;

-tahsil oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;

-tahsil oluvchilarga aniq va do'stlarga munosabatda bo'lish;

Darsga qo'yilgan rivojlantiruvchi talablar;

-tahsil oluvchilarda o'quv-o'rganish bo'lgan ijobiy rag'batni shakllantirish va rivojlantirish;


-tahsil oluvchilarning psixologik xususiyatlari va rivojlanganlik darajasini o'rganish va hisobga olish;

-o'quv mashg'ulotlarini odimlash (ilgarilab borish) darajasida o'tkazish;

-tahsil oluvchilarni aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishlarini oldindan bashorat etish va bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda tezkor o'zgartirishlar kiritish;

Bundan tashqari kasb ta'limi metodikasida tashkiliy, psixologik, boshqaruvchilik, maqbul muloqot o'rgatish, xamkorlik qilish sanitariya-gigiena, etik va shu kabi talablar ham hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish ta'limi shakllari




Ma'lumki, kasb-hunar ta'limining moddiy-texnika bazasi yaxshi ta'minlangan va ulardan maqbul foydalanilgan holdagina, sifat jihatdan ko'zlanganday mutaxassis kadrlar tayyorlash imkoniyati tug'iladi. SHu bois o'quv muassasalarni o'zida ham, korxona tsexlarida ham yaxshi jihozlangan ustaxona, maydonlar tashkil qilinishi nazarda tutiladi. Taxisil oluvchilar bu erda ish o'rnini oqilona tashkil etish malakalarini egallaydilar, shuni bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, moslamalar, mexanizmlar bilan tanishadilar, operatsiyalar va hatti-harakatni bajarish tartibini, ishlab chiqarishi madaniyatini egallaydilar, o'quv vaqtidan oqilona foydalanish xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish va texnologik talablarga rioya qilishni o'rganadilar. Ta'lim muassasalarida o'quv ustaxonalarining mavjudligi taxisil oluvchilarni frontal o'qitish uchun zarur sharoitlar yaratadi, nazariy mashg'ulotlarni amaliyot bilan oqilona bog'lab o'rganilishiga imkon beradi, materiallarni o'quv dasturiga muvofiq izchillikda o'rganishni ta'minlaydi.

O'quv ustaxonalari-ni tashkil qilish, ularni jihozlash va rejasini tuzish ta'lim muassasasining turi, tayyorlanadigan mutaxassislik xarakteri va ishlab chiqarish xususiyatlarga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi maqsadlarida foydalaniladigan o'quv ustaxonalari va yordamchi xizmat binolari puxta o'ylab joylashtirilishi hamda o'quv va texnologik talablarga to'liq javob berishi kerak. O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarining tarkibi hamda maydoni sanoat, qurilish, transport, maishiy xizmat ko'rsatishning tegishli sohalarini loyihalashtirishning texnologik me'yoriga, shuningdek, qurilish me'yor va qoidalariga javob berishi kerak.

Kasb-hunar kollejlarining yangi majmualarini, o'quv ustaxonalarini qurishda ta'lim muassasalarini loyihalashtiruvchi tashkilotlarning loyihalariga amal qilish lozim. O'quv ustaxonalarini birinchi qavatga joylashtirish, kelgusida uning kengaytirish mumkinligini nazarda tutgan holda rejalashtiriladi. Ustaxonalarda bajariladigan ishlar natijasida shovqin chiqishini hisobga olib, ularni imkon boricha binoning alohida qanotiga yoki nazariy mashg'ulotlar o'tkaziladigan binolardan uzoqroqda joylashtirish kerak.



O'quv ustaxonalarida ishlash uchun eng qulay sharoit yaratish uchun quyidagilarni bo'lishi zarur:

1. havoning harorati qish paytida 15-16°S dan past bo'lmasligi, yozda esa 20°S dan oshmasligi kerak. Ustaxona binosida havo almashinishi tabiiy yoki sun'iy ravishda amalga oshiriladi.
2. Ustaxona poli iliq, yuzasi tozalash uchun qulay, sirpanmaydigan bo'lishi talab etiladi. Devorlar ochiq rangga, ship esa binoni yaxshiroq yoritilishi uchun oq rangga bo'yaladi.
3. O'quv ustaxonalari va maydonlari bilim yurtida tayyorlanadigan kasb va ixtisosliklarga ko'ra me'yorlanadi. Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarining rejalashtirishda quyidagi umumiy talablarga amal qilinadi:
4. O'quv ustaxonalari mashg'ulotlarni amaliy ta'lim dasturiga muvofiq o'tkazishga moslashtirilgan bo'lishi kerak;
5. Har bir bo'lim maydoni va asbob-uskunolari miqdoriga ko'ra hamda egallanadigan kasb, ixtisoslikka muvofiq 25-30 yoki 12-15 nafar talabalar guruhini bir vaqtini o'zida o'qitishga mo'ljallanadi;
6. O'quv ustaxonalari guruhlarni frontal o'qitishga mo'ljallangan bo'lishi kerak;
7. O'quv ustaxonalarida tayyorlanadigan har bir kasb va ixtisoslikning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, alohida bo'limlar, shuningdek asboblari va materiallar saqlanadigan omborxona, mexanika bo'limi va hokozolar tashkil etiladi;
8. Texnologik jarayon jihatidan bog'liq bo'lgan bo'limlarni bir-biriga yaqinroq joylashtirish zarur;
9. Silliqlaydigan, jilvirlaydigan va charxlaydigan dastgohlar odatda alohida binoga o'rnatiladi. Agar buning iloji bo'lmasa, bunday dastgohlar ustiga havoni so'rib oluvchi ventilyatsiya o'rnatiladi;
10. Ish jarayonida ko'p miqdorda gaz, chang yoki kuchli shovqin chiqaradigan bo'limlar to'liq izolatsiya qilinadi;
11. Ustaxonalar dasturning mazkur mavzusi o'rganilayotganda osib yoki o'rnatilib qo'yiladigan kerakli ko'rsatmali qurollar, jadvallar, o'quv ishlab chiqarish ishlarining ro'yxati bilan ta'minlanadi;
12. Ustaxona devorining bir tomoniga guruh talabalariga tegishli ko'rsatgichlar o'rnatiladi;
13. Ustaxonaning barchaga yaxshi ko'rinadigan joyiga birinchi yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan dori-darmon solingan aptechka va qaynatilib sovutilgan suvli bak qo'yiladi;
14. Tahsil oluvchilarning ish o'rnidagi individual asbob-uskunolari komplekti va zarur jihozlar uchun maxsus moslamalar bo'lishi kerak;
15. Ustaxonada tozalash uchun ishlatiladigan materiallar, qirindi, qipiqni yig'ishga mo'ljallangan qopqoqli yashik; ularni yig'ishtirib olish uchun xokandoz, belkurak, ustaxonani tartibga keltirish uchun cho'tkalar bo'lishi kerak;
16. Ustaxonada yong'inga qarshi zaruriy inventar bo'lishi shart;

O'quv ustaxonalar tahsil oluvchilar ishlab chiqarish ta'limi dasturi talablariga muvofiq topshiriqlarni bajarishlari uchun zarur bo'ladigan, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan individual



va ommaviy foydalanishga mo'ljallangan asosiy va yordamchi o'quv-ishlar chiqarish asbob-uskunalarini bilan jihozlanadi.

O'quv ustaxonasiga jihozlarni joylashtirishda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. O'qituvchi o'z ish o'rnida turib, tahsil oluvchilar guruhiga jamoaviy yo'l-yo'riq berish imkoniyatini;
2. Tahsil oluvchilarning maqbul ishlari uchun eng qulay va havfsiz sharoitni;
3. Ishlash, ta'mirlash vaqtida shuningdek materiallar tashishda har tomondan kelishning qulayligini faqat ishchi turadigan dastgoh orasidan o'tish joylarining kengligi 05-08 m, dastgohlar qatori orasidagitish yo'lining kengligi eng kamida 1,2 m aravacha, elektrokar va boshqa transport vositalari o'tadigan joyning kengligi 2 m dan qilib belgilanadi. O'quv ustaxonasidagi barcha turdagi jihozlarning xavfli joylar to'r, kojuxlar bilan to'sib qo'yiladi.


Ish o'rnini deganda o'quv ustaxonasi yoki tsexning alohida ishchi ixtiyorida bo'lgan va u ishlab chiqarish topshirig'ini bajarishda kerak bo'ladigan jihoz, moslama, asbob va materiallarning maqsadga muvofiq holda joylashtirilgan ma'lum qismi nazarda tutiladi. Odatda ish o'rnini quyidagilarni o'ziga qamrab oladi:

1. ishchi foydalanadigan mehnat vositalari o'rnatilgan, normal ishlash uchun zarur bo'lgan maydon;
2. ish bajariladigan jihozlar, mexanizm va moslamalar;
3. material, yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulotlar, chiqindilarni joylashtirish, saqlash uchun maxsus qurilmalar;
4. asbob-uskunalar, moslamalar va texnikaga oid hujjatlarni joylashtirish va saqlash uchun maxsus qurilmalar;
5. har bir ish o'rniga mo'ljallangan ko'tarma-transport vositalari;
6. normal va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlovchi qurilmalar.

SHunday qilib ish o'rnini amaliy mashg'ulotlar dasturini to'liq va sifatli bajarishiga sharoit yaratadigan qilib tashkil etilishi zarur. Mehnatni ilmiy tashkil etish asosida ish o'rnini tashkil etish eng avvalo oqilona mehnat jarayonini, tahsil oluvchilar toliqishini kamaytirishni nazarda tutadi.

Tahsil oluvchilar ish o'rnida qoidaga rioya qilishlari uchun quyidagi talablarga amal qilinadi:

1. ishga kerakli bo'lgan barcha predmetlar zarur bo'lgan paytda darhol topish uchun qo'l ostida bo'lish kerak;
2. ish jarayonida tez-tez ishlatiladigan asbob-uskunalar, materiallarni ishchiga yaqinroqqa, kamroq ishlatiladiganlari esa uzoqroqqa joylashtiriladi;
3. foydalaniladigan barcha jihoz va materiallar taxminan bel balandligida joylashtiriladi;
4. asbob va moslamalarni qaysi qo'l bilan olish qulay bo'lsa, o'sha tomonga joylashtiriladi;
5. bir predmetni ikkinchisi yoki ishlov berilayotgan mahsulotning ustiga qo'yish mumkin emas;
6. hujjatlar foydalanish uchun qulay, shu bilan birga iflos bo'lmaydigan joyda saqlanadi;



7. yarim mahsulot, materiallar, tayyor mahsulotlar o'tish yo'llarini to'smaydigan hamda halaqit bermaydigan, holatda saqlanishi zarur, engil narsalarni og'irlaridan yuqoriroqqa qo'yiladi.
8. O'qituvchining ish o'rni mashg'ulotlarini samarli o'tkazish va ish vaqtining bekor ketishini kamaytirishni ta'minlashga yordam berishi kerak. U iloji boricha talabalarni to'liq ko'ra oladigan, 25-30 smbalandlikda joylashtiriladi.

Fiziologik, psixologik nuqtai nazardan olib qaraganda, kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni tahsil oluvchilarning o'sib-rivojlanayotgan organizmi uchun sezilarli yuklanish beradi. SHuning uchun ham o'quv rejimini yuqori ish qobiliyatini ta'minlaydigan, tahsil oluvchi sog'ligiga zarar etkazmaydigan qilib tashkil etiladi. Tahsil oluvchilarning ish rejimini belgilashda ish qobiliyatini quyidagi bosqichlari inobatga olinadi:

I-bosqichda tahsil oluvchi vazifani olib, ishga kirishadi, asta-sekinlik bilan mehnat unumdorlik oshib boradi;

II-bosqichda yuqori unumdorlikka erishiladi;

III-bosqichda ish unumdorligi pasayib, charchash holati vujudga keladi.

Nazorat savollari

1. Kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari kandy xususiyatlariga binoan turlanadi?
2. Nimalar sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari hisoblanadi?
3. Sinf-dars tizimining kamchiliklari nimada?
4. Kasbiy-ta'lim darslariga qanday talablar qoyiladi?
5. O'quv ustaxonalarini tashkil etish kandy amalga oshiriladi?
6. O'quv ustaxonalarida ishlash uchun qulay sharoit yaratish uchun kandy bo'lishi zarur?
7. Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarining rejalashtirishda kandy umumiy talablarga amal qilinadi?
8. Tahsil oluvchilar ish o'rnida qoidaga rioya qilishlari uchun kandy talablarga amal qilinadi?


Tayanch iboralari

Fiziologik, psixologik, boskich, yarim mahsulot, jihoz, moslama, asbob, ustaxona, yashik, yuqov ustaxonasi, didaktik materiallar, sinf, dars.

KASB TA'LIMIDA O'QUV MAQSADLARINI VA MAZMUNLARINI BELGILASH. O'QUV-DIDAKTIK MATERIAL HAMDA VOSITALARNI TAYYORLASH VA ULARDAN FOYDALANISH

Reja:

1. Blum taksonomiyasi.
2. O'quv maqsadlari va fe'llar. Ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar.
3. Rivojlantiruvchi maqsad. O'qitishning texnik vositalari.
4. O'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashdagi texnik-pedagogik talablar.



5. Tasviriy ko'rsatmalardan foydalanish hollari.
6. Ko'rsatmali qo'llanmalarga qo'yilgan talablar.

O'quv maqsadlarini aniqlash, shakllantirish, turlash va tizimlashtirish, ketma-ket masalalar va savollar tarzida ifodalash o'qituvchi ishining eng murakkab va ma'suliyatli qismi hisoblanadi.

Maqsadlarni aniq belgilash va tizimlashtirish, o'qituvchi faoliyatining keyingi bosqichlariga yo'naltiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Tahsil oluvchilar ongiga etkazilgan ta'lim maqsadlari ularni o'quv-bilish faoliga mo'ljal bo'ladi va ta'lim-tarbiya jarayonida ularning ongliligi va faolligini oshiradi.

O'quv maqsadlarining ishlab chiqishning birinchi bosqichida o'qituvchi tayyorlanayotgan mutaxassisning modeli hisoblangan davlat ta'lim standartini o'rganishi zarur. Undan so'ng o'quv rejasini o'rganilib, o'zi o'qitadigan o'quv predmetini boshqa umumta'lim, umumkasbiy va ixtisoslik turkum fanlari bilan aloqadorligi aniqlanadi. O'qituvchi shu yo'l bilan o'zi o'qitadigan o'quv predmetini o'qitishdan ko'zlangan umumiy maqsadini, mutaxassis faoliyatida uchraydigan muammolarni vaziyatlarni aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. SHunday qilib, o'quv rejasiga kiritilgan har bir o'quv predmeti davlat ta'lim standarti doirasida bo'lajak mutaxassislarda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bularsiz mutaxassis o'ziga yuklatilgan vazifalarni to'laqonli bajara olmaydi.

O'quv maqsadlarini ishlab chiqishning ikkinchi bosqichida o'qituvchi xususiy maqsadlarni ishlab chiqadi. Bunda o'quv predmetining namunaviy dasturini tahlil etish asosida har qaysi bob, mavzuga tegishli maqsadlar aniqlanadi. Aniqlangan maqsadga binoan o'quv materialining mazmuni va o'zlashtirilishda rejasini dastur nomi bilan ataladigan darslik, o'quv qo'llanmasi va shu kabi adabiyotlardan aniqlanadi.

YUqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, o'quv jarayoni har bir o'quv predmetining o'qitish maqsadlarini belgilashdan boshlanadi. Chunki har bir nazorat yoki amaliy mashg'ulot aniq maqsadlarni ko'zda tutadi. Agar o'quv maqsadlari belgilanmay mashg'ulot o'tkazilsa, uning mazmuniy va didaktik tuzilmasi buziladi.

O'quv maqsadlarini belgilab, ma'lum ketma-ketlikda joylashtirish, tasniflash, pedagogik taksonomiya deb yuritiladi. **(Taksonomiya tushunchasi grekchadan olingan bo'lib, tartib bilan joylashtirish qonuni ma'nosini anglatadi.)**


Taksonomiya o'rganilayotgan ob'ektning tabiiy aloqalari asosida tuziladigan ko'p pog'onali joylashtirishdir. pedagogikada amerikalik olim B. Blunning o'quv maqsadlari taksonomiyasi eng ko'p tarqalgan hisoblanadi. Bu taksonomiya quyidagi tartibga ega:

Bilish-o'rganilayotgan materialni xotirada saqlab qolish va qayta xotirlashni ko'zda tutadi. Bunda talaba o'zlashtirgan material mazmun mohiyatini anglamaydi.

Tushunish-o'rganilayotgan materialni mohiyati anglanadi, xulosa chiqarish imkoniyati mavjud bo'ladi. Tushunish darajasining ko'rsatgichi sifatida material mohiyatini izohlab berish, boshqa materiallar bilan aloqadorligini ko'rsatish kabilardan foydalaniladi.

Qo'llash-o'zlashtirilgan dalillar, tushunchalar va ish usullarini amaliyotga tatbiq etish qobiliyati.

Tahlil qilish-o'zlashtirilgan yaxlit o'quv materialini qismlarga ajratish, bu qismlarning daraja va o'zaro nisbatlarini o'rgatish, qaytadan yaxlitlik hosil qilishni ko'zda tutadi.



Baholash-belgilangan maqsadlarni egallangan natijalar bilan qiyoslash orqali amalga oshirilganligi sabab eng yuqori daraja hisoblanadi. O'quv maqsadlarini belgilashda talaba o'zini qanday holatda tutishi lozimligi ifodalovchi so'z (f'el) ishlatish zarurki, u maqsadni aniq tushunilishini ta'min etsin. Buning uchun z navbatida har bir mavzuga oid tayanch iboralarni alohida ko'rsatish kerak bo'ladi.


O'quv maqsadlarini tizimlashtirish va darajalashni quyidagi jadval ko'rinishida belgilash maqsadga muvofiqdir.

	O'quv maqsadlari	<u>Fe'llar</u>
	Bilish	Qaytarib aytish, qayd qilish, xabar berish, nomlab yozish, farqlash, tanish, aytib berish, takrorlash.
	Tushunish	lillar keltirish, o'rnini almashtirish, aniqlik kiritish, belgilab qo'yish, mohiyatini tushuntirish, o'zgartirish kiritish, izohlash kabilar.
	Qo'llash	o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalardan amalda foydalanish, o'zlash ishlarini bajarish, namoyish etish, o'rgatish, aniqlash, bajarish, echimini topish.
	Tahlil qilish	ratib ko'rsatish, keltirib chiqarish, tabaqalashtirish, tasniflash, taklif etish, oldindan aytish, taqsimlash, tekshirish, guruhlariga ajratish.
	Sintez	Umumlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, kashf etish, tizimlashtirish, loyihalashtirish.
	Baholash	ashhis qo'yish, isbotlash, asoslash, o'lchash, ma'qullash, tekshirish, nazorat qilish, taqqoslash, qiyoslash, solishtirish kabilar.

Amaliy xarakterdagi maqsadlarga erishishda quyidagi omillar o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin: shart-sharoit, tahsil oluvchilarning ongli munosabatlari, moddiy-texnik baza, vaqt va shu kabilar.

1. Ta'limiy maqsad-tahsil oluvchilar bilimi, ko'nikmasi va malakasidagi qanday (o'sish) yuksalish bo'lishini ko'zda tutadi.
2. Tarbiyaviy maqsad-tahsil oluvchi shaxsida qanday sifat va fazilatlar tarkib topishi zarurligini belgilaydi.

Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya tizimida o'qituvchining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega bo'lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo'la olmasligi hayotiy haqiqat. SHuning uchun ham ta'lim-tarbiya



ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshirish omillaridan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o'qitishning texnikaviy vositalaridir.

O'qitishning texnik vositalari deganda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta'minlab, uning samaradorligini oshirish, ta'minlash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

Barcha o'qitishning texnik vositalarini shartli ravishda uch asosiy guruhga bo'lish mumkin.

1. Audiovizual vositalar (kinoproektsiya, diaproektsiya va epiproektsiyalar, ovoz yozib olish, televidenie, radio);
2. Jihozlar, uskuna va asboblari;
3. Dasturli (kompyuterli) ta'lim vositalari.

O'qitishning texnik vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etuvchi komponentalari bilan uzviy bog'liqlik va munosabatlarini hisobga olgan holda foydalanish zarur. Aks holda mashg'ulot samarasini umuman yo'qqa chiqarish ham mumkin.

Mashg'ulotda o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish yordamchi xarakterga ega bo'lib, ularni tanlash, ishlatish vaqti va joyi darsning umumiy rejasida maqsadlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

Hozirga paytda ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining jonli muloqoti muhim ahamiyatga ega bo'lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo'la olmasligi xayotiy haqiqat.

O'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda quyidagi texnikaviy-pedagogik talablar qo'yiladi:

- I. O'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda o'quv jarayonida ulardan majmuaviy tarzda foydalanishni hisobga olish zarur;
- II. O'quv xonasining istalgan joyidan yaxshi ko'rish va eshitish imkoniyatining mavjudligi;
- III. O'quv xonasida, shovqin, yoritilganlik, namlik va kabilar me'yorini ta'milashi;
- IV. Oddiy, arzon, xavfsiz, uzoq muddat buzilmay ishlashi;


Ta'lim-tarbiya ishida texnik vositalardan foydalanish avvalo didaktik printsipolarga amal qilishni ko'zda tutadi. Masalan, ko'rsatmalilik printsipinireal ob'ekt bilan mavhum tasavvurning birligini ifodalaydi.

Real ob'ekt yoki uning tasvirini ko'rish (idrok etish) inson uchun uni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi, aniq tasavvurlar va mavhum tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

Ta'lim-tarbiya ishida ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish zaruriyati insonning fikrlash hususiyatidan kelib chiqadi. Insonning fikrlash hususiyati ma'lumdan mavhum tomon rivojlanadi. Tushuncha va mavhum qonun-qoidalar aniq kuzatishlarga asoslansa, ularning mohiyat mazmuni ancha oson va tez shakllanadi. Inson tafakkurining rivojlanishi uning yoshiga, hayotiy tajribasi kabilarga bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida hisobga olinishi, aniq dalillar va obrazlardan ajralib qolmasligini talab etadi.

Tasviriy ko'rsatmalardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- o'rganiladigan ob'ekt juda katta yoki kichik bo'lganda;
- o'rganiladigan ob'ektni bevosita ko'rish mumkin emas;



-tushuncha va hulosalarni grafik tarzda ifodalash mumkin bo'lganda:

-murakkab ob'ektlarni soddalashtirish yoki ishlash tartibini ko'rsatish zarur bo'lganda:

-ob'ektning eng xarakterli zamon va makondagi holatni qayd etish va ko'rsatishda va shu kabilarda.

Ko'rsatmali qo'llanmalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

-barcha talabalarga yaxshi ko'rinadigan darajada katta bo'lishi:

-o'quv xonasining istalgan joyidan bimalol o'qilishi:

-muhim detallar va yozuvlarning boshqa diqqatni o'ziga tortuvchi rang bilan alohida bo'yalishi:

-tasvirlar imkon qadar ob'ektning asl rangiga mos bo'lishi:

-tasvirlarning estetik did bilan rasmiylashtirilishi:

-matnning haddan tashqari ko'p bo'lmasligi:

-tasvirlangan ob'ektlarning tabiiy vaziyatda ko'rsatilishi:

-masshtabga rioya qilishi:

-arzon, qulay, uzoq vaqt o'z holatida saqlanishi va shu kabilar.

SHu o'rinda ko'rsatmali qo'llanmadan foydalanish maqsad bo'lmay, balki natijaga erishish vositasi ekanligini unutmashlik zarur.


Ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanishda o'quv materialining mazmuni va vaqtini hisobga olish zarur. Mashg'ulotda ko'rsatmali qo'llanmalardan haddan tashqari ko'p ham foydalanish yaxshi natija bermaydi. Namoyish qilinayotgan materiallarni idrok etish jarayonida tahsil oluvchilar sezgi organlarining (ko'rish, eshitish, hidlash, ta'm bilish) ko'proq jalb etish zarur. O'qituvchining so'zi bilan ko'rsatmalilikning uyg'unligi katta ahamiyatga ega. Ko'rsatmali qo'llanmadan foydalanishganda beriladigan izoh. Tahsil oluvchilar diqqat-e'tiborini asosiy materiallarga qaratilishini ko'zda tutadi.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. Eng muhimi shundaki, amaliyot o'qituvchisi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim. Masalan: tikuv mashinasi ishida sodir bo'ladigan nuqsonlarni bartaraf eta bilishi, asosiy sozlanishlarni bajarishi va mashinani ishchi holatiga keltira olish kerak, ya'ni o'z kasbiy sohasining mohir ustasi bo'lishi kerak. Amaliyot o'qituvchisi o'z kasbiy sohasi uchun qanday materiallar, qanday yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o'zi yangiliklar qila olishi mumkinligi yuzasidan umumiy tushunchaga ega bo'lishi lozim. Ko'pincha o'qituvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va proektor slaydlari kabi vizual vositalarni o'zlari ishlab chiqadilar.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba materiali sifatida ishlatiladigan vositalarimizni quyidagicha farqlanadi:

Ko'pincha o'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish, o'rganish uchun ishlatiladi.



O'quv materiallari	ular amaliyot o'qituvchilari tomonidan darsni ko'rgazmali o'tkazish va bilim berish uchun qo'llaniladi
--------------------	--

Didaktik materiallar	ular talabalar tomonidan o'rganish uchun qo'llaniladi va o'qituvchisi tomonidan tayyorlanadi
----------------------	--

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mang'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi.

Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda ularni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyot o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

-ish varaqalari, tarqatmalar(bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar

-ezma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari


- baholash varaqi, nazorat qog'ozi

- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar

Nazariy darslar o'tkazish paytida amaliy ko'rsatmalar berilgan quyidagi vositalar ishlatiladi:

Turi	Ishlatish uchun ko'rsatmalar
O'quv kitoblari	Kitobning muayyan betlarini belgilab, dars rejasiga kiritiladi
Tarqatma materiallar	O'quv kitoblaridan yoki boshqa manbalardan saylanma nusxalar tayyorlanadi va ko'paytiriladi.
Doska tasvirlari	Mavzu va grafiklarga eskizlar tayyorlash
Slaydlar	Ular nusxalash apparatida yoki kompyuterda tayyorlanadi
Modellar	Ustaxonadagi har bir predmet yaroqli – ham yaxshi ham yomon mahsulotlari ko'rsatilishi lozim.

Amaliy mashg'ulotlar yoki amaliy ish jarayonlari paytida amaliy ko'rsatmalar bilan to'ldirilgan quyidagi vositalardan foydalaniladi:



Turi	Ishlatish uchun ko'rsatmalar
Texnik chizmalar (kinematik sxemalar, konstruktiv chizmalar)	buning uchun asl nusxalari maxsus jildlarda to'planadi.
Ekspluatatsion ko'rsatmalar	nusxalardan tarqatmalar va slaydlar tayyorlash uchun ishlatiladi.
Ish rejalari va boshqa xujjatlar	faqat nusxalar ishlatiladi, asl nusxalari esa toza saqlanadi
Modellar, real jihozlar asboblari va mahsulotlar	yaroqli va yaroqsiz jihozlar, yaxshi va yomon mahsulotlar sifatiga nisbatan yuzaga kelgan farqni ko'rsatib berishi mumkin.

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

Talabalar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Didaktik materiallar faqatgina talabaga mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish materiallardan farq qilishi mumkin. Masalan: topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo'naltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar.

Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- sodda tilda yozilgan o'quv mazmunlari
- matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (talabalar tomonidan to'ldirilishi uchun)
- talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar
- ustaxonada ishlash uchun mo'ljallangan, ish bosqichlari ko'rsatilgan tushunarli chizmalar (eskizlar) va jadvallar

- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma'lumotlar.

Matn tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va talabalar uchun)


- yashil qog'ozlar: talabalarga topshiriqlar

- qizil qog'ozlar: o'qituvchining uslubiy hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqlari

Ranglarni kodlash hujjatlardan foydalanishni engillashtiradi

- xuddi shu usuldan mazkur seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

O'qitish jarayonidagi eng muhim vositalar doskalar, flipchartlar va kodoskop (proektor) hisoblanadi. O'qituvchi bu vositalar orqali ko'rgazmali tus beriladigan namunalar yaratishi kerak. Bo'r bilan yoziladigan doska uchun avval qog'ozda ishlangan va matnlar bilan to'ldirilgan suratlar, flipchartlar uchun esa qoida bo'yicha taqdimot namunalari bo'lishi mumkin. Proektor slaydlari to'g'ridan-to'g'ri tayyorlanishi mumkin.



Doska suratlari uchun namunalar asosan o'quv kitoblaridan olinishi yoki shaxsiy qarashlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanishi mumkin. Bunda ko'p vaqt sarf etmasdan oddiy shakllar orqali tuzilgan grafiklar, sxemalar, diagramma va shu kabilarni doskaga chizish mumkin. Matnlar uchun namunalar tayyorlash shart emas.

SHunga o'xshash tarzda flipchart suratlarini tayyorlash mumkin. Bu usul nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot tayyorlanishni engillashtiradi.

Flipchart bloklarini birga olib yurish mumkinligi tufayli tasvirlar qog'ozlarga to'g'ridan-to'g'ri tushirilishi mumkin.

Proektor slaydlari qo'lda, fotonusxalar yoki kompyuter yordamida maxsus shaffof plyonkada tayyorlanadi.

Slaydlarni tayyorlash uchun:

- oddiy atsetat yoki qog'oz-shaffof sun'iy qog'oz;
- nusxa olish mumkin bo'lgan maxsus qatlamli slaydlar;
- flamaster, permanent va suvda eruvchan slaydlarni tozalash uchun spirt;
- surat chizish moslamalari (shablon, chizg'ich va boshqalar)lar ishlatiladi.

Slaydlarni qo'lda tayyorlash uchun:

- surat yoki matnni qog'ozga eskizlanadi
- slaydni uni ustiga qo'yib, skrepka bilan mahkamlab
- namunadagi surat slaydga ko'chiriladi.

Nazorat savollari.

1. Uqitishning texnik vositalarini necha asosiy guruhga bo'lish mumkin va kaysilar?
2. O'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda kanday texnikaviy-pedagogik talablar qo'yiladi?
3. Tasviriy ko'rsatmalardan kanday hollarda foydalaniladi?
4. O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda nimani tushunasiz?
5. O'qitish jarayonidagi eng muhim vositalarga nimalar kiradi?
6. O'quv maqsadlarining ishlab chiqishning boskichlarini aytib uting.
7. Pedagogik taksonomiya tushunchasini izoxlang.
8. Taksonomiya kanday tartibga ega?

Tayanch iboralar

Surat, kgoz, slayd, skrepka, shablon, chizg'ich, flamaster, permanent, fotonusxa, flipchart, doska, bur, ekspluatatsion ko'rsatmalar, kinoproektsiya,

KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MAXSUS FANLARDAN NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH

Reja:

1. Nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar rejasi loyihasining variantlari.
2. Amaliy mashg'ulot rejasining tuzilishi.
3. Rejani qayta tekshirish uchun ko'rsatmalar.
4. Nazariy darsni o'tkazish ketma- ketligi. Ma'lumot va bilim berish.
5. O'zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash uchun torshiriqlar berish. Tahlil va sintezlar. Baholash.




Kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlardan nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar rejasini aslo o'quv rejasi yoki o'quv materiali bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar rejasi faqatgina "yo'l ko'rsatuvchidir", u o'qitish yoki o'rganish materiali sifatida tushunilmasligi darkor. Dars rejasi dars jarayonini faqatgina boshqarib boradi va o'qitish va o'rganish materiallari o'rnini olmasligi kerak. Bunday reja o'quv maqsadlarini, modul yoki mavzu, amaliy usullarni o'qitish va o'rganish materiallarini, shuningdek, qat'iy belgilangan vaqt chegarasini o'zida mujassam etadi.

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni utkazish davomida o'qitish jarayonining ko'zda tutilgan ketma-ketligini saqlab qolish va rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlash lozim.


Olib borilgan dastlabki tajribalar shuni ko'rsatdiki, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun keng qamrovli tayyorgarlik ko'rish shart emas. Bunday rejani tuzishda amaliyot o'qituvchisi o'zi o'zlashtirgan tajribalarga asoslanadi.

Maxsus fanlardan dars jarayonida ishlatilishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumotni ushbu rejaga kiritish tavsiya etiladi.



Avvalo biz muhim bandlari bir nazar tashlaganda ko'zga darhol tashlanishi va yaxshi o'qilishi uchun katta shrift bilan yoziladigan rejani tavsiya etamiz.

Biz hozir kasb-hunar kollejlarda o'qitiladigan "Tikuvchilik korxonalari jixozlari" fani bo'yicha tasvirlaydigan qismlarga bo'lish namunasi (1- jadval) mazmuniy jihatlar asosida tuzilsada, metodik jihatlar bilan ham to'ldirilishi mumkin.



Bosqich	Vaqt	Faoliyatlar va mazmunlar tasviri	O'qitish yoki o'rgatish usullari	O'quv va didaktik materiallar
«Pfaff»firmasining moki bahyali tikuv mashinasiga iplarni taqish va tikuv jarayonini bajarish	2 s	Tikuv mashinasiga ustki hamda ostki iplarni taqish va mashinada tikuv jarayonini bajarish	Muayyan holatni namoyish qilish va o'rganishni mashq qilish	Tikuv mashinasining kinematik sxemasi.Tikuv mashinasi,ip va material,asboblari

YUqoridagi jadvalda keltirilgan amaliy mashg'ulot rejasining tuzilishini tasvirlaymiz.

1. Bosqich.

Bu ko'rsatkich mashg'ulot paytida yo'nalishni oson olish uchun zarur. Bosqich biror o'quv maqsadi belgilangan mavzuning boshi va yakuni bilan chegaradosh qismini o'zida mujassam qilishi lozim.

2. Vaqt.

Bu erda bosqich davomiyligini baholash va uni rejada belgilash lozim.

3. Faoliyat.

Bu erda bosqich bilan bog'liq faoliyatning turi belgilanishi lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

Nazariy dars uchun	Amaliy mashg'ulot uchun 4-pog'onali usul asosida
Mayl Axborot	Mayl va axborot Namoyish
1. Mavjud bilimlarni boshqa vaziyatlarda qo'llash	1. Imitatsiya (ko'rsatilgan tarzda takrorlash)
2. O'rganilgan mavzularni qayta ishlash uchun topshiriqlar	1. Mashq qilish
3. Tahlil qilish va sintez	
4. Baholash yo'llari	

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning 4 pog'onali usuli asosan talabalarining amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan, bo'lib, u 4 pog'onali doirasida kechadi. Bu pog'onalariga "Tushuntirish", "Namoyish etish", "Namoyish etilgan tarzda takrorlash" va "Mashq qilish" kiradi. Masalan, jadvalda keltirilgan amaliy

mashg'ulotni o'tkazishda amaliyot o'qituvchisi tikuv mashinasiga ip taqish ketma-ketligini tushuntirib beradi va mashinaga ustki va ostki iplarni taqib ko'rsatadi. So'ngra talaba shu ishni ko'rsatilgan tarzda qaytarishi kerak. Talaba ishni bajarayotganda o'qituvchi uning xatolarini to'g'rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi). Talabalar faoliyatini ushbu sohada ko'rsatib borish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Tasvir.

Bu erga katta va kichkina mavzular nomi kiritiladi. So'ngra muhim asosiy tushunchalar va yaxshi ishlab chiqilgan savollar kiritiladi. To'g'ri javoblar ham bu erga qo'shib qo'yiladi va alohida yoziladi.

5. O'quv va didaktik materiallar.

Bu ko'rsatkichga darsga mos keladigan va yordam berib, unga ko'rgazmali tus beradigan o'quv va didaktik materiallar kiritiladi. (3-jadval)

Nazariy darslar	Amaliy mashg'ulotlar
Doska tasvirlari	Texnik chizmalar, sxemalar
Slaydlar	Nazorat ro'yxatlari va foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar
Matnli hujjatlar (matnli kitoblardan nusxalar)	Ish rejalari
Javoblar varog'i kiritilgan yozma matnlar yoki topshiriqlar	Baholash varoqlari
Modellar, maketlar	Asboblari, yordamchi vositalar, mahsulotlar

Bir paytning o'zida o'quv va didaktik materiallarni ishlatib, biror mavzuni yoritish uchun quyidagi muayyan usullar qo'llaniladi:

- ma'ruza, o'quv suhbat, munozara
- taqdimot, namoyish, o'yin-mashg'ulot, muayyan holatni o'rganish
- individual va guruh mashqlari

Va nihoyat rejaning amalga oshirilgan bosqichlari asosida boshqa zarur hujjatlarni ham kiritish mumkin:

1. Titul kog'ozi: - maxsus o'quv kitobning nomi
 - semestr
 - o'quv guruhlarining nomi
 - ta'lim olish muddati

2. Talabalar tahlili.

3. Darsni utkazish uchun dastlabki shart-sharoitlar tahlili.


4. Maxsus soha tahlili (maxsus soha bo'yicha grafik tasvir).

5. O'rganish maqsadlari jadvali.

Rejani qayta tekshirish uchun ko'rsatmalar.

Bir marta tuzilgan reja quyidagicha qayta tekshirilishi lozim:

1. O'quv maqsadlarini o'ylab ko'rish. Ushbu darsning o'quv maqsadi kerakli maxsus sohaga mos kelishi tekshiriladi, ya'ni talabalar qanday amaliy ko'nikmaga ega bo'ldilar yoki qanday ko'nikma va tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Darsning yakuniy natijasi qanday bo'lishi kerakligi o'rganiladi.



2. Guruhlar holatini o'ylab ko'rish.

Talabalar maxsus soha to'g'risida nimani bilishlari, ularning maxsus soha bo'yicha qanday tushunchalarga ega ekanliklari, guruhning darsni o'zlashtirishi borasida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan qiyinchiliklar, guruhni kichikroq guruhlarga bo'linishi kerakmi yoki yo'qmi kabi masalalarni o'rganish kerak.

3. Belgilangan vaqt to'g'risida o'ylab ko'rish.

Dars uchun qancha vaqt ajratish kerakligi (boshqa bunga tegishli faoliyatlarni ham inobatga olgan holda) kunning qaysi vaqtida dars o'tkazilishi lozimligi, qaydlar yoki vazifalarni tayyorlash uchun qancha vaqt zarurligi o'rganiladi.

4. Jihozlar to'g'risida o'ylab ko'rish.

Zaruriy asbob va moslamalar mavjudligi va ular yaroqliligi, sinf xonasi barcha talablarga javob berishi, tashqaridan boshqa resurslar - biror shaxs, videofilm yoki boshqa yordamlar kerakmi yoki yo'qmi kabi muammolar o'rganiladi.

5. Maxsus soha bo'limlarini o'ylab ko'rish.

Maxsus soha tahlili maqsadga erishishda zarur bo'lgan barcha mazmunlarni qamrab olish uchun etarli? Darsni qismlarga bo'lish zarurmi?

Ba'zan darsni qismlarga bo'lish talab etiladi. SHunda quyidagi tuzilma vosita sifatida xizmat qilishi mumkin:

Pog'ona 1 ...bilishi shart... ...qila olishi shart...	Pog'ona 2 ...o'zlashtirishi mumkin... ...qila olishi mumkin...	Pog'ona 3 ...bilishga yordam beradi... ...qila olishga yordam beradi...	Pog'ona 4 ...bilish uchun qiziqarli... ...qila olish uchun qiziqarli...
---	--	---	---

Dars ichidagi tanlash yoki mazmunlar 1-chi pog'onada turishi lozim. Ularni biz o'quv maqsadlariga erishishdagi minimumlar deb ataymiz.

Agar tasarrufdagi vaqt kutilganidan ko'p bo'lsa, u holda 3-va 4-pog'onaldagi mazmunlarni qo'shib qo'yish mumkin. Amaliyot o'qituvchisining ko'plab boshqa sohalardagi bilimlarga ega bo'lishi uning mazkur holatni oson boshqarib borishiga yordam beradi.

Bu erda asosiy maqsad "o'zlashtirilishi shart bo'lgan bilimlar"ni va "o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan bilimlar"ni berishdan iboratdir. Bu orqali barcha muhim mazmunlar, dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullar dars rejasida qanchalik darajada saqlanib qolgan - qolmaganligi nazorat qilinadi.

Bundan kelib chiqib, tarkibiy qismga tegishli maqsadlarga murojaat qilish va ularga erishi jarayonini topshiriqlar va testlar orqali nazorat qilish tavsiya etiladi.

Bunga ko'ra biror dars oxirida topshiriqlar yozma ko'rsatilgan nazorat ishi olish va uning natijalarini baho varaqasiga qayd qilib borish kerak bo'ladi. O'quv maqsadlariga erishilmaganligi aniqlansa, u holda amaliyot o'qituvchisi boshqa choralarni ko'rishi, masalan: takrorlash darsini rejalashtirish lozim, shu bilan birga dars rejasiga tafakkur kilish uchun yordam sifatida kiritiladigan kiziqtirish va o'rganish usullarini rivojlantirish mumkin.

6. O'quv va didaktik vositalarni rejalashtirilgan usullar hamohangligida nazorat qilish.



Rejalashtirilgan usullarga mos ravishda o'quv va didaktik vositalarning mavjudligi, topshiriqlar, shuningdek, namoyishlar va mashqlar nazorat qilinishi kerak. Ular etarli bo'lmasa, u holda ularni yanada rivojlantirish va ishlab chiqish lozim.

Va nihoyat:

Maxsus fan o'qituvchilariga nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar rejalarini maxsus jildda saqlash va ularni doimiy tarzda to'ldirib borish tavsiya etiladi.

O'tkazilgan dars yoki amaliy mashg'ulotlardan so'ng shaxsiy natijalarni tahlil qilib ko'rish tavsiya etiladi. Buni biz dars jarayonlarining sifatini tahlil qilish, amalga oshirilgan rejaning ahamiyati va boshqa amaliyot o'qituvchisi tomonidan o'z hamkasblarining baholanishi, deb tushunamiz. Bu amaliyot o'qituvchisiga o'z natijalarini doimiy ravishda yaxshilab borishda ko'mak beradi. Ushbu tavsiyalarni va koidalarni «Tikuvchilik korxonalari jixozlari va uskunalari» fanini o'qitishda qo'llanilganda yaxshi samara beradi.

Nazariy dars quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi.

1. Qizitish va qiziqtirish(motivatsiya)
2. Ma'lumot berish
3. Bilim berish
4. O'rganilgan bilimlarni qayta ishlash bo'yicha topshiriqlar berish
5. Tahlil va sintezlar
6. Baholash

Ushbu ketma-ketlik uchun vaqt odatda 45 yoki 80 daqiqani, tashkil etadi. Dars boshlanishidan avval darsga tayyorgarlik bosqichining natijalarini qisqacha tekshirib ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi


(4-jadval).

Dastlabki tayyorgarlik	Tahlillar natijalari
Belgilangan vaqt:	Mazmunlarni talabalarga etkazish uchun vaqt etarlimi?
Xonalarga taalluqli sharoitlar:	Sinf xonasi bo'shmi? Stol va stullar etarlimi?
Vositalar:	Doska, flipchprt va kodoskoplar (proektor) ishlaydimi? Bo'r mavjudmi?
Hujjatlar:	Dars rejasi bormi? Etarli tarqatma materiallar va topshiriq varoqlari mavjudmi?

Qizitish va qiziqtirish (motivatsiya)

Dars talabalar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo'lmagan mavzular to'g'risidagi suhbat bilan boshlanadi.

Iloji bo'lsa darsga bog'liq bo'lgan mavzular yuzasidan suxbatni boshlash kerak. Masalan qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikoyat tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida talabalarning kayfiyatiga, shu sohaga qiziqishiga



yoki keyingi darslarda talabalar o'rganadigan faniga e'tiborini qaratishga yordam beradi.

Agar dars birinchi bor yangi talaba guruhida o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi qisqacha o'zini tanishtirib o'tib, talabalarga ham o'zlarini tanishtirish imkoniyatini berish kerak. Bu talabalarda ishonch tug'diradi, talabalar o'zlariga bildirilayotgan hurmatni his qiladilar. Ta'riflangan va tanlangan o'qitish fanlarni va modullari asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinzli(ichki) va ekstrinzli (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

Ma'lumot va bilim berish.

So'ngra o'qituvchi talabalarga kasbiy soha bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin-mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi mavzuni boshlashdan avval o'tilgan mavzular qisqacha, umumlantirilgan holda qaytarilishi kerak.

Talabalarga mavzularga mos tarqatma materiallar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini engillashtiradi. Mavzuga kirilmay turib, tarqatma materiallar tarqatilmaydi. Ularni mavzuga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni qo'yib chiqish uchun etarli daqiqalar berish va talabalar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash uchun topshiriqlar berish.

Talabalarga tafakkur qilish va qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarurdir. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni echish va natijalarni taqdim etish samarali o'qitish usullari hisoblanadi.


Tahlil va sintezlar

Mavzu tahlili orqali mavjud vaziyat elementlari alohida ko'rib chiqilishi mumkin. SHu o'rinda alohida xususiyatlar muhokama etilishi mumkin.

Mazkur xususiyatlarni bir butun qilib sintezlash to'g'ri tasavvur hosil qilish va aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi. Bu erda gap bilimning aloqadorlik darajalarini aniqlash to'g'risida boradi. Amaliyotga yaqinlashish va o'zlashtirilgan bilimlarni kelajakda ishlatish uchun sintez orqali boshqa ilm-fan sohalari bilan bog'lash amalga oshiriladi.

Baholash.

Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin talabalar o'zlari bajargan ishlarini baholashlari lozim. Boshqa bir imkoniyat esa natijalarni guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilishdan iboratdir. O'quv fani yakunida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida talabalarning natijalari, ularning amalga oshgan va oshmagan ishlari, shuningdek, o'qituvchilarning o'z natijalari yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.



Nazariy darslarni yukoridagi ketma ketlikda utkazishni **«Pfaff» firmasining 45 909-0045-001-002 rusumli moki baxyalı tikuv mashinasining tuzilishi va ishlash printsipi»** mavzusi misolida taxlil kilamiz.

1. Qizitish va qiziqtirish (motivatsiya).

Talabalarni qiziqtirish maqsadida tikuvchilik mashinasozligiga qarashli kashfiyotlar va ixtirolar xamda fan va texnologiyaning oxirgi yutuqlari haqida, «Pfaff» firmasining tarixi va ushbu firmada xozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan tikuv mashinalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Tikuv mashinasining sxematik ko'rinishini emas, balki mashinani o'zini ko'rsatib, uning ishchi organlari namoyish qilinadi. Mashinada ishlash qoidalari ko'rsatiladi. Bunda qo'shimcha tarzda mashina turlarini, rasm va kinematik sxemalarini, undagi ishchi organlari harakatlarini tasvirlovchi sxemalarni flipchart yordamida vizuallashtirilishi ham mumkin. SHu tarzda tanlangan o'qitish predmetlari asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya amalga oshiriladi. Bu usulga e'tiborni qaratish mavzuni o'rganishingizga tayyorgarlik uchun qulay vosita hisoblanadi. So'ngra ikkinchi bosqichga o'tiladi

2. Ma'lumot va bilim berish.

Bu bosqichda talabalarga «Pfaff» firmasining 45 909-0045-001-002 rusumli tikuv mashinasining mexanizmlari va ularning ishlash printsiplari hamda sozlanishlari xaqida chuqur ma'lumot beriladi. Tikuv mashinasida tikish jarayonini bajarish uchun gazlamaga muvofiq ignani va ipni tanlash, moki va boshqa ishchi organlarni o'rnatish va ustki, ostki iplar taqilishi to'g'risida bilimlar beriladi. O'qituvchi talabalar uchun tarqatma materiallar tayyorlab, ularda bevosita mashinaning ishchi organlari, ignalar va iplarning tahlili yaqqol ko'rsatilgan bo'lishi kerak. So'ngra mavzu talabalar muhokamasiga qo'yilishi mumkin.

3. O'zlashtirgan bilimlarni qayta ishlash uchun topshiriqlar berish



Talabalarga mavzuni to'liq berib, o'zlashtirib olgan mavzu ustida takrorlash ishlashlari uchun topshiriqlar berilishi zarurdir. Bunda ularga tikuv mashinasiga o'zlari iplarni taqishlari, ignani o'rnatish, mokini joylashtirish bo'yicha vazifalar tanlashlari mumkin. Bu ularda olgan bilimlarini passiv fazasidan, aktiv fazasi uchun imkoniyat yaratib beradi.

5. Tahlil va sintezlar

Har qaysi talaba tikuv mashinasi to'g'risida olgan bilim va ma'lumotlarini qay tarzda qabul qilgan bo'lsa, shu tarzda taxlil qilinadi, chunki sintez orqali boshqa ilm-fan soxalari bilan bog'liqlik hosil qiladi.

6. Baholash

Har bir topshiriq vazifalar berilgandan keyin baholash kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'zi uchun maxsus baxolash varag'i tutib, passiv va aktiv berilgan fikrlarni baxolab borishi shart, shundagina o'qituvchi xam, talaba ham o'z maqsadiga erishdimi, yo'qmi ma'lum bo'ladi.




Amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarga atroflicha tayyorgarlik ko'rish va o'tkazilish lozim.

Ba'zi hollarda amaliy mashg'ulot nazariy darsga ulanib ketishi mumkin. Masalan: «Tikuvchilik korxonalari jixozlari va uskunalari» fanidan tikuv mashinasi ishchi organlarining sozlanishlarini sxemalar orqali tushuntirish bilan bir qatorda tikuv mashinasining o'zida sozlanishlar bajarib kursatiladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning turli qoidalari mavjud bo'lib biz bevosita va bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar to'g'risida to'xtalamiz. Bevosita boshqariladigan amaliy mashg'ulotlarda ma'ruzalar, taqdimotlar va namoyishlardan foydalaniladi. Bularga sxemalar, prospektlar, videotasvirlar va jixozlarning maketlari va asl namunalari kiradi. Yaxshi ishlab chiqilgan o'quv materialini talabalar diqqat bilan tinglab, kuzatadilar. Agar mashg'ulotlar savol va javoblarga asoslangan o'quv suhbatlari, muommani muhokama qilish doirasida olib borilsa yaxshi samara beradi.

Bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar asosan talabalarga ga yo'naltirilgan mashg'ulot bo'lib, unga tayyorlangan topshiriqlar vositasida matnli



kitoblarni o'qish, mustaqil o'rganish orqali o'yin-mashg'ulot olib borish, biror vaziyatni o'rganish, talabani o'zi mustaqil o'rganishiga turtki berish, bilimlarni o'zlashtirishga turtki berish kabilar kiradi. Masalan o'qituvchi tugma kadash yarim avtomatida maxsulotni ish zonasiga joylashtirish, tugmani tutgichga o'rnatish va qadash jarayonini bajarib kursatadi,. So'ngra talabalar bu jarayonni o'zlari mustaqil bajaradilar va bir necha marta takroran mashq qiladilar. Bu xolda o'qituvchi kuzatuvchi yoki maslahatchi sifatida qatnashadi.

Jarayonga yo'naltirilgan mashg'ulotlarga davra suhbat, guruh munozara olib borish, moderatsiya usullari kiradi.

Kasb xunar kollejlari amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun asosan o'quv ustaxonalaridan foydalaniladi.



Talabalar birinchi marta ustaxonalar, ish joylari va sharoitlar bilan tanishtiriladi va bir paytning o'zida to'g'ri va atrof-muhitga ta'sir etmaydigan faoliyat, mehnat xavfsizligi qoidalari, sog'liqni saqlash va energiyani tejab ishlatish haqida xabardor qilinadilar.

Mehnat xavfsizligi qoidalariga baxtsiz hodisalar va ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi holatlarning oldini olish borasidagi hatti-harakatlar kiradi. Bularga ish o'rnida shaxsiy xavfsizlik, himoya vositalari va mexanizmlardan to'g'ri foydalanish, yong'inni oldini olish choralari, olov o'chiruvchi moslamalar kiradi.

Ko'p hollarda mehnat xavfsizligi qoidalari tushuntirishlari ish bilan bog'liq ravishda olib boriladi.

O'quv ustaxonalarida talabalarga bajariladigan ish bosqichlari, asbob va mashinalardan foydalanish, sifatni nazorat qilish usullari kabi turli amaliy ko'nikmalar o'rgatiladi.

O'quv ustaxonalarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda 4 pog'onali usul yoki yo'naltiruvchi matn va loyiha usuli kabi zamonaviy usullarni qo'llashi tavsiya etiladi. (5-jadval)

Tanlangan usul asosan amaliy qobiliyatlar va ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan va o'zida bunga taalluqli nazariy bilimlarni mujassam etgan bo'ladi.

pog'onali usulga asoslangan faoliyat	o'naltiruvchi matn va loyiha usullariga asoslangan faoliyat
1.Motivatsiya va axborot	1.Axborot
2.Namoyish	2.Rejalashtirish
3.Imitatsiya	3.Qaror qabul qilish
4.Mashq	4.Amalga oshirish
	5.Nazorat qilish
	6.Baholash

Nazorat savollari

3. Nazariy dars qanday ketma-ketlikda o'tkaziladi?
4. Amaliy mashg'ulot rejasining tuzilishini aytib bering.
5. Faoliyat turi belgilanishiga nimalar kiradi?


Tayanch iboralari

Motivatsiya, Qizitish, qiziqtirish, taxlil, sintez, faol, intrinzli, ekstrinzli, baholash, imitatsiya.

BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI BAHOLASH METODLARI. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH, O'TKAZISH VA BAHOLASH

Reja:

1. O'quv materiallarining o'zlashtirilganligi, ko'nikma va malakalarni hosil bo'lganligini tekshirish va baholash.
2. Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati.



3. Bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati.
4. Kasb-hunar kollejlari talabaning mustaqil ishini tashkil qilishning maqsadi.
5. Mustaqil ishlarning shakllari. Mustaqil ishni baholash mezonlari.

Talabalar o'qish jarayonida bilim ko'nikma va malakalarni egallab oladilar. Bilimlarda ob'ektiv dunyo umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarni o'rganishni nazarda tutadi.

Bilimlarning ta'sirchanligi, ularni bemaol egallab, ularning o'zgaruvchanligi, ulardan turli sharoitlarda, jumladan, yangi bilimlarni egallash uchun foydalana bilish bilimlarning to'laligi va chuqurligining muhim ko'rsatkichidir.

Ko'nikma-kishining ma'lum bir harakatlarni ongli ravishda bajarish qobiliyatidir, bu qobiliyat bilimlar va eng oddiy tajriba asosida hosil qilinadi. Bilimlar bajarilayotgan harakatning nazariy asosi hisoblanadi. Bilimlar tufayli harakatlarning ayrim bosqichlari va ularning ketma-ketligi tushunarli bo'ladi. Ko'nikmalar - bu amaldagi bilimlardir.

Malaka-mashq qilish yo'li bilan hosil bo'ladigan ish-harakatdir. Mashq qilish natijasida yurish, o'qish, yozish, og'zaki hisoblash, xilma-xil mehnat jarayonlarini bajarish malakalari hosil qilinadi. Talaba harakatni bajarishning muayyan usullarini egallab oladi va bu ishni ongning nazoratisiz avtomatik ravishda bajaradi. Lekin boshlang'ich bosqichda harakat doimo ongli suratda bajariladi. Masalan, tikuv mashinasiga ip taqish ketma-ketligini tasavvur qilish, kerakli ip va ignani tanlash lozim. Agar talaba ipni taqishni bir necha marta takrorlagandan so'ng, harakat odatdagi bir harakatga aylansa, u ongning zohiriy ishtirokisiz bajariladi. YAngi tikuv mashinasiga iplarni taqish, gazlamani tepki ostiga o'rnatish va mashinasi ishga tushirish ishlarini ko'p marta takrorlash har doim bu harakatlarning ketma-ketligini o'ylab ko'rishdan ozod qiladi.

Tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayon o'zgarganda ya'ni tikilayotgan kiyimga qo'yiladigan texnologik talabga qarab, iplar rangi, turi, ignalar, tepkilar tanlanadi. Bunda tikuvchining ongi ishga kirishadi.

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar xosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baholash - ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida, ta'lim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali, etarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil

etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ta'lim beruvchi o'z ishini afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi. SHuningdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturiga materiallarni ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarining qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq-ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, ham tomonlama va tqg'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlarining ijobiy tavsifi, kasb-hunar kollejida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni engish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib etadi. SHu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onalarining unga, uning kollejdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsiliklariga munosabatiga xech qachon befarq bo'lib qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun xam maqtov, ma'qullash, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga egadir.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumshtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish

ta'lim rejasi, uning katta kichik bo'limlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimining natijalari muayyan standart me'yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar xam aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga xam baho beriladi.

Ta'lim dasturini qism bo'laklari buyicha muntazam baxolab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanish shakllanishga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijodiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabaning o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

YUqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

1. O'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
2. Keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
3. Natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
4. Talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
5. YUtuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
6. O'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
7. YAlpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
8. Ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
9. Talabalarni yutuqlariga qiziqitirish uchun;
10. Tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

1. nazariy bilimlarni;
2. amaliy ko'nikma va malakalarni;
3. xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini

Qachon baholash kerak?


1. Ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
2. Ta'lim jarayoni davomida (joriy baholash);
3. Ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

1. Ta'lim maqsadiga yo'nalganlik;
2. Muntazam o'tkazib borish;
3. Pedagogik, psixologik va xuquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
4. Umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

YUqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa –affektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Kasb-hunar kollejlari talaba mustaqil ishining tashkil etishdan asosiy maqsad:



- o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir;

1. talabalarda dialektik dunyoqarashni tarkib toptirish;
2. talabalarning o'quv-bilish faolligi va mustaqilligini tarkib toptirish;
3. ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
4. ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligini ta'minlash;
5. predmetlararo aloqadorliqni ta'minlash;
6. ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish;
7. tahsil oluvchilarda mehnatga va jamoat mulkiga ongli munosabatni tarkib toptirish;
8. fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish talablari asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish;
9. fanlar va kasblarning majmuaviy uslubiy ta'minlanishi;
10. darsning samaradorligini oshirish yo'llari;
11. yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
12. - ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish.

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatidan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi


Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar bilan ishlash;
- internet tarmog'idan ratsional echimini belgilash;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Mustaqil ishlar shakllari.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek har bir talabaning o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminarlar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- loyihalar va amaliy topshiriqlarni bajarish;
- diplom ishiga tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarni echimlarini topish;
- maket, model va namunalar yaratish;



- hisoblashlar va grafik ishlarni bajarish;
- berilgan mavzu bo'yicha kompyuterlardan kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlab topish va referat tayyorlash;
- elektron darsliklardan foydalanib topshiriqlarni bajarish.

O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanilishi mumkin. O'quv dasturlarida talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt budjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli bo'limlarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, savollar va topshiriqlar majmui ishlab chiqiladi.

Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Og'zaki mustaqil topshiriqlar:

- darslik bo'yicha materialni o'rganish va takrorlash, chizmalar va sxemalarni o'qish, turli texnik adabiyotlar hujjatlar va materiallarni o'rganish asosida o'qituvchi savollariga javoblar tayyorlash, ishlab chiqarish faoliyati tahlili kabilar kiradi. Materiallarni anglab mustahkamlash va yodlashga mo'ljallangan.

YOzma mustaqil topshiriqlar:

- hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar tuzish va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.


Grafik mustaqil topshiriqlar:



- ularga turli chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash, ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish va x.z), sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlar:

- talabalar o'qituvchi topshirig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida ma'lum detal tayyorlash, tugun va mexanizmlarini yig'ish, texnik jarayonlarni ishlab chiqadilar. Ushbu ishlarni bajarganda talabalar asbob-uskunalarni tanlash, ishlov berish rejasini aniqlash va hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellar, namunalar kabi ishlarni amalga oshiradilar.

Талабаларнинг мустақил ишининг ташкилий шакллари





Mustaqil ishlarni ishlab chiqish.

Har bir fan bo'yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasi o'qituvchi shaxsiy ish rejasida qayd etiladi.

Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedra yoki bo'limda tuzilgan va bo'lim yoki kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi bo'yicha maslahat soatlari guruh jurnalida qayd etilib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan o'quv dasturida ajratilgan soatlarga mos baholanadi va natijasi bo'yicha talabaning umumiy bahosiga kiritiladi.

Talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari,shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha olgan baholari guruh baholash oynasida yoritib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari tegishli bo'lim yoki kafedra tomonidan belgilanadi va kasb hunar kolleji ilmiy pedagogik kengashida muhokama qilinib tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda guruhlarda, bo'lim yig'ilishlari va kollej ilmiy pedagogik kengashida muhokama etib boriladi.

Talabaning mustaqil ishi bo'yicha bajargan ishlari (hisobot, referat,hisoblashlar va h.k) ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

YUqori darajada baholangan talabalarning mustaqil ishlari ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Kasb-hunar kollejlariida mustaqil ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun kollej rahbariyati va o'qituvchilar ayni vaqtda ham yaxshi pedagog, ham kasb-hunar sirlarini yaxshi biladigan mutaxassislar bo'lishi kerak.

Kasb-hunar kollejlariida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish kerak:



7. talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarni takomillashtirish;

8. ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;

9. ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Mustaqil ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlariidagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi. Kasb-hunar kollejlariidagi mustaqil ishlarning mazmuni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan tasdiqlangan mustaqil ishlar to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Mustaqil ishni baholash mezonlari ta'lim yo'nalishlari va fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib alohida tuzilishi mumkin.



Umumiy mezonlar quyidagicha:

O'zlashtirish ko'rsatkichi 5 baxo bulganda:

- fan o'quv dasturiga kiritilgan mavzular bo'yicha mustaqil ish materiallarini to'liq o'zlashtirganda, o'z xatoliklarini talaba o'zi tuzata bilgan xolda;

- fanga qiziqishi, yaratuvchanligi, yangi texnika-texnologiyalarga intilishi, murakkab topshiriqlarni bajarishga harakatlanganligi.

O'zlashtirish ko'rsatkichi 4 baxo bulganda:

- fanni o'quv dasturiga kiritilgan mavzular bo'yicha mustaqil ish materiallarini to'liq izoxlab bergan, ba'zi ahamiyatga ega bo'lmagan xatolarga yo'l qo'ygan va bu xatoliklarni o'qituvchi ko'rsatmasi asosida tuzata olgan xolda.

- fanga qiziqish, yangi texnika-texnologiyalarga qiziqishni namoyon etishi, murakkab topshiriqlarni bajarishga intilishi.

O'zlashtirish ko'rsatkichi 3 baxo bulganda:

-fanni o'quv dasturiga kiritilgan mavzular bo'yicha mustaqil ish materiallarini to'liq izoxlamagan, fanni boshqa fisolarni o'rganishga xalaqit bermaydigan ayrim ahamiyatga ega bo'lmagan xatoliklarga yo'l qo'ygan, bu xatoliklarni o'qituvchi yordamida tuzatilgan hollarda;

- fanni o'rganishda yangi texnika-texnologiyalarga qiziqishi passivligi, murakkab topshiriqlarni bajarishga intilishi yo'qligi.

O'zlashtirish ko'rsatkichi 3 baxodan past bulganda:

10. o'quv dasturiga kirgan mavzular bo'yicha mustaqil ish materiallarini to'liq bilmagan, tizimlashtirilmagan va tuzatib bo'lmaydigan xatoliklarga yo'l qo'ygan xolda;

Nazorat savollari.

1. Bilim, kunikma va malaka nima?
2. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
3. Baholashning mohiyatini tushuntiring.
4. Mustaqil ishining tashkil etishdan asosiy maqsad?
5. Mustaqil ishining vazifalari nimalardan iborat?
6. Mustaqil ishini tashkil etishda kandy shakllardan foydalaniladi?
7. Mustaqil ishlarni ishlab chiqish kandy amalga oshiriladi?



Tayanch iboralari

Uquv dasturi, mezon, nizom, ta'lim, tarbiya, referat, sxema, grafik, diagramma, detal, tugun, maket,model, psixomotorik, xulq-atvor, affektiv, baxolash, kunikma, malaka, bilim.

KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA DARSLARNI TAHLIL QILISH USULLARI

Reja:

1. Pedagogik faoliyatda darsni umumiy tahlil qilish rejasi.
2. Darsni kuzatish va tahlil qilish.
3. Darsga ishtirok etish maqsadlari.



4. Kasb-hunar kollejlarda nazariy mashg'ulotlarni tahlil etish rejasi.
5. Dars moddiy-texnik ta'minotining tayyorligi. Darsning didaktik tahlili.
6. Uslubiy tahlil. Darsning umumiy baholanishi.

Kasb-hunar kollejlarda darslar zamon talablariga javob beradigan sharoitlarda o'tkaziladi. Bu sharoitda nazariya amliyot, ishlab chiqarish mehnati bilan uzviy bog'lanib, umumta'lim, umumkasbiy va predmetlarining o'zaro aloqadorligi ta'minlanadi hamda aqliy va jismoniy mehnat orasidagi farq imkon qadar yo'qotiladi. Bunday dars boshqacha tashkil etilganligi bois, bo'lajak kasb-hunar sohiblarini kamol topishiga qanday hissa qo'shganligini baholash kerak bo'ladi. Aynan mana shu maqsadlarni ko'zda tutadi quyida taklif etilayotgan darsni kuzatish va tahlil qilish rejamiz. Bu darsni kuzatish va tahlil qilish rejasida quyidagilar ko'zda tutilgan: darsning yangi tuzilmasi va ta'lim metodlarini; umumta'lim, umumkasbiyo, maxsus o'quv predmetlarining o'zaro bog'liqligini; kasbiy ta'limning o'ziga xos printsiplari; kasbiy yo'nalganlik, predmetlararo aloqadorlik, politexnizm, uzviylik kabi printsiplarni amalga oshirilishini; ta'limning maqbullashtirishg'oyasiga amal qilinganligi kabilar. Ushbu kuzatish rejasi zamonaviy darslarga qo'yilgan umumiy talablarni ham ishlab chiqishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar bunday rejalarni turlicha: «darslarni kuzatish va tahlil qilish sxemalari», «savolnoma», «dasturlar» sifatida o'rganadilar. Ularning barchasining maqsadi tahlil etilayotgan darslarning turli jihatlari, komponentlari, borish yo'nalishlariga qo'yilgan talablarni berishdan iborat:


1. o'qituvchi va talabalarning faoliyati;
2. darsning bosqichma-bosqich tuzilishi;
3. darsning mazmuni;
4. aniq maqsadlarni amalga oshirilishi;
5. o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish darajasi;
6. tahsil oluvchilarning mustaqil ishlarini yo'lga qo'yilganligi;
7. tahsil oluvchilarni faollashtirish omillaridan foydalanilganligi kabilar.

Pedagogik amaliyotda nisbatan ko'proq darsni umumiy (majmuaviy) tahlil qilish rejasidan ko'proq foydalaniladi. Darslarni kuzatish va tahlil qilish rejasidan qaysi birini tanlash: darsga qanday maqsadni ko'zlab qatnashishga; kuzatuvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga; qatnashuvchi egallab turgan lavozimiga va kuzatishni tashkil etish shakli kabilarga bog'liq.

Darslarga ishtirok etish maqsadlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash va umumlashtirish;
2. o'qitish sifati va samaradorligini nazorat qilish;
3. ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish kabilar.

SHu o'rinda darsga jamoaviy yoki individual qatnashish shakli ham muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etish lozim. Darsga qatnashishdan oldin o'qituvchining taqvimiy-mavzular rejasi, dars rejasi va ishchi rejasi bilan tanishishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darsni borishi haqida ma'lumotlarni yozib borishi uni ob'ekti baholash uchun asos hisoblanadi. Tahlil qilingan darsdan so'ng o'qituvchining yutuq va kamchiliklari muhokama etiladi. Darsning natijasini muhokama etishda eng avvalo so'z dars bergan o'qituvchiga beriladi. U o'zining maqsadiga etishganligi haqida qisqacha




ma'lumot beradi. SHundan so'ng darsga qatnashganlar o'z fikrlarini iolji boricha dalil keltirib bildiradilar. Afvzallik va kamchiliklarini ko'rsatadilar, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ham tavsiya sifatida bildiradilar. Bu paytda ma'lum munozara ham bo'lishi mumkin. Har qanday darsni tahlil etishda eng avvalo o'quv materialining o'ziga xosligini tahsil oluvchilar va o'qituvchining hususiyatlarini hisobga olishni unutmaslik zarur. Muhokama oxirida darsning mazmundorligi, ko'zlangan maqsadga erishilganligi, mavjud yutuq va kamchiliklarini o'zida ifodalovchi qisqacha xulosa qilinadi. Undan so'ng tahlil etuvchilar tomonidan kuzatish va tahlil etish rejasi haqidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Kasb-hunar kollejlarida nazariy mashg'ulotlarni tahlil etish rejasi.


1. SHahar (qishloq).
2. Kasb-hunar kolleji
3. Kurs.
4. Guruh.
5. Ixtisosligi.
6. O'quv predmeti.
7. O'qituvchi.
8. Sana.
9. Kuzatuvchining F.I.SH. va egallab turgan lavozimi.
10. Mashg'ulot (dars) mavzusi va uning tartib raqami.
11. Dars turi.
12. Dars ko'rinishi.
13. Darsning tashkil etilishi:

1.dars moddiy-texnik ta'minotining tayyorligi:

1. yassi ko'rsatmali qo'llanmalar;
2. Hajmli ko'rsatmali qo'llanmalar;
3. Kino va diafilmlardan lavhalar;
4. Elektron ta'lim resurslari;
5. Ishlaydigan modellar, asboblar, maketlar, trinajyor (mashq qurilma)lar;
6. Tarqatma materiallarning mavjudligi;
7. Axborot-ma'lumot olish manbalari, sxemalar, jadvallar va kabilar;
8. O'qituvchi va tahsil oluvchilarning ish o'rinlarini jihozlanganligi;
9. Uqituvchining darsga tayyorlarligi;
10. dars rejasi va matnining mavjudligi;
11. dasturiy materialni bilishi;
12. predmetlararo aloqadorlikdan foydalanishi;
13. ishlab chiqarishning aniq sohasini o'ziga xos hususiyatlarini bilish;
14. xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilish;
15. tahsil oluvchilarning individual o'ziga xoslik jihatlarini bilish;
16. o'qitishning texnik vositalaridan foydalana olish malakasi;
17. tahsil oluvchilarning tayyorgarligi;
18. qatnashishi, tashqi ko'rinishi, daftar va boshqa o'quv predmetlarining mavjudligi;
19. avval o'tilgan materiallar mazmunini bilishi;



20. tahsil oluvchilarni ushbu darsdagi materialni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish (kayfiyati).
- 2.darsni oqilona tashkil etilganligi:
1. darsni o'z vaqtida aniq boshlanganligi, o'qitishning texnik vositalari, ko'rsatmali materiallar oqilona foydalanishi;
 2. dars rejasining o'rnilayotgan material mazmuni, tuzilmasiga mos kelishi;
 3. darsning bosqichlari bo'yicha tempi (tezligi)ning oqilonaligi;
 4. o'qituvchi va tahsil oluvchilar faoliyati nisbatining oqilonaligi;
- 3.Darsga o'qituvchining faoliyati:
1. tahsil oluvchilar oldiga darsning vazifalarini to'g'ri va tushunarli qo'yilganligi;
 2. o'rganilayotgan materialning o'quv dasturiga nechog'lik to'g'ri kelishi;
 3. o'rganilayotgan materialni davlat ta'lim standartiga nechog'lik xizmat qilishini ta'minlanganligi;
 4. umumta'lim, umumkasbiy va maxsus bilimlardan tayangan holda foydalanib yangi bilim va ish-harakat usullarini shakllantirishi;
 5. texnik-texnologik malakalarni shakllantirish;
 6. darsda o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish shakli (yoppasiga, guruh, individual);
 7. tahsil oluvchilarning izlanuvchan faoliyatini tashkil etish;
 8. tahsil oluvchilarning bilish faolligini shakllantirish;
 9. ta'lim printsiplarini amalga joriy etishi (predmetlararo aloqadorlik, kasbiy yo'nalganlik, politexnizm, uzviylik, tushunarlilik va shu kabilar);
 - 10.o'qitishda nisbatan ko'p qo'llangan metodlar; yangi o'rganilgan materialni mustahkamlash, bilim va malakalarni takomillashtirish bo'yicha mashqlarni bajarilishini tashkil etilishi;
 - 11.o'rganilayotgan amvzu, predmet va egallanayotgan ixtisoslikka tahsil oluvchilar qiziqishini uyg'otish usullaridan foydalanishi;
 - 12.tahsil oluvchilar bilim va malakasini nazorat etib baholashi;
 - 13.o'tgan mashg'ulotlar bo'yicha tahsil oluvchilarning o'zlashtirmaganliklarini bartaraf etishni tashkil etilganligi;
 - 14.uyga berilgan vazifaga yo'llanmaberilganligi.
- 4.Darsda tahsil oluvchilarning o'quv faoliyati:
1. dars vazifalariga ongli munosabati;
 2. mexnat operatsiyalarining to'g'ri bajarilishi;
 3. o'lchov-tekshiruv priborlaridan foydalana olish malakasi;
 4. o'z ish o'rni va mehnatini oqilona tashkil etilishi;
 5. texnik va texnologik talablarga amal qilishi;
 6. ma'lumotnoma va maxsus adabiyotlardan foydalanish malakasi;
 7. berilgan ishni me'yoriy vaqt ichida bajara olishi;
 8. o'quv ishlarida yuqori natijalarga erishish uchun bo'lgan hoxishi;
 9. material, energiya, vaqt kabilarni iqtisod qilishga intilishi;
 - 10.o'z ish o'rni, jihozlar va asbob-uskunalarga ehtiyotkorlik munosabatlari;
 - 11.mehnat tashabbuskorligini ko'rsatishi.
- 5.Darsni umumiy baholanishi:





1. tahsil oluvchilar tomonidan yangi materialni o'zlashtirilishi (anglanganlik mustaxkamligi);
2. umumkasbiy malakalarni shakllanganlik darajasi;
3. darsdan ko'zlangan maqsadga erishilganlik darajasi;
4. umumiy xulosa.
6. Mashg'ulotlarni yanada takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar va tavsiyalar.

Dars o'tgan o'qituvchining imzosi.

Kuzatib tahlil etuvchi(lar)ning imzosi.

Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil qilish rejasi (metodikasi).

1. SHahar (qishloq);
2. № sonli kasb-hunar kolleji;
3. Kurs;
4. Guruh;
5. Mutaxassisligi;
6. O'quv predmeti;
7. O'qituvchi;
8. Sana;
9. Kuzatuvchining F.I.SH. va lavozimi;
10. № dars mavzusi;
11. Dars turi;
12. Dars ko'rinishi;
13. Darsni tashkil etilganligi;
14. o'qituvchi (usta)da dars rejasining mavjudligi;
15. ustaxonaning sanitariya-gigiena holati;
16. darsni kerakli didaktik, maxsus va yordamchi jihozlar, asbob-uskunalar va shunga o'xshashlar bilan ta'minlanganligi;
17. o'quv rejalashtirish hujjatlarining mavjudligi;
18. dars vaqtini oqilona bo'linishi va undan foydalanish darajasi;
19. darsning boshlanishi;
20. Darsni didaktik tahlili:
 - Dars maqsadlarining qo'yilishi: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.
 - Didaktik printsiplarini amalga joriy etilish.
 - Darsda ishlab chiqarish talimi tizimlaridan foydalanilishi.
 - O'quv materiavli mazmunining maqbulligi.
 - Dars tuzilmasi.
 - O'qitishni individuallashtirish usullari.
 - Darsda tahsil oluvchilarni ijodiy faolliklarini shakllantirish usullari.
 - Darsda yangi malakalarni shakllantirish: (o'quv-bilish, konstruktiv-texnik, tashkiliy-texnologik, operatsion-nazariy).
 - Darsda nazorat va tahsil oluvchilar o'z-o'zini nazorat qilishini tashkil etilganligi.
 - Metodik tahlil:
 1. o'qitish metod va usullari (yo'l-yo'riq ko'rsatish).
 2. O'qish metodlari (o'quv ishlab chiqarish faoliyati).
 3. Darsda tahsil oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish.



4. Darsda tahsil oluvchilar mustaqilligini namoyon bo'lishi.


7.Psixologik tahlil:

Dars davomida tahsil oluvchilarning qiziqishi uyg'otishda turli usul, vosita, shart-sharoit kabilardan foydalanilganligi.

8.Darsning borishi.

Kirish yo'riqnomasi:

1. tayanch bilim, ko'nikma va malakalarning dolzarblashtirish hamda tizimlashtirilganligi;
2. tahsil oluvchilarni o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajrishga psixolog tayyorgarligi;
3. dars maqsadlarining qo'yilishi va o'quv material mazmunini tushuntirilishi, ko'zda tutilgan kasbiy malakalarni amaliy faoliyatda zarurligini ko'rsatilishi;
4. ish o'rnini, jihozlar, moslamalar, qurilmalar, texnik hujjatlar bilan tanishtirilishi;
5. jihozlar, asbob-uskunalar, priborlar, moslamalar va shu kabilardan to'g'ri foydalanish va xavfsizlik qoidalariga amal qilishni tushuntirilishi;
6. ish usullarining bajarilishini ko'rsatish;
7. o'quv ishlab chiqarish ishlarining bajarilishi ketma-ketligini tushuntirilishi;
8. ish davomida qo'yiladigan tipik holatlarga mohiyatini tushuntirish;
9. bajarilayotgan o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bosqichma-bosqich va ketma-ket nazorat qilib borilishini tushuntirish;
10. tahsil oluvchilar bilimi va ular tomonidan xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishni tanlab nazorat qilinishi;
11. kirish yo'l-yo'rig'ini tahsil oluvchilar tomonidan to'g'ri va to'liq o'zlashtirilganligini tanlab nazorat qilish;
12. o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarish uchun sarflanadigan vaqt birligini ko'rsatib o'tilganligi;
13. tahsil oluvchilarga o'quv ishlab-chiqarish vazifalarini berilishi.
14. Tahsil oluvchilar tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi.
15. mashq;
16. operatsiyalar;
17. majmuaviy ish;
18. laboratoriya-amaliy ish;
19. Maqsadli kuzatuv va nazorat:
20. alohida tahsil oluvchi yoki guruh ishining boshlanishi;
21. tahsil oluvchilar ish o'rnini tashkil etilganligi;
22. ma'lum bosqichda o'quv-ishlab chiqarish ishining bajarilish sifati;
23. tahsil oluvchilar tomonidan asbob-uskunalar moslamalar, ko'rsatmali-texnologik xaritalar kabilardan to'g'ri foydalanilayotganligi;
24. tahsil oluvchilarni xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishni;
25. tipik xatolardan xabardor qilish va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish;
26. Joriy yo'l-yo'riq.
27. tahsil oluvchilar tomonidan asosiy va yordamchi ish-hurakat usullarini to'g'ri bajarish tartibini tushuntirish;
28. darsda o'quv ishlab chiqarish ishlarining jadalligini aniqlash;



29. sifat va samaradorlik ko'rsatgichlarini nazorat qilish hamda xavfsizlik texnik qoidalariga amal qilmaslik holatlarining oldini olish;
30. qiyin ish-hurakat usullarini qo'shimcha ravishda ko'rsatish va mohiyatini tushuntirish.
31. YAkuniy yo'l-yo'riq.
32. o'quv guruhining o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish;
33. guruh ishining iqtisodiy jihatdan tahlil etish;
34. tahsil oluvchilar yo'l qo'ygan texnik xatolarni tahlil etish;
35. darsga yakun yasash;
36. uyga vazifa berish;
37. Dars bo'yicha umumiy xulosa.
38. darsning ijodiy tomonlari;
39. kamchiliklari;
40. tavsiyalar.

O'qituvchi (usta)ning imzosi

Kuzatuvchining imzosi.

Nazorat savollari.

1. Kasb-hunar kollejlarda darslarni tahlil qilish kandy amalga oshiriladi?
2. Kasb-hunar kollejlarda nazariy mashg'ulotlarni tahlil etish rejasi nimalarni uz ichiga oladi?
3. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil qilish rejasi (metodikasi) kandy tuzilgan?

Tayanch iboralari

Umumta'lim, umumkasbiy, printsip, politexnizm, uzviylik, ixtisoslik, kino, diafilm,

KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA ISHLAB CHIQARISH TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI


Reja:

1. Ishlab chiqarish ta'limi. Boshlang'ich ko'rsatma berish. Joriy ko'rsatma berish. YAkuniy ko'rsatma berish.
2. Maxsus tajriba maydonlarda ishlab chiqarish darsi.
3. O'quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha mashg'ulotlar.
4. Ishlab chiqarish amaliyoti

Ishlab chiqarish ta'limi turli shakllarda joriy qilinadi. Bularga kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonasida ishlab chiqarish sayohati, amaliyoti va maslahatlar, ishlab chiqarish korxonalar ustaxonalarida amaliyotlar, ish o'rinlarida diplom oldi ishlab chiqarish amaliyoti va boshqalar kiradi. Muayyan kasbga o'rgatishda diplom kiradi.

Ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning asosiy shakllarini ko'rib chiqamiz.

Ishlab chiqarish ta'limi - o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulot bo'lib, uning maqsadi ishlab chiqarish sharoitlarida unumli mehnat uchun zarur bo'lgan boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish xisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarida bilimlarni yaxlitlashtirish va ularni talabaning amaliy faoliyati



jarayonida har tomonlama qo'llash amalga oshadi. Bu ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining tuzilmasini, mazmuni va o'qitish usullarini, shuningdek ularning davomiyligini aniqlab beradi.

Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari tuzilmasida ko'rsatma berish muhim bo'lib ularga boshlang'ich ko'rsatma, joriy ko'rsatma va yakuniy ko'rsatmalar kiradi.

Boshlang'ich ko'rsatma berish quyidagi vazifalarni echadi: a) talabalar oldida turgan ishlar mazmuni bilan va uni bajarish mumkin bo'lgan vositalar bilan (asbob, moslama, jihoz va hokazo) tanishtirish; b) mehnatning yakuniy natijasiga (maxsulotga) bo'lgan talablar va texnik hujjatlar bilan tanishtirish; v) butun ishni va uning alohida qismlarini (usullar, operatsiyalar va x.k.) bajarish qoidalari va ketma-ketligini tushuntirish; g) mumkin bulgan kiyrnchiliklar, xatolar haqida talabalarni ogoxlantirish; d) zarur xollarda operatsiyalarning bajarilishi ustidan o'z-o'zini nazorat qilish usulini namoyish qilish.

Joriy ko'rsatma berish talabalar tomonidan amaliy ishlar bajarilayotganda o'tkaziladi. U odatda, yakka tartibda va gurux bo'yicha o'tkaziladi.

Joriy ko'rsatma berishda usta butun o'quv guruxi diqqatini o'rganilayotgan operatsiyani bajarishning eng samarali usullariga qaratadi, topshiriqni bajarishga sust tayyorlangan talabalarga yordam beradi va hokazo. Usta faoliyatining yutug'i ko'pincha butun guruh va har bir talaba ishi ustidan maqsadga yo'naltirilgan kuzatuvni tashkil etish mahoratidan bog'liq bhladi. Guruhni faollashtirishga musobaqa elementlari, o'yin vaziyatlarini kiritish bilan, alohida operatsiyalar bajarilishini bosqichma-bosqich baholash bilan erishiladi.


Yakuniy ko'rsatma berish bir necha didaktik va tarbiyaviy maqsadlarga ega: guruxda jamoaviy va yakka tartibdagi mehnat natijalarini ob'ektiv baxolash, ilg'or talabalarni aniqlash va ularni rag'batlantirish, u yoki bu mehnat operatsiyalarini bajarishda umumiy va yakka tartibdagi xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini izlash va hokazo. Yakuniy ko'rsatmalarni to'g'ri berish talabalarga katta tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, ularda uz mexnati natijasi uchun javobgarlik, jamoaviylik, bajarilgan ishdan qoniqish hosil qilish, mehnatga bo'lgan estetik munosabat hissiyotini uyg'otadi va shakllantirishga ko'maklashadi.

O'rganilayotgan materialning maqsadlari va mazmunidan bog'liq ravishda ishlab chiqarish darslarining quyidagi turlari mavjud:

1. maqsadi talabalarga o'rganilayotgan usul yoki operatsiyalarni bajarish uchun ishlab chiqarish - texnik bilim, boshlang'ich ko'nikma va maxorat berish bo'lgan mehnat usul va operatsiyalarini o'rganish bo'yicha darslar;
2. maqsadi talabalarni asta-sekin murakkablashib borayotgan o'quv ishlab chiqarishlari, mexnatni tashkil etish va texnologik jarayonni rejalashtirish, ko'nikma va mahoratlarni takomillashtirish va mustahkamlash, turli birikmalarda avval o'rganilgan operatsiyalarni bajarish bilan tanishtirish bo'lgan kompleks ishlarni bajarish bo'yicha darslar.

Maxsus tajriba maydonlarda ishlab chiqarish darsi. O'quv sharoitlarida ko'pincha ko'nikma va maxoratlarni shakllantirish uchun ishlab chiqarish xaqiqiy vositalardan foydalanishning imkoni bo'lmaydi.

Maxsus tajriba maydonlariga turli xil avtotransport vositalari bilan jixozlangan maydonchalar, qurilish mashinalari va mexanizmlari bilan jihozlangan o'quv-qurilish



maydonchalari, harakatlanuvchan katta yukli kranga ega bo'lgan ochiq maydonchalari, geologik va geodezik ishlar uchun o'quv maydonchalari va xokazolar kiradi.

Maxsus-tajriba - o'quv maydonchalarida kasb-xunar kollejlari yo'nalishlariga qarab, masalan, qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji maydonchasida – qishloq xo'jalik mashinalarini o'rganish va ular bilan ishlar, maishiy xizmat kasb-hunar kollejida – tikuvchilik mashinalarini o'rganish va ular bilan ishlar amalga oshiriladi.

O'quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha mashg'ulotlar. O'quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta'limi – talabalar o'quv va ishlab chiqarish faoliyati ko'lamini kengaytirishning muxim shartlaridan biridir.

O'quv ustaxonalarida ishlash o'quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi, chunki o'qitish sharoitlari ishlab chiqarish sharoitlariga yaqin va talabalarga murakkab maxsulot ishlab chiqarish jarayonini o'zlashtirish imkonini beradi.



Tayanch ishlab chiqarish korxonalarida ustaxonalarida mashg'ulotlar. Talabalarning korxonada ishlab chiqarish ta'lim olishlaridan asosiy maqsad – ularning kasbiy ko'nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilgor ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlarini tugatgandan so'ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir.

Talabalarni korxona ustaxonalarida o'qitish – malakasi kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi xal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu erda talabalar ishlab chiqarish holati, yangi jixozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Korxonada ishlab chiqarish ta'limi talabalarning kompleks ishlarni bajarishda muxim ko'nikmalarni mustahkamlashlari va takomillashtirishlariga, texnologik jarayonlarni rejalashtirish mahoratiga ega bo'lishlariga, turli maxsulotlarning assortimentlari bilan keng tanishib chiqishlariga yo'naltirilgan.

Ishlab chiqarish amaliyoti. Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o'qitishning sunggi oylarida o'tkaziladi. Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida echiladigan vazifalarga quyilagilar kiradi: talabalarning ishlab chiqarish sharoitlariga ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatdan moslashishi; kasbiy bilim, ko'nikma va maxoratlarni takomillashtirish; tanlangan kasb bo'yicha ixtisoslashtirish; murakkab ishlab chiqarish ishlarini bajarishda mustaqil ishlash tajribasini to'plash; progressiv texnologiyalar va zamonaviy jihozlarni, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalarini o'rganish; yuqori unumli asbob va moslamalarni, ishlab chiqarish ilg'orlari tajribasini o'zlashtirish; korxona texnik va texnologik hujjatlarni, ish o'rinlarida mexnatni ilmiy tashkil qilish masalalarini o'rganish; ko'nikma va maxoratni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, murakkab ishlab chiqarish vazifalarini echishdan iboratdir.

Ishlab chiqarish amaliyoti tayanch ishlab chiqarish korxonasi ish o'rinlarida tashkil etiladi. Korxona odatda, amaliyotga raxbarlik qilish uchun muhandis-texnik xodimlar va malakali mutaxassislarni ajratadi. Ta'lim olishning bu davrida talabalar korxonada mustaqil ishlashga to'liq tayyorlanadilar.



Nazorat savollari.

1. Ishlab chiqarish ta'limining vazifasi nimadan iborat?
2. YAkuniy ko'rsatma kanday maksadlarga ega?
3. Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida echiladigan vazifalarga nimalar kiradi?
4. Maxsus tajriba maydonlariga nimalar kiradi?

Tayanch iboralar

Ta'lim, malaka, korxona, xujjat, mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, psixologik, fiziologik, texnologik, geologik, geodezik, avtotransport, asbob, moslama, jihoz.

KASBIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH. TARBIYA - KASBIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VOSITASI

Reja:

1. Tarbiya san'ati.
2. Pedagogika tarbiya berishning ikki turi haqida.
3. Ahloq va odob haqidagi ta'limotlar.
4. Pedagogik jarayonda kommunikatsiya.
5. Refleksiv qobiliyatlar.

«Tarbiya san'ati – deyarli hammaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa, hatto oson tuyulish xususiyatiga ega, u qanchalar tushunarli va oson tuyulsa, o'sha inson u bilan nazariy va amaliy jihatdan shunchalar kam tanish», degan edi **K.D.Ushinskiy**.

Tarbiya – pedagogik nazariya va amaliyotidagi eng o'zgarmas, va eng qadimiy muammodir. Lekin, «Bolalarni tarbiyalash muammosi yo'q, faqatgina: qanday qilib bolalar va kattalar birga yashashlari mumkin, degan bir savol bor, xolos,» degan edi L.N.Tolstoy. Bunday tarzda qo'yilgan savol eng avvalo, o'zingizga nazar tashlashingiz kerak bo'lgan har qanday holatdagidek o'ta murakkabdir.

Tarbiya, asosan, quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: ko'rsatish va tushuntirish, rag'batlantirish va jazolash, vazifa berish va talab qilish, tekshirish, tuzatish, ishontirish va tahlil qilish. Ana shunday ta'sir ko'rsatish yo'li bilan kattalar bolalarning bilish va amaliy faoliyatlarini yuzaga keltirib, ma'lum tomonga yo'naltiradilar va bu faoliyatlar nazorat qilinib, to'g'rilab hamda shuning bilan birga faoliyatlarni rivojlantirish amalga oshiriladi.

Pedagogikada tarbiya berish usuli ikki turga bo'linishi qayd etilgan. Avvalgi usul, (ilhomlantiruvchi) san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul, (majbur etish) esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. tarbiya beruvchi yoki shogirdlar ustida turgan o'qituvchilarning qo'llaydigan usuli bunga misoldir. Masalan, hukumat yoki davlat, mazkur mamlakatda yashovchining muallimi, tarbiyachisi bo'ladi. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat (davlat) va muallim har ikkovi o'z yo'lida bolalar yoki mehnatkashlarga tarbiya beruvchi ustoz va muallimlardir.

Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchi majburiy ravishda tarbiyalaydi.

Forobiy tarbiyaning usuli deganda axloqiy fazilatlarni tushunadi. Uning tasavvurida axloqiy fazilatlar bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlardir. Ammo, bu xislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma'rifatli bo'lishidir. SHuning uchun ham, Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas balki kishilarning aqliy faoliyatning natijasi sifatida ham talqin etilganligini ko'ramiz. Forobiyning ta'lim – tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir.

U «... insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l, – ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat, nazariy bilimlar va omiliy kasb – hunar, xulq - odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan amalga oshiriladi» deb ta'lim beradi.

Har ikkalasi birlashsa etuklik namoyon bo'ladi, ammo bu etuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi deb uqtiradi alloma.

Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa tarbiyada ma'naviy, axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb – hunarga oid malakalar hosil qilinadi deb tushuntiradi.

Bahouddin Naqshband tarbiyaviy qarashlarining markazida orif insonni shakllantirish g'oyasi yotadi.

Orif inson avvalo aqli, ilmi va ma'rifatli bo'lishi lozim. Uning ta'limotiga ko'ra insoniy ilmi shariat, ilmi ma'rifat va ilmi haqiqatni o'z ichiga olgan tasavvur ta'limotidan iborat bo'lishi lozim. Bu yo'l orqali insonlar mavjud dunyo tilsimlarini o'rganishlari va bilishlari imkoniyatiga ega bo'ladilar.


Xo'ja Bahouddin Naqshbandning bu ta'limotini o'rganuvchilarga piru ustoz bo'lib ta'lim berganlar. Piru ustoz Naqshband muridlar (shogirdlar)ning dunyoqarashini kengaytirib Valiy avliyo darajasigacha aqlini rivojlantirganlar, ularga ta'lim berish uslubiyotini ishlab chiqqanlar. (Bu toifa uch qismga bo'linadi: muqallid, oif va mukammal). Bu pedagogika buyuk sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilishida g'olibona harbiy yurishlarida, mamlakatda asosiy tartib o'rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o'rtasida buzilmas do'stlik mehr – shavqat, odamiylik va axloq – odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga katta yordam bergan. Ustozning axloq va odob haqidagi ta'limotiga quyidagilar kiradi:

- adolat va adolatsizlik;
- so'z va ishning birligi;
- do'st va dushmanlik;
- botirlik va qo'rqqoqlik;
- so'z va shirinsuxanlik.

Ta'lim – tarbiya ishlari ham Naqshband g'oyalarini ifoda etuvchi mafkura sifatida amalga oshiriladi. Farzandlarga islom diniga e'tiqod qilishni o'rgatish bilan birga alloma mehnatni sevishni, axloqli bo'lishni, odamlarga yordam ko'rsatishni, bilim olish, hunar o'rganish va boshqa olijanobliklarni uqtiradilar. Masjid va madrasalarda

talabalar ongida ollohgga yaqin bo'lishning to'g'ri va samarali yo'li tarki dunyochin emas, balki jamiyat saodati uchun yashash, bunyodkorlik, savob ishlar va mehnatni qadrlash, ilm va bilim olishdir. Mukammal axloqqa erishish, xullas jamiyat hayotida faol ishtirok etishni taqozo etadigan xulq – atvorni, sa'y – harakatni o'zida mujassam etadigan mafkura izchil ravishda singdirildi.

Agar bolalarga jazo berish sabablarini chuqur tahlil qiladigan bo'lsak, burchakda tik qo'yish yoki shirinlikdan mahrum qilish jazosini atroflarida shu «sho'r suv»ni «shimish»ga olib keladigan shunday muhitni yaratib qo'yganlarini sezmaydigan kattalarga berish kerak bo'ladi. Lekin, ularning shu siz ham muammolari ko'p, shuning uchun ular o'zlariga tinmay: «Men o'z ehtiyojlarimni boshqarayapmanmi? Nimani afzal ko'rib, nimani ko'proq qadrlayapman? Va bu hatti – harakatim boshqalarga bo'lgan munosabatlarimda qanday aks etyapti?» degan savollarni beraverishdan tortinadilar. O'z hissiyotlarini boshqarish, ularni (o'z erkinligini) cheklash, boshqasini (va uning erkinligini) hisobga olish – tarbiyaning asosi. SHu ma'noda, o'quv dargohini (o'qituvchilar) mutaxassislar rahbarligi ostida mashq qilib ko'rish mumkin bo'lgan mashq maydonchasiga o'xshatsa bo'ladi. Tajribali tarbiyachi, eng avvalo, har bir talabaning o'z hissiyotlarini hisobga olib, uni maqsadga yo'naltiradi, ularni boshqarish uchun sharoit yaratib beradi. Bu jadvalda shunday ko'rinish kasb etadi:



Hissiyotlar boshqarilishi – bu dolzarblikni tushunish, qiziqish harakatga undovchi sabab – faollik, qaror qabul qilish demak. Agar har birimiz o'z dunyoqarashimizni kengaytirish orqali o'z hissiyotlarimizni boshqarish, muvofiqlashtirish, me'yorga intilishni o'rgansak, hayotimizdan jahldorlik, ochko'zlik, munofiqlik ketib, aqlimiz kiradi. Ongimizning aynan shu qismi o'z hayotimiz ma'naviyati darajasini boshqaradi, ya'ni yaxshilik yoki yomonlik; ijodiy yaratuvchanlik yoki bema'ni vayrongarchilik; boshqalarga nisbatan sevgi yoki nafratga o'z munosabatimizni belgilaydi.

Xulosa qilib aytsak, tarbiyani o'z hissiyotlarini, xohish va istaklarini boshqarish jarayoni, deb aytsak xato bo'lmaydi.

Pedagogik jarayonda o'z hissiyotlarini boshqarishni har bir talabaga o'rgatish bu maqsadni aniq mo'ljalga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

O'qituvchi auditoriya bilan o'zaro muloqot (o'quv jarayonidan alohida vaqtda emas) o'z vaqtida tarbiyaviy jarayon borayotganligini anglay olishi darkor. Qiziqishlarini saqlab qolish, asoslab bera olish, faolliklarini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilarda pedagogik jarayonda maqsadni yuzaga keltiradi, ular kasbiy faoliyatda juda zarur bo'lgan o'zliklarini anglash mashqini oladilar.


Tarbiya to'g'risida qanchalar gapirilgan. Yana biror narsa qo'shish mumkinmi? Balkim, agar fikr, so'z, harakatni ishlab chiqishga undaydigan yo'nalishni: jarayondan natijaga «bilim, mahorat, ko'nikma» dan «bilim, mahorat, ko'nikma plus qarashlar, harakatlar»ga cheklangan intellektli iste'molchini shakllantirish (diqqat, o'qish, xotira - imtihon uchun etarli!) dan to'laqonli yaratuvchi (diqqat, o'qish, xotira, fikrlash) ni shakllantirishga o'zgartira bilsak, mumkindir. SHundagina, tarbiyaga ham qandaydir yangilik kiritish mumkin bo'ladi.

O'quv jarayoniga qadam qo'ygan talabalar o'qish mazmuni qo'yilishi kerak bo'lgan o'z ichki ehtiyojlari (ichki normalar) ga ega bo'ladilar, ya'ni ba'zi bir tashqi narsalar (informatsiya) hozircha ularga begona bo'lgan har qanday narsa ularni hushyorlikka chorlaydi.

Narsa hodisaning tarkibini sistemali (tizimli) ravishda ko'rish kerak, ya'ni ma'lum ilmiy bilimni zanjirga aylantirish: sistema (elementlar va aloqalanish), yoki podsystema (elementlar va aloqalar) va h.q.


Kasbiy faoliyat mazmunining asosi bo'lib - malakali talablar, o'lchovlar, mezon, maqsad, vazifalar xizmat qiladi va ular kasbiy faoliyatga o'qish yordamida madaniyatga ega bo'ladilar.

Kasbiy faoliyat mazmunini, uning quyidagi qurilma ko'rinishida ko'rish mumkin:



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'lchovga mazmun va mezon ta'sirini ko'rsatish orqali amalga oshadi va u kasbiy madaniyatni shakllantiradi. Bu shaxsning kasb ko'nikmalarini o'stirishga xizmat qiladi.

Ko'pincha kattalarning ta'limdagi odatiy texnologiyalari – ma'lumotlarni berishgagina yo'naltirilgan bo'ladi va shu sababli talabalarga har qanday mazmunda bo'lishi mumkin bo'lgan o'z muammolarini hal qilish metodi, usuli va texnologiyasini o'zlashtirishga sharoit yaratilmaydi. Bunda mazmun tuzilmasi fikrlash texnikasini, uni taqdim etish usuli esa kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirmaydi. Bu kasbiy faoliyat uchun salbiy holatdir.



Faqatgina pedagogik texnologiyalarda talabaning ichki xususiyatlarini o'stirish, ularni uning ichki mazmuniga bog'liq holda amalga oshirilgan taqdiridagina tarbiya va ta'limda unumdorlikni kam yo'kotishi mumkin. O'qituvchi «mening yo'limdan yur» talablari o'rniga «Atrofga qara, o'yla, tanla, mening yordamimda o'rgan» talabiga o'tsagina bu kasbiy faoliyatni tashkil etish maqsadli bo'ladi. «Taraqqiyot va ta'lim biror kishiga tayyor holda xabar berilmaydi va taqdim etilmaydi. Buning uchun istagan har bir odam unga o'z faoliyati, o'z kuchi va o'z intilishi orqali erishadi» - degan edi, **A. Disterveg**.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchining fikrlashi (fikrlash texnikasi), so'z bilishi (kommunikativ) qobiliyati, izlanuvchan ongi va anglanganligi (refleksli) harakatida namoyon bo'ladi.

Fikrlash texnikasi qobiliyatlarni rivojlantirish, izlanuvchanlik texnikasini egallashdan kelib chiqadi.

Har qanday pedagogik texnologiya ham o'qituvchi, ham talabadagi fikrlash texnikasini amalga oshirish jaryonida sodir bo'ladi va rivojlanadi.

Tabiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning funktsiyasi ta'lim jarayonining asosini tashkil etadi.


Atrofimizga qaraylik: bizni norozi qiladigan hamma holatlar bir-birimizni tushunmaslik, bir – birimiz bilan kelisha olmasligimiz, o'z fikrimizni o'zgalar diqqatiga etarli darajada asoslab, nuqtai nazarimizni, himoya qila olmasligimizdan kelib chiqadi. Donishmandlardan biri «oxirgi dalil-o'q» deb bekorga aytmagan. Demak, o'q otishning raqobatdoshi - ko'proq, salmoqliroq dalillarni keltirish ekan, ya'ni fikrlash ekan, u albatta – natijali bo'ladi.

Pedagogik jaryonda kommunikatsiya ro'y beradi – intellektual va hissiy mazmunlar almashadi, ya'ni pedagogik muhitda qayd etilganidek, to'g'ri va teskari aloqa ya'ni natijali kommunikatsiya sodir bo'lishini tashkil etish orqali uchun o'qituvchida yuqori malaka shakllanadi.

Refleksiv qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy yoki shaxsiy sifatlarining ishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.


Pedagogik ijodkorlik va mahorat ko'pincha o'qituvchining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Biror yangilik yaratishga, o'z harakatlarini, tajribalarini qaytarishga urinish, agar sharoit o'zgarishi, ya'ni yangilik elementlarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, muvaffaqiyatga erishish mumkin. Bunda o'qituvchiga ijodiy qobiliyatlar zarur bo'ladi.

Agar ta'lim sub'ekti to'g'risidagi bizning tasavvurimiz bizni o'rab turgan olam yaxlitligiga mutanosib ravishda: fikr - so'z - harakat («ruh» - «sotsio» - «bio») bilan hamjihat bo'lsa, bizning pedagogik jarayondagi vazifamiz – shu yaxlitlikni ta'minlash uchun asos bo'ladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:



Fikr, so'z, harakat mazmunidan o'rin olgan qobiliyatlar o'zgarishi – tabiat in'om etgan hamma narsani ongimizda rivojlantirishi mumkin.

Unutmaylik, pedagogik jarayonda aynan metodlar – talabalarning faoliyat yo'nalishini aniqlaydi, va belgilaydi, o'qituvchining mahoratiga bog'liq ravishda u yoki bu qobiliyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. SHu sababdan o'quv yurtini faqat ilm olish maskani emas, balki mashq maydonchasi sifatida ham ko'rib chiqish lozim bo'ladi. CHunki u erda bo'lajak kasbiy faoliyat egalari o'z qobiliyatlarini malakali mutaxassislar rahbarligida rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda metod boshqaruvchi rolida bo'ladi. Qarang:



Ba'zan metod unumdorligi kasbiy faoliyat unumdorligi bilan almashtiriladi. Ayni paytda, metod tanlashda quyidagi asosiy mezonlardan foydalaniladi:

- talabalar qobiliyatini rivojlantirish;
- faoliyatning kasbiy vositalar bilan mutanosibligini ta'minlash;
- refleksiya, kommunikatsiya, fikrlash texnikasining ijtimoiy – madaniy o'lchovlarga muvofiqlashtirish;
- pedagogik jarayonning mazmuni va maqsadlariga mutanosiblikni ta'minlashdan iborat.



Kasbiy faoliyatda ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarga moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashda ijtimoiy buyurtma olgan eamonaviy oliy ta'lim tizimining yaxlitligi birinchi darajali bo'lgan sifat o'zgarishlarini o'z boshidan kechirmoqda.

Nazorat savollari.

1. Pedagogikada tarbiya berish usuli necha turga bo'linadi, ta'riflab bering.
2. Forobiyning tarbiya usuli xakidagi fikri kanday?
3. Kasbiy faoliyat mazmunining asosi bo'lib nimalar xizmat kiladi?
4. Refleksiv qobiliyatlar nima uchun xizmat kiladi?
5. Metod tanlashda kaysi asosiy mezonlardan foydalaniladi?

Tayanch iboralari

Refleksiya, kommunikatsiya, fikrlash, metod, kobiliyat, sub'ekt, informatsiya



O'QUV-TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISHDA PEDAGOGIK MAHORAT


Reja:

1. Pedagogik faoliyatning asosiy negizi.
2. Darsni aniq va uyushgan holda boshlash.
3. Talabalar e'tiborini dars mazmuniga qaratib bilish.
4. Darsda vaqtdan oqilona foydalanish.
5. O'z hatti-harakatini kuzatish.

Jamiyatning kundan kunga o'zgarishi har bir pedagogdan tashabbuskorlik, faoliyat, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishni talab etadi.

Kollejda o'tiladigan dars - bu pedagogik faoliyatning asosiy negizi hisoblanadi. Darsda o'qituvchi talabaga ma'lum bilimni etkazadi, beradi va o'qitadi. Ularga bilim berishda o'qituvchi tobora faoliyatini kengaytirib boradi, bilimlarini oshiradi. Hozirgi paytda doimiy qo'llaniladigan metodik ishlarda ham kamchiliklar bor. Dars o'tish jarayonlarida hali sxolastik elementlar mavjud. Ba'zi o'qituvchilar iqtisodiy – ijtimoiy, siyosiy hayotdagi o'zgarishlarni taxlil qilmaydilar. Ular talabalarni mustaqil fikrlashga, turli xil munozaralar, savol - javoblar qilishga va o'quv materialini mustaqil o'rganishga yo'naltirishlari lozim. Har bir yangi g'oya va o'zgarishlar texnika va texnologiyalar so'nggi yutuqlari o'quv jarayoniga tatbiq qilib borish kerak. Talabalarni o'quv mehnat faoliyatiga qaratishda ularda xursandchilik, yutuq, omad tuyg'ularini tug'dirish yoki shakllantirish, oldinga harakatlantirish va rivojlantirish lozim. Bugungi pedagogik hamkorlik talabalarni o'qishga jalb qila olishga tayanch bo'lishi kerak. Pedagogik hamkorlikning yana bir asosiy tamoyili talabalardan darsdagi qo'rquvni olish, uni bamaylixtir, erkin, o'z kuchiga ishonishdan iboratdir. V. Suxomlinskiyning so'zlari bilan aytganda “qaerda yutuq bo'lsa o'sha erda qiziqish bo'ladi”. Ilg'or o'qituvchilar dars jarayonida shunday usullarni qo'llashlari kerakki, bunda har bir talaba o'zini shaxs deb hisoblashi va o'qituvchining shaxsan unga e'tibor qaratishi lozim. Hozirgi zamonaviy kasb-hunar ta'lim sharoitida talabalarni o'qitish, tarbiyalash, ularni ijodiy qobiliyatlari rivojlantirishda pedagog va talabalar o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishlari talab etiladi.

SHuning uchun ham kasb-hunar kollejlari maxsus fan o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi va o'z sohasining etuk mutaxassisi bo'lishi kerak. Kollejda darsni yaxshi o'tishi uchun o'qituvchidan birinchi navbatda g'oyaviy, amaliy va kasbiy tayyorgarlik talab etiladi. Darsga tayyorlanish uchun o'qituvchi doimo shu fanning pedagogik, psixologik va metodik xarakterda bo'lgan yangiliklari bilan tanishib borishi kerak. SHu bilan birga u yana ilmiy-uslubiy jurnallar va gazetalarni o'qishi kerak. Darsning mazmuni, tizimi va o'qitish metodlarining tanlashda kasb-hunar kollej talabalarining yosh xususiyatlari ham e'tiborga olinadi. O'qituvchilarni xilma-xil faoliyat turlariga jalb etish, ko'rgazmalikdan keng foydalanish, o'yin elementlarini kiritish, yangi materialni o'rganish va o'tilganlarni mustahkamlash uchun optimal me'yorni aniqlash, bularning barchasi mazmuni va tuzilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining vazifalaridan biri o'quv jarayonini boshqarish hamda darsda ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishga yordam beradigan qulay muhitni yaratishdir.



Barcha didaktik talablar to'liq darajada yaxshi natijalar beradi. Kasb-hunar kollejlari didaktik vazifasi va tuzilmasiga ko'ra darslar quyidagi tiplarga bo'linadi:


1. Kombinatsion darslar;
2. Yangi materialni o'rganish darslari;
3. Bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash darslari;
4. Mashqlar va amaliy ishlar darsi;
5. Umumlashtiruvchi takrorlash darslari;
6. Laboratoriya darslari;
7. Talabalar bilimini nazorat qilish, tekshirish va baholash darslari va boshqalar.

Hozirgi davrda kasb-hunar kollej o'qituvchilaridan texnika va texnologiyalarining kun sayin o'zgarayotganligi, ish sharoitlarining ham o'zgarayotganligi, yangi adabiyotning paydo bo'layotganligi, o'quv rejalari dasturlariga tuzatishlar kiritilayotganligi, o'qitishning shakl va metodlarini takomillashtirishni talab qiladi. Ammo o'qituvchining har bir alohida darsga tayyorlanishi uning o'quv ishiga tayyorlanish faoliyatining bir qismi xolos. Bu:

1. O'qituvchining o'z predmeti buyicha butun kurs yuzasidan tayyorlanishi.
2. O'quv dasturining har bir mavzusiga tayyorlanishi.
3. Har bir darsga tayyorlanishni o'z ichiga oladi.

Butun kurs yuzasidan tayyorgarlik yangi ilmiy ishlar, yangi metodik materiallar bilan tanishishni, dastur va darsliklarni o'rganishni, va boshqa ishchi hujjatlar tuzishni nazarda tutadi. Har bir mavzuga tayyorlanish o'qituvchini yana dasturga, mavzu yuzasidan qo'shimcha materiallarga, har bir mavzuning asosiy masalalarini aniqlashga, o'qitish metodlarini tanlashga va kerakli metodik vositalarni ko'rgazmali qurollar, jihozlar, uskuna, asboblari va hokazolarni tayyorlashga majbur etadi.

Bunday didaktik maqsadlar izchilligini aniqlash, mazmundagi etakchi g'oyalarni, faoliyatining asosiy turlarini ajratish predmetlararo aloqalarni ajratib olish, natijalarini tahlil qilish imkonini beradi. Har bir alohida darsga tayyorlanishga o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi; mavzuni aniqlaydi va dars vazifalarini konkretlashtiradi; o'quv materialining mazmunini ajratadi va uni didaktik jihatdan ishlab chiqadi. Etakchi g'oya, tushuncha, qonuniyat, amaliy ma'lumotlarni ajratadi; ilgari o'rganilgan mavzu bilan bog'lanishni, mazmunan joylashtirish, mantiqan nazarda tutadi; talabalarning o'quv bilish faoliyatlari, xarakterini aniqlaydi, ya'ni qanday ko'nikma va malakalar shakllanishi, izlanish faoliyatini, mustaqil ish va o'qituvchining roli o'rtasidagi nisbat qanday bo'lishni o'ylab qo'yadi. SHu shakllarni ishlab chiqadi, dars qismlarini ajratadi; o'qitish metodlari: masala, mashq, muammoli savollar, topshiriq dasturlashtirish elementlarini tanlaydi va aniqlaydi. O'qitishning texnik vositalarini tanlaydi va tekshiradi; butun dars jarayonini rejalashtiradi. Dars rejasida, odatda sana va dars nomeri, uning mavzusi, vazifalari mazmunining asosiy masalalari, o'qituvchi va talabaning faoliyat turlari, o'qitish metodlari va vositalari, so'raladigan talabaning familiyasi, individual topshiriqlar, uyga vazifa ko'rsatiladi. Ammo dars rejalarning tuzilmasi va hajmi o'qituvchining malakasi hamda tajribasidan kelib chiqib tuzilishi kerak. Yaxshi tayyorlangan darsni yana uyushgan holda aniq va samarali o'tkaza bilish ham kerak. Bunda quyidagi qonunlarga amal qilishi lozim:



1) Darsni aniq va uyushgan holda boshlash, buning uchun esa darsga hamma narsa oldindan tayyorlangan bo'lishi kerak.

2) Talabalar e'tiborini dars mazmuniga qarata bilish va uni butun dars davomida talabalarning bilish faoliyatlarini faollashtirib saqlay bilish, darsga qiziqishni qo'llab-quvvatlash, talabalar oldida muammoli savollar qo'yish, ularni doimo javob berishga tayyor holda saqlash, darsdagi ishlarni xilma-xillash, hammani ko'rib, hamma narsani so'rab turish.

3) Darsda vaqtdan oqilona foydalanish: o'quv jihozlarini oldindan tayyorlash, ularni to'g'ri joylashtirish, topshiriqlarni bajarilishiga erishish, talabalar e'tiborini chalg'ituvchi sabablarga yo'l qo'ymaslik.

4) O'z hatti-harakatini kuzatish: g'oyaviy e'tiqod, yuksak axloqiylik va madaniyat, gapirish va talab qilish, rag'batlantirish, talabalarga murojaat qilish uslubi – bularning barchasi o'qituvchi faoliyatining uslubini belgilaydi hamda talabalarning zo'r berib ishlashi yoki o'ta emotsional qo'zg'aluvchanligini istisno qiladi.

5) Darsda tadbirkorlikni namoyish qilish, yuzaga kelgan sharoitni yoki darsni o'tkazish sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olish kerak.

Zamonaviy dars talabalar faoliyatini faollashtirish, ajratiladigan vaqtni qisqartirish, bilimlarni nazorat qilish va mustahkamlash funksiyalarini birlashtirish, mustaqil ish, ijodiy xarakterdagi topshiriqlar hajmini oshirish, muammoli izlanish metodlaridan, o'qitishning texnik vositalari va dasturlashtirish elementlaridan oqilona foydalanish yo'lidan takomillashib bormoqda. Hozirgi payt dars o'quv jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli, bo'lsada kasb-hunar kollejida laboratoriya mashg'ulotlari, seminarlar, uy vazifalari, qo'shimcha mashg'ulotlar, mehnat va ishlab chiqarish ta'limi samarali metodlaridan foydalanishni hamda ularni rivojlantirishni talab etadi.

Nazorat savollari.

1. Kollejda o'tiladigan dars metodi kanday?
2. Kasb-hunar kollejlarda didaktik vazifasi va tuzilmasiga ko'ra darslar kanday tiplarga bo'linadi?
3. Darsni anik va samarali utish uchun kanday konunlarga amal qilish lozim?



Tayanch iboralar

Texnik vosita, dasturlashtirilgan, g'oya, tushuncha, qonuniyat, ko'rgazmali qurollar, jihozlar, uskuna, asbob, kombinatsion darslar.

ZAMONAVIY ISHLAB CHIQARISH TA'LIMI USTASINING FAOLIYATI TO'G'RISIDA. TALABALARNI KASBGA YO'NALTIRISH.

Reja :

1. Kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limi ustasi ishining tahlili.
2. Bo'lajak ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy ish bo'yicha ko'nikma va mahorati.
3. "Usta-talaba" tizimidagi o'zaro munosabatlar.
4. YOshlarni kasbga yo'naltirish muammolari. Kasb turlari.
5. Mehnat predmeti bo'yicha kasblarning tasnifi.
6. Mehnat qurollari va mehnat sharoiti bo'yicha kasblarning turlari.
7. Mehnat maqsadlari bo'yicha kasblarning tasnifi.



Zamonaviy ta'lim to'g'risida so'z yuritganda, muayyan mutaxassisni tayyorlashda ta'lim va tarbiya berishni asosiy qonuniyatlari amalga oshirilishi shart. Bunday qonuniyatlardan biri "Pedagog-o'qituvchi" munosabatini erkinlashtirish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi kasbi – pedagogik faoliyatining xususiyati shundaki, u xuddi ikki taraflama mehnat predmetiga egadir. Bir tomondan uning asosiy vazifasini insonlar bilan o'zaro munosabat tashkil qilsa, ikkinchi tomondan ma'lum bir kasb soxada maxsus bilim, ko'nikma va maxoratga ega bo'lishni talab qiladi. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi uchun bu ma'lum bir kasb faoliyat bo'yicha bilim va maxoratidir.

Bundan tashqari ishlab chiqarish ta'lim ustasi talabalarning mehnat faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olishi kerak. Bu kasb tarbiyashunoslik va maxsus soxa bo'yicha tayyorgarlikni talab etadi. Demak, ishlab chiqarish ta'limi ustasi xushmuomala bo'lishi, shuningdek ma'lum shaxsiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi kasbining o'ziga xosligi uning ijtimoiy, jamoaviy va ijodiy tavsifidan iboratdir.

Kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limi ustalari ishining tahlili shuni ko'rsatdiki, bugun u Davlat ta'lim standartida belgilangan tayyorgarlik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda tarbiyaviy, tashkiliy, boshqaruvchanlik, o'quv uslubiy ishlarni bajarish kabi mahoratga ham ega bo'lishi kerak.

Bu erda bo'lajak ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy ish bo'yicha ko'nikma va mahorati, kasb-hunar kollejida faoliyati jarayonida shakllanishi kerak. Aynan usta talabalarda kasb madaniyati bo'yicha dunyoqarash, odob-axloqning shakllanishi bo'yicha bosh vazifani hal qiladi. Bu funktsiyalarni bajarish uchun ustaning o'zi mos ravishda tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.


Ta'kidlab o'tganimizdek, ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasb faoliyati avvalombor talabalar bilan bog'lihdur. Bu o'zaro harakat, ya'ni "Pedagog-o'qituvchi" tarbiyaviy munosabatlari doirasida amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham ishlab chiqarish ta'limi ustasi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatiga shuningdek, ikki taraflama yondashish kerak. Birinchidan, kasb ta'limi mazmuni bo'yicha usta u yoki bu maxsus sohada ma'lum bilim, ko'nikma va mahoratlarning tashuvchisi hisoblanadi, biroq shu vaqtning o'zida talabalar bilan o'zaro harakatda bo'lib, u burch, vijdon, adolat tashuvchi shaxs sifatida xizmat qiladi.

"Usta-talaba" tizimidagi o'zaro munosabatlar muhim pedagogik shartlardan biri bo'lib, bo'lajak kichik mutaxassislarni tarbiyalashning asosi hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy ishlar sohasidagi bilim va mahorat darajasi faqat ularning pedagogika, psixologiya, ishlab chiqarish ta'limi uslubi bo'yicha savollarga bergan javobi bo'yicha baholanadi. Ko'rinib turibdiki, bu erda ishlab chiqarish ta'limi ustasi faoliyatida tarbiyaviy yo'nalish inobatga olinmagan va o'quv rejasida ham bunday fan yo'q.

Nazariy jihatdan u yoki bu faoliyat tayyorgarligini baholash quyidagi komponentlar asosida amalga oshiriladi. Bular motivatsiyali yo'naltiruvchi ijtimoiy-psixologik va jarayonli komponentlardan iborat.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining motivatsiyali komponenti tarbiyaviy ishga ijobiy munosabatni, tarkib topshirish, rivojlantirish va boshqalarni o'z ichiga oladi.



“Tarbiyaviy ishda motivatsiya” deganda tarbiyaviy faoliyat mazmunini yo’naltirilganligi va tavsifini aniqlovchi motivatsiyalar, to’plami tushuniladi.

Tarbiyaviy faoliyatning tashqi motivatsiyalari mavjud bo’lib, ularga ta’lim muassasasidagi ishning ustuvorligi, pedagog sifatida shaxsiy va kasbiy o’sish imkoniyati, tarbiyaviy motivatsiyalarga ishlab chiqarish ta’limi ustasi faoliyatining jarayoni va natijasini kiritish mumkin. SHuningdek, motivatsiya sifatida va boshqaruv motivatsiya ham mavjud bo’lib, bular ishlab chiqarish ta’limi ustasi va talaba o’rtasidagi o’zaro hamkorlikdagi harakatida yuzaga chiqadi.

Ustaning etakchi tarbiyaviy motivatsiya bo’lib, talaba shaxsining bo’lajak malakali kichik mutaxassis sifatida shakllanishiga g’amxo’rlik qilish hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishga tayyorgarlikning yo’naltiruvchi komponenti ishlab chiqarish ta’limi ustasining kasb faoliyati xususiyatlari va sharoitlari to’g’risidagi bilim va tasavvurlarini o’z ichiga oladi va qiziqish, yondashuvchanlik, dunyoqarash, ishonch hosil qilish, ko’zlangan maqsad orqali kasbiy yo’naltirilganligini ifodalaydi.

Qiziqishi asosan yo’naltirilganlikning birinchi shakli hisoblanib, o’rta maktabda shakllanishni boshlaydi. Tarbiyaviy ishga qiziqish bir qancha talablarga ega bo’lib, insonlarning o’zaro ta’sir bilan bog’liqdir. Qiziqish shuningdek tarbiya sohasidagi ma’lum bilimlarga bo’lgan talabni ham ifodalaydi. Maktabda olingan bilim tarbiyaviy ishga bo’lgan qiziqishga asos bo’lishi mumkin.

Qiziqish mehnat faoliyati sifatida talabalarni ma’lum yo’nalishda harakatlanishlariga majbur qiladi.

Tarbiyaviy ishga bo’lgan qiziqish “Bilimga chanqoqlik” ni keltirib chiqarsa, yondashuvchanlik- “Faoliyatga chanqoqlik” ni yuzaga keltiradi. Yondashuvchanlikni bo’lajak ishlab chiqarish ta’limi ustasining o’qitish va tarbiyalash jarayonida doimo rivojlantirib borish zarur.

Ma’lumki, dunyoqarash dunyo haqidagi uning qonuniyatlari haqidagi, insonni o’rab turgan mavjudotlar, tabiat va jamiyat haqidagi qarashlar va tasavvurlar tizimini bildiradi.

Tarbiyaviy faoliyatga nisbatan kasbiy dunyoqarash, qiziqish va yondashuvchanlikdan farqli ravishda tarbiyaviy ish haqida to’liqroq integratsiyalangan tasavvurni beradi.

Kasbiy dunyoqarash, fikrlash va iroda bilan birga asta-sekin shakllanib va rivojlanib boradi. Tarbiyaviy ishda kasbiy dunyoqarashni shakllantirish-ishlab chiqarish ta’limi ustasini tayyorlashdagi bosh vazifa bo’lib hisoblanadi.

Ijtimoiy-psixologik komponent – ishlab chiqarish ta’limi ustasining talabalar bilan muomala va o’zaro hamkorlik qilishdagi adekvat faoliyatini ta’minlaydi.

Jarayonli komponent ishlab chiqarish ta’limi ustasining tarbiyaviy uslub va usullarini egallashida, ularni bajarish uchun bo’lgan bilim, ko’nikma va mahoratni sintez qilishda ifodalanadi.

Tarbiyaviy faoliyat – darsdan tashqari ishlarni, ishlab chiqarish ta’limi mashg’ulotlaridagi tarbiyaviy yondashuvlari, talabalar bilan faol ishlashni, guruhviy ishlarni shakllantirishni, psixologo-pedagogik tashxis o’tkazishni, talabalardan shaxs sifatida shakllanishini, ota-onalar bilan ishlashni o’z ichiga olishi mumkin.

Demak, ishlab chiqarish ta’limi ustasi pedagogik kabi bo’lib, uning vazifasi bo’lajak kichik mutaxassisni shaxsini tarbiyalash va shakllantirishdan iboratdir.

Mustaqil respublikamizning buyuk kelajagini yaratishda yosh avlodni faqat qatnashishga jalb etish bevosita kasbga yo'naltirish ishi bilan bog'liq.

YOshlarni kasbga yo'naltirish muammosi bilan pedagoglar, psixologlar, vrachlar, iqtisodchilar, sotsiologlar kabi boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar shug'ullanadi. Bu muammo ustida ko'p soha mutaxassislarining shug'ullanishi uni majmuaviy hal etilishiga sharoit yaratadi. YOshlarda fan-texnika, texnologiya asoslari haqida mukammal bilim, kasbiy ish-harakat usullari shakllantirish, ular tomonidan onglilik, mustaqillik, ishbilarmonlik, ijodkorlik kabi qobiliyatlarni o'z mulkiga aylantirishiga erishish uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini muhri vazifasidir.

Kasbni to'g'ri tanlash-inson hayot-faoliyatidagi muhim ish bo'lib, u har bir shaxsning qiziqishi, mayli, imkoniyatlariga mos kelishi zarur. Mutaxassis o'zi bajarayotgan ishga ijodiy yondoshib, mehnat unumdorligini oshirib borsa, faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, kasbiy mahorati darajasini oshira borsagina mehnatdan qoniqish hosil qiladi. YOshlarning kasb tanlashi ongli zaruriyat va ayni paytda jamiyat manfaatlariga mushtarak bo'lishi ularning kamolot yo'lidagi shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. Kasbga yo'naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbga yo'naltirishda bir tomondan -turli kasblar va ixtisosliklarning mavjudligi, ikkinchi tomondan-shaxslarning qator xususiyatlari bilan farqlanishi o'ziga xos muammoli vaziyatlari vujudga keltiradi. Umuman ilk kasbga yo'naltirish ishlari oiladan boshlanib, atrof-muhit, ota-ona, kattalar, qo'ni-qo'shni, mahalladoshlar kabilar ham unga ma'lum ta'sirini ko'rsatadi.

Kasb-hunar tanlashda har bir shaxs avvalo nimani bilishi, xohlashini, qo'lidan nima kelishini, ya'ni nimani uddalay bilishini va jamiyat uchun nima qilishi kerakligini bilishi zarur. Bu holatni mantiqan quyidagicha ifodalash mumkin. Kerak-xohlayman, bilaman-uddalayman.



Bilim-shaxs rivojlanishi jarayonida egallangan axborotlar majmuidir. Bilim egallash manbalari: uzluksiz ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, jamiyat (oilalar, mahalla, tanishlar, qarindosh urug'), hayot faoliyati kabilar.


Moyillik – ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishga undovchi omil.

Qiziqish – u yoki bu ob'ektlar bilan yaqindan tanishish, uni bilishga, o'rganishga bo'lgan intilish. Insonlarning qiziqishi quyidagi sohalarga bo'linishi mumkinligini fanda isbotlangan: insonlarga, texnika, tabiatga, belgilarga, badiiy obrazlar.

Layoqat – shaxsning tabiiy tug'ma xususiyatlari bo'lib, u hayot va tajriba davomida rivojlanib, qobiliyat sifatida faoliyat davomida namoyon bo'ladi. Qobiliyat umumiy va maxsus bo'lishi mumkin.

Jamiyatning kasb-hunar sohiblariga bo'lgan ehtiyojlari: tanlangan kasbning mehnat mazmuni va istiqbollari haqidagi bilimlarni egallash; tanlangan kasbga o'zining mosligini va shu yo'nalishdagi o'quv yurtida o'qiy olish imkoniyatlarini anglab etish; tanlangan kasbning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushunish kabilarini belgilaydi.





MEHNAT QUROLLARI BO'YICHA KASBLARNING TURLARI

qo'llanma mehnati bilan bog'liq: asbobsozchilangar, avtomobillarni ta'mirlovchi chilangar, bo'yoqchi, suvoqchi vashu kabilar	Mexanizm va mashinalarni ishlatish bilan bog'liq: Tokar, frezlovchi, haydovchi, kombaynchi va shu kabilar	Avtomatik qurilmalarni ishlatish bilan bog'liq: Dasturli stanoklar operatori, nazorat-o'lchash uskunalari va avtomatik qurilmalarni ta'mirlovchi chilangar	Maxsus qobiliyatlari ishga solish bilan bog'liq: O'ymakor, rassom, kulol, dizayner, musiqachi, badiiy so'z ustasi va shu kabilar.
--	---	--	---

MEHNAT SHAROITI BO'YICHA KASBLARNING TURLARI

Ma'naviy javobgarligi yuqori darajada bo'lgan: Jamoat tartibini saqlash, davlat va Vatan himoyasi, xizmat ko'rsatish, shaxs tarbiyasi bilan bog'liq faoliyat.	O'ziga xos sharoitga ega: Er va suv ostida, yuqori harorat ostida, shovqin tebranish, o'ta nam yoki quruq sharoitda faoliyat ko'rsatish kabilar bilan bog'liq dengizchi, metro haydovchisi, uchuvchi, quyuvchi va shu kabilar.	Maishiy xizmat bilan bog'liq shart-sharoitlar: Operator-dasturchi, havaskorlik raqs jamoasi, tabiatshunos va shu kabilar.	Yuqori havodagi mehnat sharoiti: Dehqon-fermer, cho'pon, GAI xodimi va shu kabilar.
---	--	---	---

Nazorat savollari.

1. "Tarbiyaviy ishda motivatsiya» deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaviy faoliyat uz ichiga nimalarni oladi?
3. Ijtimoiy-psixologik komponent kanday faoliyatni ta'minlaydi?
4. YOshlarni kasbga yo'naltirish muammosi bilan kimlar shugullanadi?
5. Kasbni to'g'ri tanlash uchun nimalarga e'tibor karatish lozim?
6. Moyillik deganda nimani tushunasiz?



Tayanch iborolari

Ixtiro, o'ymakor, kashtachi, muzeyshunos, dasturchi, havaskorlik, tokar, frezlovchi, suvoqchi, kashtado'z, dizayner, layoqat, moyillik, jarayon, komponent, kunikma, maxorat, muomala, fikrlash, dunyokarash, faoliyat, motivatsiya

KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA ILMIY-USLUBIY ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Reja:

1. Kasb-hunar kollejlarida tashkil etiladigan ilmiy-uslubiy ishlarning vazifalari.
2. Kasb-hunar kollejlaridagi uslubiy ishlarning mazmuni, yo'nalishi,



tuzilmasi.

3. Kasb-hunar kolleji jamoasi uslubiy ishlarining mavzulari.

Kasb-hunar kollejlarda ilmiy-uslubiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun kollej rahbari ayni vaqtda ham yaxshi pedagogik, ham kasb-hunar sirlarini yaxshi biladigan mutaxassis bo'lishi kerak. U mustaqil ravishda bilim olish va malaka oshirish kurslari orqali ilmiy-uslubiy ishlarning mazmuni hamda ularni tashkil etishga oid masalalarni o'rganib borishi kerak.

Kasb-hunar kollejlarda tashkil etiladigan ilmiy-uslubiy ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

1. kasb-hunar kolleji pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;
2. talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;
3. ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;
4. ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-uslubiy ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlardagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.


Kasb-hunar kollejlarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni, tashkiliy shakllari va ularga rahbarlik qilishga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi oldida turgan vazifalardan kelib chiqadigan quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. G'oyaviy yo'nalganlik;
2. Ilmiylik;
3. Aniq bir maqsadga qaratilganlik va tizimlilik;
4. Ijodiy yo'nalganlik;
5. Ta'sirchanlik va jozibadorlik.

Kasb-hunar kollejlardagi metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. SHu nizomga muvofiq jamoaviy va individual uslubiy ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:

1. pedagogik kengash;
2. uslubiy komissiyalar;
3. ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferentsiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.
4. Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:
5. kasb-hunar kollejlari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muxandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari;
6. kollej rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, katta usta, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlari.



Uslubiy ishlar shakli va mazmuni bo'yicha ham pedagogik xodimlarning ta'lim-guruhlarini qamrab olish bo'yicha ham muvofiqlashtirilgan taqdirdagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Kasb-hunar kollejida uslubiy ishlarni umumiy mavzu asosida tashkil etish tajribasi bunday muvofiqlashtirish usullaridan biridir. Uslubiy ishni bunday tashkil etishning mohiyati shundan iboratki, kasb-hunar kolleji ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan umumiy mavzuni tadqiq etadi. Buning natijasida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning dolzarb muammolarini hal etishga muayyan hissa qo'shadi, turli toifadagi pedagogik xodimlarning tayyorgarlik darajasi hisobga olingan holda, ularning pedagogik mahoratini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Ushbu mavzu kasb-hunar kolleji ishining muayyan bosqichida uning uchun dolzarb bo'lishi: kasbiy ta'limga oid avvalgi tajribalarga bog'liq va ularning uzviy davomi bo'lishi; ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasiga yangilik kiritilishi; daliliy materiallar bilan boyitishi, umuman ta'lim-tarbiya jarayonini sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilish kerak. Bunday mavzularga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin.

1. Talabalarda dialektik dunyoqarashni tarkib toptirish;
2. Tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faolligi va mustaqilligini tarkib toptirish;
3. Ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
4. Ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligini ta'minlash;
5. Predmetlararo aloqadorlikni ta'minlash;
6. Ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish;
7. Tahsil oluvchilarda mehnatga va jamoat mulkiga ongli munosabatni tarkib toptirish;
8. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish talablari asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish;
9. Fanlar va kasblarning majmuaviy uslubiy ta'minlanishi;
10. Darsning samaradorligini oshirish yo'llari;
11. Yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etish;
12. Ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish.

Uslubiy ish kasb-hunar kollejining istiqbol va joriy ish rejalarida mustaqil bo'lim sifatida rejalashtirilishi kerak. Mustaqil ishlarning tashkil etilishi va samaradorligini tekshirish masalalari kasb-hunar kollejlarning ichki nazorat rejalarida o'z aksini topadi. Uslubiy ishlarni rejalashtirishda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

1. kelajakdagi rivojlanishni ko'zda tutish (bajarish muddatlari va vazifalari bo'yicha);
2. rejalarni ta'lim-tarbiya va uslubiy ishning ahvoli va natijalarini har tomonlama chuqur o'rganish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqish;
3. rejalarning ijodiy xarakteri, ya'ni ularni bajarishda ishtirok etuvchi xodimlarning tashabbusi va ijodkorligini namoyish etilishga zarur imkoniyat yaratish;
4. uslubiy ishlarning jamoaviy va individual shakllarini uyg'un qo'shib olib borish;
5. tezkor tekshirish mumkinligi (yozuvlar va bajarish muddatlarining aniqligi ijrochilarning ko'rsatilishi).

Uslubiy ish shakllari va maqsadlarining rang-barangligi, uning turli guruh toifadagi pedagoglarni o'ziga jalb etilishini hisobga olib, tadbirlarni mazmuni va o'tkazish muddatlarini muvofiqlashtirish, bir ishning takrorlanishini bartaraf etish, uning samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaliyotda uzoq vaqtlardan beri «Uslubiy ishlarning umumiy rejasi» tuziladi. Bu ish pedagogik tajribada o'zini oqladi. bunday rejada kasb-hunar kollejidagi barcha uslubiy ishlar tizimi taqvim muddatlar va muhim tadbirlar bo'yicha uyg'unlashtiriladi. quyida pedagogik amaliyotda keng ko'lamda qo'llanilayotgan ana shunday reja shaklini keltiramiz.

№ sonli kasb-hunar kollejining 2005/06 o'quv yili uchun uslubiy ishlarni umumiy rejasi.

Kasb-hunar kolleji jamoasi uslubiy ishlarining mavzulari:

Oy	Pedagogik kengash	Uslubiy komissiyalar							Instruktiv-uslubiy majlislar	Ilg'or tajriba maktabi	Ilmiy amaliy konferentsiyalar	Seminar-amaliyotlar	Pedagogik o'qishlar	Ma'ruza, sayohatlar	Eslatma
		Maxsus fanlar va ishlab chiqarish ta'limi	Umumkasbiy fanlar	Ijtimoiy fanlar	Umum ilmiy fanlar	Boshlang'ich xarbiy tayyorgarlik va jismoniy tarbiya	Guruh murabbiylari	Tarbiyachilar							


Kasb-hunar kollejidagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini kollej pedagogik kengashi belgilaydi. Kollej rahbari (direktor) uslubiy ishlarga umumiy rahbarlik qiladi.

U «Uslubiy ishning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va muxandis pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarini tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yuqori organlari oldida o'zi rahbarlik qilayotgan kollejdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

Direktorning o'quv-ishlab chiqarish ishlari bo'yicha o'rinbosari umuman kollejdagi uslubiy ishlarning, shuningdek maxsus fanlar turkumi o'qituvchilari bilan olib boriladigan uslubiy ishlarning tashkilotchisi hisoblanadi.

Ijtimoiy o'quv predmetlari va tarbiyachilar bilan olib boriladigan uslubiy ishlarni direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlari bo'yicha o'rinbosari, umumta'lim o'qituvchilari bilan olib boriladigan uslubiy ishlarga esa ilmiy bo'lim mudiri rahbarlik qiladi. Quyidagilar direktor o'rinbosarlarining xizmat vazifalariga kiradi:

1. kollejdagi «Uslubiy ish rejasi»ni tuzish;
2. uslubiy komissiya majlislari, instruktiv-uslubiy kengashlar va boshqa shakllari uchun haftaning doimiy kuni va oyning doimiy haftasini belgilash;





3. ochiq darslar o'tkazish, bir-birining darslariga kirish jadvalini ishlab chiqish,
4. talabalar va muhandis-pedagoglar bilan olib boriladigan individual uslubiy ishlarni rejalashtirish;
5. kollej pedagogik kabineti ishini yo'lga qo'yish va uslubiy komissiyalar raislariga yordam berish;
6. o'qituvchilar va muhandis-pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda ularning mustaqil ishlariga rahbarlik qilish;
7. ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'zi o'qitadigan o'quv predmetining o'qitish vositalari bilan majmuaviy ta'minlash;
8. ilg'or tajribalar, zamonaviy texnologiyalar, vositalarni o'rganish hamda amalga joriy qilishda o'qituvchilarga yaqindan ko'mak berish;
9. kollejdagi uslubiy ishlarning borishi va natijalari haqida pedagogik kengashga hisobot berish kabilar.

Nazorat savollari.

1. Ilmiy-uslubiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun nimalarga e'tibora karatish lozim?
2. Ilmiy-uslubiy ishlarning vazifalariga nimalar kiradi?
3. Ilmiy-uslubiy ishlarning asosiy talablari nimalardan iborat?
4. Individual uslubiy ish kanday shakllarda amalga oshiriladi?
5. Direktor o'rinbosarlarining xizmat vazifalariga nimalar kiradi?

Tayanch iboralari

Jamoa, individual, konferentsiya, muxandis-pedagoglar, nizom, dialektik dunyoqarash.



MAVZU: KASB-XUNAR KOLLEJLARINING O'QUV REJASI, DASTURINI TAXLIL QILISH.

Ishning maqsadi:

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quv-uslubiy xujjatlar bilan tanishtirish va ularni taxlil qilishda bilim ko'nikmalarni shakllantirish.

Nazariy qism.

Yosh o'qituvchi maxsus fanni o'qitishda o'zini mustaqil shakllanishida, kasb yo'nalishida ta'lim berishda mutaxassislik malaka tavsifnomani bilishi lozim. Malaka tavsifnomasi xunar va kasbga yagona ta'rif malaka ma'lumotnomasi (kvalifikatsion tavsifnoma) asosida tuziladi. Bu qo'llanma ishlab chiqarishda ko'rsatilgan ixtisoslik mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalar ketma-ketligini o'z ichiga oladi.

Malaka tavsifnomasi turli xil fanlarning o'quv rejasi va o'quv dasturini tuzish uchun asosiy negiz xisoblanadi. O'quv rejasi deb – umumiy qilib aytganda ta'lim dasturi xujjatlari to'plamiga aytiladi.

O'quv rejasi davlat direktiva xujjatlari asosida tuziladi va unda o'quv yurtining yo'nalish soxasi: maqsad va vazifalari, talabalar soni va o'quv muddati keng ko'rsatiladi.

O'quv rejasi fan va texnika, texnologiya, ishlab chiqarishning nafaqat xozirgi xolatini, balki kelajakda shu soxa yo'nalishining taraqqiyoti to'g'risidagi bilim va ma'lumotlarni muddatini oldindan aniqlaydi. O'quv rejasidan mazkur o'quv yurtidagi o'quv-tarbiya jarayonining mazmunini, turlarini xajmi, muddati, fanlar ketma-ketligi aniqlanadi. Xar bir o'quv dasturining bajarilishi uchun o'quv rejasi majburiy xujjat xisoblanadi va unga 3-5 yil mobaynida faqat ta'lim vazirligi tomonidan o'zgartirishlar kiritiladi.

O'quv rejasiga quyidagi o'quv dasturlar hujjatlari kiradi:



1. Kvalifikatsion tavsifnoma.
2. Soatlar setkasi.
3. Yig'ma-tematik reja.
4. O'quv dasturi.

(Masalan, dekanat tomonidan o'quv rejasi, semestrlar soatlar, ishlab chiqarish ta'limi).

O'quv dasturi – davlat xujjati bo'lib, undan nazariy va ishlab chiqarish ta'limining mazmuni, mavzulari, majburiy xajmi, o'qitilishni ketma-ketligi aniqlanadi.

O'quv dasturi quyidagilarni o'rgatadi:

1. Fanning nomi.
2. Mazmuni.
3. Bilim va ko'nikmalara xajmi.
4. Mavzular, bulimlar, savol mavzularining ro'yxati.
5. O'qitilish ketma-ketligi (Kirish, mavzu).
6. Xar bir mavzu uchun ajratilgan soatlar soni.
7. Tajriba va amaliy mashgulotlar ro'yxati.



8. O'quv adabiyotlar.
9. Qo'llanma va o'qitish vositalarining ro'yxati.

O'quv dasturini xar bir o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustasi bajarishi majburiyatdir.

Uslubiy nuqtai nazardan o'quv dasturlariga fan va texnika, texnologiya, ishlab chiqarishdagi yangi yutuqlarni jaxon andazalari talabi asosida uning asosi va mazmuni sakllangan xolda shu o'quv yurtining uslubiy komissiyasi ko'rib chiqadi va o'zgartirish kiritadi.



O'quv rejalari va dasturlari xalq xo'jaligi ishchilarining ijobiy tayyorgarligiga nisbatan qo'yadigan asosiy talablarni aks ettiruvchi maxorat tavsifnomasi asosida tuziladi. O'quv rejalarida o'quv fanlari ro'yxati keltiriladi ularni o'rganish vaqti, o'quv mashgulotlar rejimi ko'rsatiladi. O'quv rejalarida ijtimoiy fanlarni o'rganishga aloxida soat ajratiladi. Unda ta'tillarning qancha davom etishi belgilanadi. O'quvchilar uchun o'quv rejasiga kiritilgan xar qaysi fan uchun nimalarni va qay ishchinlikda o'rganish kerakligi, shu bilan birga o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan bilim, malakalar xajmi kiritiladi. Dasturlar mavzuiy reja va dasturdan iborat bo'lib mavzuiy rejada fanning o'rganishi ishchinlikda joylashtirilgan mavzular va unga ajratilgan vaqt keltiriladi. Dasturlar o'z ichiga maxsus mutaxassislik fanlari bo'yicha soxalarni va qisqacha mazmunini o'z ichiga oladi. O'quv rejalari asosida o'qituvchi ish rejasi tuzadi va xujjat o'quv yurti boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ishning borishi.

1. Aniq mutaxassislik bo'yicha dastur to'plami va xujjatlar bilan tanishib chiqish (o'quv rejalari qachon va kim tomonidan tasdiqlangan, o'quv muddati).
2. Dastur xujjati to'plamining tarkibiy qismi sanab o'tilsin, qisqacha tavsif berilsin.
3. Ko'rsatilgan kasb malaka tavsifnomasi bilan tanishish. (kasbi, ixtisosi).
4. «Xar bir mutaxassis o'z kasbi soxasi bo'yicha nimalarni bilishi kerak» pubrikasi ostidagi kerakli punktlarni tanlash.
5. Bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda saylangan mavzular uchun o'quv elementlarini tanlash. (O'quv elementlari – fan xaqida tushuncha, bilim va ko'nikmalarni shakllantiruvchi mavzu).
5. Berilgan savollarning xar bir punktida talab etilgan yozuvlar bajarilsin.
6. Xulosalash.

O'z-o'zini tekshirish savollari.

1. Kvalifikatsion tavsifnoma nima?
2. Nima uchun o'quv dasturi va o'quv rejasi davlat xujjati xisoblanadi?
3. O'quv dasturi nimalarni o'rgatadi?



MAVZU: MUTAXASSISLIK FANLARI BO'ICHA PERSPEKTIV MAVZUIY VA DARS REJALARINI TUZISH.

Ishning maqsadi:

O'quv dasturlari mavzulari asosida perspektiv mavzuiy reja tuzish orqali boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirish.

Nazariy qism.

Dars-butun bir tizimni, unda ta'lim va tarbiyaviy maqsad va vazifalar takomillanadi, o'sadi, o'qituvchi esa darsni rejalashtiradi, hamda oldindan tayyorlaydi. Rejalashtirish odatda perspektiv-tematik reja va perktktiv dars rejalaridan tashkil topadi. Yaxshi o'ylangan perspektiv-mavzuiy reja o'qituvchiga xozirgi zamon va xar tomonlama o'quv jarayonining material-texnik bazasi bo'yicha tayyorlashga, shuningdek nazariyaning ishlab chiqarish bilan bog'lanishini ta'minlashga sharoit yaratadi. Perspektiv-mavzuiy reja darslar tizimini to'g'ri tashkil etishda va keyingi darsga tayyorlanishda yangiliklar keltiradi. Bu tajriba mashg'ulotida perspektiv-tematik rejani tuzishda o'qituvchi xarakatlari ketma-ketligini keltiramiz.

No	Etaplar	Maqsadlar
1	2	3
1	Kvalifikatsion xarakteristikani o'rganish	1.Kasblar bo'yicha yosh kvalifikatsion ishchilar qanday dars va bilimlar olishini yuzaga chiqarish. 2.Predmet maqsadi va vazifalarini aniqlash.
2	O'quv rejasi va dasturi bilan tanishish	1.Mazkur o'quv yurtida o'qitiladigan fanning tarbiya tizimidagi o'rnini yuzaga chiqarish. 2. Dastur bo'yicha o'quvchilarga shakllanadigan bilim, malaka,ko'nikmalar xajmi xaqida tushunchalar berish.
3	Mavzu bo'yicha o'quv materialini mazmunini taxlil qilish.	1.Aniklash: a) mavzuni o'rganishdagi tushunchalar b) ulardan birinchi uchraganlarni aniqlash. 2. O'quv materialini xajmi va darslar bo'yicha ketma-ketligini aniqlash.
4	Ishlab chiqarishning fanlararo bog'liqligi taxlili.	1.Tarbiya mavzusidagi tushunchalar, bu o'quv materialini darslar bo'yicha taqsimlashda qo'l keladi. 2.Ishlab chiqarish darslari tushunchalarini o'rganish.
5	Dars tizimlarini qayta ishlash.	1.Tarbiya uchun kiritilgan asosiy tushunchalar,ular murakkabligi,yangi bilimlarni

		takomillashtirish darslarini aniqlash. 2. Amaliyotda bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarga qanaqa ko'nikmalar xosil bo'lishni dastur buyicha aniqlash, bilim yuklamalarni shakllantiruvchi darslarni joriy etish. 3. O'quvchilar bilimlarini tizimlashtiruvchi, shuningdek tekshiruv ishlarini olib borishga bag'ishlangan umumiy tuzilishdan darslar sonini aniqlash. 4. O'quv jarayonini aktivlashtiruvchi turli yo'nalishdagi dars tizimini aniqlash.
6	Mustaqil ishlarni qayta ishlash tizimi.	1. Berilgan mavzu materiallarida ko'nikmalarning mustaqil ketma-ketlikda shakllanishini aniqlash. 2. Yuqorida ko'rsatilgan ko'nikmalar shakllanishi darajasini aniqlash. 3. Bilimlar o'sish dinamikasini o'rganish. 4. Darsliklar, o'quv qo'llanmalari, topshiriq va mashqlar materialini taxlil qilish.
7	O'TV kompleksini tayyorlash.	1. O'TV dan nimalar borligini aniqlash. 2. Ular to'g'riligini tekshirish.
8	Didaktik materiallar kompleksini tayyorlash.	1. Qanaqa didaktik materiallar qo'llanilishini aniqlash. 2. Tarqatuvchi materiallar tayyorlash.
9	Optimallikni aniqlash.	1. Bilim, ko'nikmalarni o'quvchilarda mustaxkamlash. 2. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni bajarishda sharoitlar yaratish.



Ishning borishi va bajarish tartibi.

1. Kasb-xunar kollejlarda o'quv dasturlari mavzulari asosida tuzilgan perspektiv-mavzuviy va dars rejalari bilan tanishish va ularga tavsiyanoma berish.
2. Mutaxassislik fani bo'yicha mavzu tanlash va perspektiv-mavzuviy va dars rejalarni tuzish.
3. Namuna I va II larni taxlil qilish.
4. Ish bo'yicha xulosa chiqarish.

O'z-o'zini tekshirish savollari.

1. O'quv rejasining qisqacha pedagogik taxlilini bering.
2. Perspektiv-mavzuviy va dars rejalarning ahamiyati nimadan iborat?
3. Dars rejasi tuzishining o'qituvchi uchun ahamiyati nimadan iborat?

Perspektiv – mavzuviy reja.



Namuna 1

Mavzuning nomi,mazmuni	Yangi mavzuni o'rganish formasi	Mavzu maqsadi	O'qituvchilar bilan mustaqil ishlash	O'TV	Fanlararo Bog'liqligi	Uyga vazifa

Perspektiv – dars rejasi.

Namuna 2

Dars nomi,mazmuni	Dars turi	Darsda qo'llaniladigan uslublar	Didaktik materiallar va O'TV	Qo'llaniladigan adabiyotlar	Mustaqil ish	Uyga vazifa

**MAVZU: KASB-XUNAR KOLLEJLARIDA MUTAXASSISLIK FANLARI
BO'YICHA DARSNI KUZATISH VA TAXLIL QILISH**


Ishning maqsadi:

Bo'lajak mutaxassislik fan o'qituvchilari darsni taxlil qilish pedagogik faoliyatini o'rganish, bilim, ko'nikmalarni shakllantirish.

Nazariy qism.

Xunar-texnika bilim yurtlari, nazoratning maqsadi – bu eng avvalo o'qituvchining o'quv – tarbiyaviy ish xamda o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalar sifatini oshirishdir. Uning muxim mohiyati muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatlarsizliklarning sabablarini chuqur taxlil qilish.

Nazorat ketidan chuqur ilmiy asoslangan taxlil bo'lishi va shuning asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonini takomillashtirish bo'yicha, darsni takomillashtirish



bo'yicha tavsiyalar, taliflar ishlab chiqilishi kerak. Darsni taxlil qilishda o'qituvchining faoliyati va o'quvchilarning faoliyatlari xisobga olinadi. Talaba turli xil va ko'rinishdagi darslarni o'tishi va unga tayyorlashni o'rganishi lozim.

Ma'ruzalarda o'qituvchilarning darslarga tayyorlanish savollari, o'quv jarayonini rejalash va tashkil etish farqlari, o'qitish uslublari yoritiladi. Bularning xammasi xunar-texnika bilim yurtlarida tajribali o'qituvchilar darslarida yaqqol ko'rinadi. Talaba, tajribali o'qituvchilar darslariga qatnashishi va ularni nazorat qila bilishi kerak, bu nazorat talaba uchun ko'rgazmali namuna bo'ladi. O'qituvchi faqat dars o'tishini o'rganibgina qolmasdan, balki darsni nazorat qilib taxlil qilishini urganmog'i, ular asosida xulosalar chiqara olmog'i lozim. Umumiy taxlilda o'qitish maqsadi va mazmuni, dars tuzilishi, ta'lim uslublari, usullari, tashkiliy formalari, o'qitish vositalari o'qituvchilarning xulqi, o'qituvchining ish uslubi, dars natijalari e'tiborga olinadi.

Dars taxlil jarayonida, dars bo'yicha o'qituvchi bilan suxbatlashish davomida eng avvalo ba'zi psixologik tomonlarni xisobga olish va ijobiy jo'shqin tus berish, o'zaro xayrixoxlik, ishonch ruxini paydo qilish kerak.



Kuzatish maqsadlari: amaliyotda o'quv jarayonlarini tashkil etish dars formalari bilan tanishish, darsning barcha elementlarini taxlil qilish xaqida bilimlarni shakllantirish va ta'lim jarayoni samaradorligi xaqida xulosalar chiqarish. Ma'ruzalarda, darsliklarda ta'lim uslublari, shuningdek o'qituvchining o'qitish darslarida tayyorlanish xaqidagi savollar, o'quv jarayonlarni rejalash va tashkil etish formalari yorqinlashtiriladi. Bularning xammasi kollejda ishlaydigan tajribali o'qituvchilar orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi faqatgina darsni olib borishni bilibgina qolmay, balki darslarni kuzatib bilishi va taxlil kila olishi darkor. O'qituvchi darsi va mexnatini kritik baxolash pedagogik jarayonda kamchiliklarni tuzatish va yuqori samaraga ega bo'lish uchun yordam beradi. Agar o'qituvchi o'zining darsini va xamkasbi darslarini taxlil qila olsa, u tezda tajribalarini takomillashtirish va pedagogik maxoratini oshirishi mumkin.

Darsni kuzatish va taxlil etishda quyidagilarga asosiy e'tibor berish kerak:

1. Mavzu, maqsad va dars turi;
2. Darsning boshlanish va tugash vaqtlari, tartib va o'quvchilar aktivligi;
3. Dars tuzilishi. O'tilgan mavzuni takrorlash va yangi bilimlar berishda o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan uslublar.
4. Darsda o'quv materialni mustaxkamlash va takomillashtirishni tekshirish uslublari;
5. O'qitishning zamonaviy texnik vositalari va namoyish qilinadigan materiallarni qo'llash. Qo'llashning bilimlilik va maqsadlilik;
6. Darsda o'quvchilarning mustaqil ishlashda o'qituvchi raxbarligi;
7. O'quvchilarga o'qituvchi tomonidan berilgan uyga vazifani e'lon qilishning to'g'riligi va tushunarlilik;
8. Darsda o'qituvchi nutq madaniyati, xulqi, o'zini tuta bilishi va x.z.

Ishning borish tartibi.

1. Kasb-xunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarini kuzatish va mustaqil taxlil qilish.



2. Mutaxassislik fani bo'yicha darsni kuzating.
3. Darsning tipi va tuzilishini aniqlash, o'qituvchining bir ish bosqichidan ikkinchisiga o'tishni taxlil qilish.
4. Na'muna 1 ni taxlil qilish.
5. Ish bo'yicha xulosalar chiqarish.

O'z-o'zini tekshirish savollari.

1. Ishlab chiqarish ta'limi darslari tuzilishini ta'riflang.
2. Darsni kuzatish va taxlil qilishda nimalarga e'tibor berish kerak.
3. «Yigiruv texnologiyasi» darslarini olib borish bosqichlarini aytib uting.

Namuna 1.

Taxlil va kuzatishdagi Asosiy elementlar	Taxlil va kuzatuvdagi natijalar	Kamchilik va xulosalar


**MAVZU: MUTAXASSISLIK FANLARI O'QITISH USLUBI VA ISHLAB
CHIQRISHNI O'RGANISH BO'YICHA NAMOYISH QILINADIGAN
MATERIALLARNI QAYTA ISHLASH.**

Ishdan maqsad: Maxsus fanlarni o'qitishda ko'rgazmali uslublar orqali talabalarga ko'nikmalarni xosil qilish.

Nazariy qism. Ko'rgazmali qurollarni namoyish etish bu shunday uslubki, bunda o'quvchilarga texnologik jarayon va texnik ob'ektlar xaqida aniq va konkret obrazlar xosil bo'ladi.

Darsda turli ko'rinish va formalarda ko'rgazmali qurollarni qo'llash o'qituvchi mavzuni tushuntirishlarni o'qituvchining yaxshi o'rganishiga olib keladi.

Tabiiy ob'ektlarni real sharoitda kuzatish, o'rmonda, o'tloqda o'tkaziladi, stanoklar, kombaynlar, traktorlar, mashinalar ishini kuzatadilar. Namoyish qilinadigan predmetlar ko'rgazmali bo'lishi uchun detal bo'lakchalari va texnika vositalarini ba'zi ustki koplamlarini bo'yash tavsiya qilinadi. Bu uslublar orasidan mexnat usullarini ko'rsatib berish uslubini ko'rsatish lozim, usta bu uslubni qo'llab o'quvchilar ongida ular o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan mexnat xarakterlarining obrazini shakllantiradi. Usul va operatsiyalarni o'rganish davrida





bu uslub aloxida axamiyatga ega. Ko'rgazmali qo'llanmalar xajmiy va tasvirli qo'llanmalarga bo'linadi. Tasvirli qo'llanmalarga bo'yalgan plakatlari, diagrammalar kiradi. Ish joyini tashkil qilishni ko'rsatuvchi plakatlari, plakat instruktsiyalari yaxshi qo'llanmalar xisoblanadi. Xajmiy qo'llanmalar – mashina, stanok, apparatning detal va uzellari modellarining maketlaridir. Ta'lim jarayonida o'quv filmlari, diopozitivlar, diafilmlar, magnitafon yozuvlari xamda zarur tasavvurlarni shakllantirish va yodga keltirish imkonini beradigan boshqa texnika vositalaridan keng foydalaniladi.

Ishlab chiqarish ta'limini takomillashtirish yo'llaridan biri o'qitishning xar xil texnik vositalari (UTV) dan foydalanishdir. Ishlab chiqarish ta'limida UTV dan foydalanish ularni nazariy o'qitishda qo'llashga nisbatan o'ziga xos xususiyatlariga ega. Agar maxsus, umumtexnik va umumta'lim predmetlaridan dars berishda UTV asosan ta'limning ko'rsatmaliligini oshirsa, ishlab chiqarish ta'limida esa UTV ni qo'llashdan asosiy maqsad o'quv va ko'nikmalar shakllantirishni takomillashtirishdan iborat. Ishlab chiqarish ta'limining texnik vositalaridan ximiklar, transport vositalarining xaydovchilari, ko'rilish mashinalari mashinstlari, elektr payvandchilarni o'qitayotganda qo'llaniladigan trenajyorlarni, bo'lg'usi traktorlari, mashinistlar, operatorlarning texnik jixatdan eshita bilish qobiliyatini rivojlantirish uchun foydalaniladigan ovoz yozib olish qurilmalarini aytib o'tish lozim. Umumslesarlik ishlariga o'rganayotganda egovlash, arra bilan qirqish, kesish rezba qirqish kabi operatsiyalar priyomlarini bajarishda xarakat qilish o'quvchilari va ko'nikmalarini xosil qilish uchun mashq moslamalaridan (ba'zan ular trenajyorlar deb ataladi) keng foydalanish etarlidir.

Bunday moslamalardan foydalanishning pedagogik moxiyati trenirovka mashqlarini bajarish jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zini samarali joriy kontrol qilinishi ta'minlashdir. Joriy kontrolni ta'minlash usuliga shoshilinch informatsiya asos qilib olingan. Uning moxiyati shundan iboratki, o'quvchi mexnat xarakatlarini bajarish jarayonida yo'l qo'yayotgan xatolar to'g'risida maxsus qurilmalar yordamida signallar oladi. Shoshilinch informatsiya olish o'quvchilarga o'z-o'zini joriy kontrol qilishda yordam beradi, bu esa ularda kasbiy ko'nikmani shakllanishini tezlashtiradi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha shoshilinch informatsiyani qo'llash mashq moslamalari yordamida mashqlar qilish jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolarni oddiy usullar bilan o'tkaziladigan mashqlardagiga nisbatan 2-2,5 marta kamaytirishga imkon beradi.

Ishning borishi.

1. Ta'limining ko'rgazmali uslublarini qo'llash nazariy qismi bilan tanishish.
2. O'quvchilarning mavzuni qabul qilish va takomillashtirishda qo'llaniladigan ko'rgazmali materiallar ko'rinishini o'ylab chiqish.
3. Ob'ektlarni namoyish qilinadigan materiallarni qayta ishlash.
4. Mutaxassislik fan bo'yicha namoyish qilinadigan materiallarni tayyorlash.



O'z-o'zini tekshirish savollari.

1. Ta'lim uslublarini aytib bering va ta'riflang.
2. Ko'rgazmali uslublar maqsadi nimadan iborat?
3. O'quvchilar ishlab chiqarish ta'limida qanaqa uslublarni qo'llash foydali deb o'ylaysiz?

MAVZU: MUTAXASSISLIK FANI BO'YICHA NAZARIY TA'LIMI VA ISHLAB CHIQRISH DARSİ KONSPEKTLARINI TUZISH.

Ishdan maqsad: Ishlab chiqarish ta'limi ustalari va o'qituvchilariga ixtisos bo'yicha reja-konspektni ko'rish va tuzishni o'rgatish.

Nazariy qism.

Darsni o'tkazish uchun asosiy xujjat uning rejasidir. Yaxshi o'ylab va moxirona tuzilgan dars rejasi xar bir savolning ortiqcha batafsilliksiz etarli darajada to'liq va mantiqan yoritib berilishini, dars vaqtida samarali foydalanishni, uni o'tkazishning ratsional tashkil qilinishini ta'minlaydi. Biroq, dars rejasi darsga sinchiklab tayyorlanishining mantiqiy nixoyasi bo'lsagina bularning xammasiga erishish mumkin bo'ladi. Dars rejasi qanchalik yaxshi tuzilgan bo'lmasin, uning o'zigina darsning o'tkazilishi sifatini belgilay olmaydi.



Dars rejasi ishlab chiqarish ustasining ish xujjati xisoblanadi, shuning uchun uning formasi, mazmuni, savollarni ochib berish chuqurligi darsning mazmuniga, didaktik maqsadiga o'quvchilar bajaradigan ishlarning tavsifiga mashqlarning tashkil qilinishiga, ustaning tajribasiga qarab ishlab chiqarish ustasi tomonidan belgilanadi. Dars rejalarini umumiy daftarda yoki aloxida varaqalarda tuzish tavsiya etiladi. Rejani taxt qilishda dars davomida kerakli narsalarni yozib qo'yish uchun varaqning chetida bo'sh joy qoldirgan ma'qul. Dars rejalariga ishlab chiqarish ustasining doimiy, standart, xammaga ma'lum vazifalarni aks ettiruvchi punktlarini (o'quvchilarning darsga kelishini tekshirish, ularning tashqi ko'rinishini ko'zdan kechirish va x.zo) kiritmaslik kerak. Rejadan foydalanish qulay bo'lishi uchun uning xar qaysi punkitini qolganlaridan ajratib qo'yish, asosiy punktlar tagida chizib qo'yish zarur. Rejada joriy vaqtni xam, xaqiqiy vaqtni xam ko'rsatish mumkin. Biroq, rejadan foydalanish qulayroq bo'lishi uchun joriy vaqtni ko'rsatgan ma'qul.

Ishning borishi:

Mutaxassislik fanlari bo'yicha bulimlarni uslubiy taxlil qilishni o'rganish; Dars o'tishni tashkil etish va rejali-konspekt tayyorlashga bog'liq xolda amaliy savollarni yechishda mutaxassislik fanlari bo'yicha olgan bilimlarni takomillashtirish.

Talaba o'qitishning texnik vositalari va ko'rgazmali qurollardan foydalanib dars o'tishni va kerakli uslublarni qo'llashni o'rganadi.

Mutaxassislik fan bo'yicha dars reja va konspekt tuzish. Xar bir talabaga topshiriq beriladi kollejda o'qiydigan o'quvchilar uchun mutaxassislik fanlari



bo'yicha dars rejasini tuzish. Topshiriqqa dars o'tiladigan bo'lim yoki mavzu ko'rsatiladi.

Davomiylik – 45 min. Talaba tomonidan bajaralidigan ishlar 3 qismdan iborat:

Mavzuning uslubiy taxlili.

Kalendar – tematik (texnikumlar uchun) yoki perspektiv – tematik reja (kollejlarda uchun).

Dars reja – konspekti.

Yo'lga solib yuborish maqsadida ishlab chiqarish ta'limi darsining quyidagi umumiy sxemasini taklif etish mumkin:

..... uchun dars rejasini.

Dars mavzusi

Dars maqsadi

O'quv ishlab chiqarish ishlari

.....

.....

Darsning material-texnika ta'minoti: master darsga xozirlab qo'yadigan asboblarda, zagotovkalar, moslamalarning nomi va miqdori, ko'rsatma qo'llanmalar, o'qitishning texnik vositalari, xujjatlar va x.z. (o'quvchilar shaxsan foydalanadigan asboblarda va ustaxona uskunalari ko'rsatilmaydi).

Darsning borishi:

Tashkiliy qism (vaqt)

Kirish instruktaji (vaqt)

Darsning mavzusi va maqsadini aytish.

O'quvchilar bilimlarini tekshirish: nazariy va ishlab chiqarish ta'limi darslarida o'rganilgan, ushbu dars material bilan bog'liq bo'lgan material bo'yicha o'quvchilarga savollar berish.

Dars materialini yuzasidan o'quvchilarga instruktaj berish: tushuntirish yoki suxbat qilish rejasini, master namoyish qiladigan usullarning (priyom) ko'rsatmalari.

O'quvchilar mashqni (mustakil ishlar) va joriy instruktaj (vaqt).



Mashqlarning tartibi va mazmuni.

O'quvchilarning ish o'rinlarini asosiy aylanib chiqishdan ko'zlangan maqsadlar.

Yakunlovchi instruktaj(vaqt)

Instruktajning asosiy savollari (dars vaqtida to'ldiriladi).

Uy topshirig'i.



O'z-o'zini tekshirish savollari.

1. Dars rejimini tuzishdan asosiy maqsad nimadan iborat?
2. Rejaning tarkibiy qismlari nimadan iborat?
3. Ilgari tuzilgan dars rejalaridan foydalanish mumkinmi va nima uchun?

**MAVZU: O'QUVCHILARNING ISHLAB CHIQUVCHILARINING
MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHDA BILIM, MALAKA,
KO'NIKMALARNI TEKSHIRISH, BAHOLASH USLUBIYOTI.**

Ishning maqsadi:

Bo'lajak ishlab chiqarish ta'limi ustalariga o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini qayd qilish, o'quvchilarning bilimlarini mustaxkam o'zlashtirishi uchun zarur ishni belgilashni o'rgatish va o'quv xamda malakalarini nazorat qilish va baxolashni o'rgatish.

Nazariy qism.


O'qituvchilarning yaxshi ishlashini talab qilishdan avval, ular o'quv mexnatini baxolash, ularni mexnat qilishga o'rgatish lozim.

Baxolash – ustoz qo'lida g'oyat ta'sirchan vositalardan biridir. Bu vositadan nixoyatda extiyotkorlik bilan foydalanish kerak. Baxo xamisha o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'maklashmog'i lozim. Bunda esa baxo albatta xolis bo'lgan. O'qituvchi baxoga ichidan rozi bo'lgan va uning moxiyatini tushungan taqdirdagina erishiladi.

O'qituvchi amaliyotida tekshirishning joriy va tematik turlari ko'p qo'llaniladi. Ular og'zaki va yozma ishlar, individual va yoppasiga so'rash, dars bo'yicha ball qo'yish shaklida o'tkaziladi. Bilimlarni joriy tekshirish xar bir darsda o'tkaziladi. Joriy tekshirish bilimlarni aniqlashga va o'quv jarayonida shu asosda olib borishga imkon beradi.

Tematik tekshirish butun mavzuning o'zlashtirilishini nazorat qilib borishini ta'min etadi. Bu xildagi tekshirish materialini sistemalashtirishda juda katta ahamiyatga ega. Qisqa vaqt mobaynida shunaqa savollar berish yoki shunaqa vazifalarni taklif etish kerakki, o'qituvchi o'zi ularda mavzuning asosiy mazmuni asosiy g'oyalarini ko'rib turganday xis qilish kerak. Odatda yozma kontrol va mustaqil ishlar bilimlarni tekshirishning asosiy formalaridir. Nazorat va tekshiruv maqsadidagi mustaqil ishlar asosan kompleks ishlarni bajarish darsida ko'p qo'llaniladi, bunda o'quvchilarda mustaqillik, o'z kuchlariga ishonch qaror topadi. O'quvchilarda ishlab chiqarish mashg'ulotlarida individual tarzda va yoppasiga so'rash joriy, tematik va yakuniy tekshirishning keng tarqalgan formalari xisoblanadi.

Masalan, ishlab chiqarish mashg'ulotlarida texnologik jarayonlarni bajarish bo'yicha savol butun guruxga beriladi. Birmuncha vaqt mobaynida xar bir o'quvchi qanday javob berishni o'ylaydi. Individual tarzda so'rash chog'ida xar bir o'quvchi bilan evristik suxbat o'tkazadi. O'qituvchi o'quvchi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni to'g'rilaydi.



Dars paytida o'quvchilar bilan «baxo orqali» muammolardan ko'proq foydalanish kerak. Bu esa o'quvchilarning o'z ishini samarali tarzda «o'zi baxolashi» uchun sharoit yaratadi.

Ustoz o'quvchiga xaqli ravishda «2» baxo qo'yishi mumkin. Lekin asosiy vazifa – uning oldini olish «2» baxo qo'ymaslikning xamma choralari ko'rilganidan keyingina shu baxoni qo'yish mumkin.

Kuchli o'quvchilar ishini taxlil qilish va baxolash paytida eng yaxshi o'quvchilarning ijodiy namunasi guruxdagi boshqa o'quvchilar uchun o'rnak bo'lishida oshkoralik katta ahamiyatga ega.

Bir o'quvchini butun jamoaga qarama-qarshi qo'ymaslik uchun xadeb uni maqtayverish va rag'batlantirish kerak emas. Yaxshi o'quvchilarni yaxshi o'qigani uchungina emas, balki yanada yaxshiroq o'qishga intilayotgani uchun maqtash va rag'batlantirish kerak.



Ishning borish tartibi.

1. Tayyorlangan ishlab chiqarish mashg'ulotini tekshirish darsi kuzatiladi.
2. Tekshirish darsida bilim, malaka, ko'nikmalarni tekshirish formulalari va turlari taxlil qilinadi.
3. Gurux jurnali bo'yicha joriy va yakuniy o'zlashtirishi ko'rsatkichlarini o'rganishi.
4. Taxlil natijalari jadval 1 ga yoziladi.
5. Ish bo'yicha xulosalar chiqariladi.

O'z-o'zini tekshirish savollari.

1. Ishlab chiqarish mashg'ulotida, o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini joriy tekshirishning xususiyatlarini aytib bering.
2. Ishlab chiqarish ta'limi darslarida o'quv materialini sistemalashtirishda tematik jixatdan tekshirish qanday ahamiyatga ega.
3. O'quvchi ishlab chiqarishda barcha texnologik usullarni to'g'ri bajaradi. Texnika xavfsizligi koidalariga rioya qildi lekin xatolikka (texnologik jarayonni bajarishda) yo'l qo'yiladi. Buning uchun siz qanday ball qo'yasiz. Qo'ymoqchi bo'lgan baxongizni izoxlang.

Dars nomi	Tekshirish turi	Tekshirish formasi	O'quvchilarni baxolash	O'qituvchi qo'ygan baxoni izoxlash



MAVZU: KASBIY TA'LIM METODIKASIGA OID XUJJATLARNI RASMIYLASHTIRISH, REJA TUZISH QOIDALARI, DARS O'TKAZISH, XUJJATLARNI RASMIYLASHTIRISH METODIKASI.

Ishning maqsadi: O'quvchilarga kasbiy ta'lim o'qitish metodikasi fanining ahamiyatini va mohiyatini tushuntirish, fanga oid xujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishni o'rgatish.

Ishni bajarish uchun quyidagilar zarur: Turli xildagi ishchi va o'quv rejaralaridan, xujjatlardan namunalar.



Nazariy qism

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida asosan o'quv yili o'quv yurti belgilagan muddat asosida olib boriladi. SHuning uchun oliy va o'rta maxsus ta'limi tomonidan bunday reja tadbirlar tashkil etiladi va boshqariladi.

Har yili zamon talabi bilan yangi o'quv yili avvalo yuqori tashkilotni yo'riqnomasi asosida bajariladi. Masalan, biror fan loyiq deb topilsa uni o'quv jarayoniga tavsiya etiladi va ushbu fan o'quv yurtining o'quv rejasiga muvofiq muxokama etilib, o'quv dasturiga kiritiladi. So'ngra ushbu fanga ma'lum miqdorda o'quv soatlari ajratiladi, ajratilgan soatlar bo'yicha ushbu fan o'quv rejalari, dasturlari, ma'ruza matnlari yoziladi. Har bir fanni o'qitish uchun yozilgan me'yoriy xujjatlar uslubiy kengashlarda, pedagogik kengashlarda muxokama etilib, to'g'rilanib, tasdiqlanib so'ngra o'qitishga tavsiya etiladi. Tayyorlangan me'yoriy xujjatlarga o'quv dasturlari, o'quv rejalari, dars jadvali va x.k lar kiradi. Bunday xujjatlardan foydalanib ish ko'rilganda, bilim berish jarayoni reja asosida, belgilangan tartibda olib boriladi va talabalar bilimining yuqori bo'lishi ta'minlanadi.

Ishni bajarish tartibi.

1. quyidagi keltirilgan ta'rif va qoidalarini o'rganib yozish.
 - A) O'quv rejalari.
 - B) Dars jadvali.
 - V) Auditoriya.
 - G) Nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'limi.
2. Yuqorida keltirilgan iboralardan ma'lum bir qismi, jadvallari, o'z shaklida chizilsin va har bir bandi bo'yicha taxlil etib yozilsin.
3. O'qituvchi tomonidan o'tkazilgan barcha hatti- xarakatlar urganilsin. Dars o'tish metodikasi va unga oid barcha xujjatlar bilan tanishib chiqilsin, ularni rasmiylashtirish usullariga misollar keltirilsin. O'qituvchining o'tkazilgan mashg'ulotlarini xisobga olish daftarini rasmiylashtirish o'rganilsin va taxlil etilsin. quyidagi jadval to'ldirilib, so'ngra taxlil yozilsin.



№	Talabaning F.I.SH	Talabanin g davomati va reyting ballari	Mashg'ul ot o'tkazilad i-gan sana	Mashg'ul ot turi	O'tilgan soat miqdori	O'qituvchi g imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						
7						

O'z-o'zini tekshirish savollari.

1. Dars o'tkazish metodikasi deganda nimani tushunasiz?
2. O'quv rejalari qanday tartibda tuziladi?
3. O'quv dasturi haqida tushunchangiz.
4. Nazariy ta'lim va amaliy ta'lim deganda nimani tushunasiz?

**MAVZU: TALABALAR BILAN ISHLASH METODIKASI. AUDITORIYA
VA DARS O'TKAZISHNI BOSHQARISH METODIKASI.**


Ishni bajarishdan maqsad: Talabalarga o'quvchilar bilan ishlash metodikasini, auditoriyani boshqarish va dars o'tkazish metodikasini o'rgatish. Dars o'tkazish jarayonida o'quvchilar bilan ishlash, ularni o'rganish bilan birga, o'qilayotgan fanga ularda qiziqish uyg'otish yo'li bilan fanni o'zlashtirish darajasini oshirish.

Ishni bajarish uchun quyidagilar zarur: Turli xil fanga oid ko'rgazmali qurollar, qiziqarli ma'lumotlar.

Nazariy qism

YOsh avlodni tarbiyalash, unga ilm, fan, texnika rivojlanishi xaqida ma'lumotlarni to'g'ri etkazish va yoshlarni bilimini oshirish, ularni vatani, xalqi iqtisodini, fan- texnika ilmini rivojiga o'z xissasini qo'shishi yo'lida tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu maqsada talabalarga bilim berish jarayonida o'qituvchi avvalo hayotiy tajribaga ega bo'lishi kerak, ya'ni metodikani mukammal bilishi, o'z bilimini, fikrini o'quvchilarga to'liq etkizib bera olishi, pedagogik- psixologik nutq madaniyati kabi maxoratlarga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy ta'lim yo'nalishida ta'lim berish, o'quvchilarda ushbu ta'limga qiziqish uyg'otish kata maxorat kasb etadi. SHu sababli kasb xunar kollejlarida ta'lim beruvchi o'qituvchilardan nafaqat nazariy, balki amaliy tajriba talab etiladi, shu bilan birga o'qituvchi nafaqat bir yoki ikki yo'nalish, aksincha bir qator soxalarni mukammal egallagan bo'lishi shart



Auditoriya va dars o'tkazishni boshqarishda o'qituvchi talabchani o'quvchilarda fanga qiziqish uyg'ota oladigan, (bu maqsadda turli xil ko'rgazmali qurollar va ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq) , turli xil xolatlarda vaziyatni o'z qo'liga olib biladigan bo'lish lozim. O'quvchilarning psixikasini bilgan xolatda o'z vaqtida tanbex, jazo kabi vositalardan foydalanish ham auditoriyani boshqarishda samara beradi.

Ishni bajarish tartibi.

1. quyidagi keltirilgan iboralarning ta'rifi o'rganilsin va yozilsin.

- A) o'quvchi.
- B) talaba.
- V) o'qituvchi.
- G) o'zlashtirish.
- D) dars o'tkazish metodikasi.
- E) darsni boshqarish metodikasi.

1. Talabalar bilan ishlash, o'rgatish va metodikasini o'zlashtirish.
2. Dars o'tkazilayotgan auditoriyani va dars o'tkazishni boshqarish va metodikasini o'zlashtirish.
3. Dars o'tkazish jarayonida o'quvchilar bilan ishlash va ularni o'rganish bilan birga o'qilayotgan fanga ularda qiziqish uyg'otish yo'li bilan fanni o'zlashtirish darajasini oshirish usullarini topish.

O'z-o'zini tekshirish savollari.


1. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.
2. Talabalar bilan ishlash metodlari deganda nimani tushunasiz va ular qanday?
3. Darsni tashkil etish va auditoriyani boshqarish uchun qanday vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq?

**MAVZU: BERILGAN MAVZU ASOSIDA TALABALAR TOMONIDAN
AMALIY MASHG'ULOTLARNI BAJARISH UCHUN USLUBIY
QO'LLANMA YARATISH.**

Ishni bajarishdan maqsad: Talabalarga turli xil mavzularga oid o'quv va uslubiy qo'llanmalarni tayyorlashni , ularni tayyorlash tartiblarini, fanning asl mohiyatini o'rgangan xolda bilim berish sirlarini o'rgatish.

Nazariy qism

Har bir bo'lg'usi pedagog o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida dars o'tish usullarini, yo'nalishlarini, shu bilan birga o'z mutaxassisligini mukammal bilishi zarur. Barcha fanlarga me'yoriy xujjatlar, ma'ruza matnlari, uslubiy qo'llanmalar tayyorlashni o'rganishi kerak. Bu maqsadda oliy o'quv yurtida, bo'lg'usi pedagoglarni tayyorlash jarayonida o'qituvchi tomonidan maxsus topshiriqlar



berilib, shu topshiriqlar asosida uslubiy qo'llanmalar yaratish talabalariga muntazam ravishda o'rgatilib boriladi.

Yaratilgan uslubiy qo'llanmadan foydalanganda, har bir amaliy mashg'ulotni bajarishda o'quvchi ishining maqsadini, mazmunini va ish xarakatining ketma-ketligini anik tasavvur qilishi lozim. SHu sababli uslubiy qo'llanma yaratishda tanlangan mavzular nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir-biriga uzviy bog'laganligini, fanning ahamiyatini, o'qitish turini inobatga olish kerak. Talabalarning mustaqil ishlari pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan, texnologik jihatdan ma'lum ketma-ketlikda tuzilgan, fanga metodik yondoshilgan bo'lishini o'qituvchi bevosita o'z nazoratiga oladi. Bunday topshiriqlar berish bo'lg'usi pedagogning amaliy bilimlar va ish harakat usullarini egallashlariga qaratilgan bo'ladi.

Ishni bajarish tartibi.

1. Uslubiy qo'llanma yaratish metodikasini o'rganish.
2. Uslubiy qo'llanma yaratish uchun ma'lumotlar to'plash.
3. Talabalar uchun tushunarli, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qulay bo'lgan uslubiy qo'llanma yaratish.

O'z-o'zini tekshirish savollari.



1. Uslubiy qo'llanma yaratishdan maqsad?
2. Uslubiy qo'llanma qanday talablarga javob berishi kerak?

**MAVZU: DARS O'TKAZISH JARAYONIDA TALABA- O'QITUVCHI,
O'QITUVCHI- TALABA SAVOL JAVOBLARI, FANGA OID
BAXSLARNI, YUZAGA KELGAN MUAMMOLARNI ECHISH
METODIKASI**

Ishni bajarishdan maqsad: Dars o'tkazish jarayonida, talabalarni fanga qiziqishini uyg'otish, talaba o'qituvchilarni savol javob berish yo'li bilan o'zlashtirishini aniqlash va ular orasidan iqtidorlilarini belgilash, lozim bo'lsa ularni o'z vaqtida taqdirlash, kabi yo'llar bilan talabalarni o'z fikrini ifodalash qobiliyatini oshirish. Dars o'tish jarayonini talabalar fan bo'yicha baxslar uyushtirish, paydo bo'lgan savollarni to'g'ri echish metodikasini o'rgatish va yaratish yo'llarini belgilash.

Nazariy qism

Ma'lumki o'quvchilarga bilim berish jarayoni juda murakkab va mas'uliyatli xisoblanadi. Bu jarayoning qay darajada samarali va sifatli, maqsadli bo'lishi albatta o'qituvchining malakasiga bog'liq. Talabalarga bilim berishda o'qitishning noan'anaviy usullaridan foydalanish, turli xil baxslar tashkil etish, darsni savol



javob tarzida olib borib, o'quvchilar bilimini tekshirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish maqsadga muvofiq. Bunday vaziyatlarda yuzaga keladigan muammoli xolatlar, turli xil baxslarni echishda o'qituvchi bir oz ehtiyotkor va qat'iy bulishi kerak. Bunday vaziyatlarni o'quvchilarning ongiga salbiy ta'sir ettirmasdan, muammoning ijobiy tomonlarini ko'rsatib bergan xolda echishga ahamiyat berish lozim.

Ishni bajarish tartibi.

quyida keltirilgan iboralarni ta'rifi, qoidalari o'rganilib yozilsin.

- A) talaba- o'qituvchi muloqoti.
- B) o'qituvchi talaba muloqoti.
- V) talaba- o'qituvchi muloqoti.
- D) yuzaga kelgan muammolar va ularni to'g'ri echimi metodikasi.
- G) o'z vaqtida taqdirlash yo'llari.

O'z-o'zini tekshirish savollari.

1. O'qituvchi- talaba munosabatlari qanday bo'lishi kerak?
2. Darsni baxs tarzida tashkil etishga munosabatingiz.
3. O'quv jarayonining samarali bo'lishi uchun yana qanday vositalardan foydalanish mumkin?

MAVZU: TEXNOLOGIK JARAYONLARNI TUSHUNTIRISH METODIKASI


Ishni bajarishdan maqsad: Ushbu mashg'ulotlarda o'qituvchi tomonidan texnologik jarayonlarni o'qitish metodikasini o'rganish bilan birga o'qituvchi tomonidan mashg'ulot olib borish, mashg'ulotini o'zlashtirishga bag'ishlangan.

Nazariy qism

Ilmiy- texnik taraqqiyot nafaqat, aksariyat ishlab chiqarish soxasinigina texnologiyalashtiradi, balki u madaniyat, ta'lim soxalariga ham kirib bormoqda.

Texnologiyalashtirish - bu ob'ektiv jarayon bo'lib, ta'lim evolyustiyasining YAngi vazifalarini sifatli xal qilish uchun tayyorgarlik davri.

Texnologiya deganda, odatda ashyolarni qayta ishlash metodlari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning ilmiy tavsiflarining majmui tushuniladi. Fan



sifatida texnologiyaning vazifasi har tomonlama samarali va tejimli ishni chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda undan foydalanish maqsadida fizika, kimyo, mexanika va boshqa fanlarning qonuniyatlarini bajarish.

Bugungi kunda ta'lim sohasida pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabi atamalar qo'llanilmoqda.

Pedagogik texnologiyaning asosiy vazifasi- o'quv jarayoni maqsadlarini amalga oshirish va rivojlantirish.

Ta'lim texnologiyasi deganda ta'limning belgilangan maqsadi va talabaning bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyixasi va pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

O'qitish texnologiyasi ta'limning faoliyatini va shu bilan birga, bilimlarni mehnat jarayoniga tadbiq etishni ta'minlaydi, pedagogning ongilligini qolipga tushiradi, uning jadal xarakter qilishiga va hayot yo'liga ta'sir ko'rsatadi.

Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash texnologik tamoyili bo'lajak kasbiga qaratilgan maqsadlar, mazmun funktsiyalari, o'qitish metodlaridir.



SHunday qilib, oliy o'quv yurtida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy xarakterdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo'lg'usi o'qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. U bo'lg'usi pedagogning intellektual rivojlanishi, tafakkurining kasbiy yo'nalganligini idrok qilish, o'quv - bilish faoliyatini tashkil etishda ilmiy tamoyillarni amalga oshirish bilan bog'langan.

Ishni bajarish tartibi.

Biror bir mavzu bo'yicha dars o'tish uchun sharoitni tashkil etish. Ushbu mavzuga oid va to'liq yoritishda ishtirok etadigan chizma va shunga o'xshash yordamchi vositalarni to'g'ri ta'minlash metodikasini o'rganish. Dars olib borish jarayonida o'quvchi- talabalar orasida o'qitish maxoratini o'rganish. SHuningdek, talabalar tomonidan berilayotgan savollarga oxirigacha quloq soli shva aniq, to'g'ri javob berish metodikasini o'zlashtirish.

quyidagi keltirilgan iboralarning ta'rifi, qoidalari o'rganilib yozilsin.

- A) Texnologik jarayon.
- B) Mashg'ulotni olib borish metodikasi.
- V) Maxoratni o'zlashtirish.
- G) SHaroitni tashkil etish.



D) YOordamchi vositalar.

O'z-o'zini tekshirish savollari.

1. Fandagi texnologik jarayonlarga ta'rif bering.
2. Pedagogik texnologiyalarning samaraliligi.

MAVZU: DARS O'TKAZISH VA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH METODIKASI

Ishni bajarishdan maqsad: talaba o'qituvchilar bilan dars o'tkazish maxoratini oshirish. Dars o'tish va o'quvchilar, talabalar tomonidan mashg'ulotlarni o'tish va topshirish jarayonida ularning bilimini to'g'ri baholash. Baholash metodlarini to'g'ri tushunish va to'g'ri tushuntirish.

Nazariy qism


Talabalarga bilim berish tizimida o'ziga xos ta'lim shakllari mavjud, bularga ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlar, kafedra o'qituvchilarining ochiq ma'ruzalari va x. k lar kiradi. Bu tizimda ma'ruza o'quv jarayonining ham usuli, ham shakli xisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og'zaki, uzviy va muntazam singdirishga hizmat qiladi.

O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqiyosidagi muxim ahamiyatga egadir. SHu bilan birga, nazorat va baholash jarayoni o'quvchi bilimini boyitishga, ular shaxsini rivojlanishiga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. CHet el tajribalari va ko'plab tajribalarning natijasi o'laroq reyting uslubi bugungi kunning nazorat mezonini deb qabul qilindi.

Reyting deganda- baholash, tartibga keltirish, klassifikastiyalash, biror xodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorat tizimining asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fanni talaba o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlarini ballar bilan baholash yotadi.

Har bir fan bo'yicha o'quvchi, talabaning o'zlashtirishini baholash smestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari orqali baholanadi;

- joriy nazorat.
- oraliq nazorat.
- yakuniy nazorat.



Joriy nazorat - bu o'rganilayotgan mavzularni talabalar tomonidan qanday o'zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Oraliq nazorat - bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabani bilimni aniqlash demakdir. Bu nazorat darsdan tashqarii vaqtda o'tkaziladi va talabalarga o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Yakuniy nazorat - bu smestr uchun belgilangan mavzular to'liq o'tib bo'lingach, o'tilgan mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi.

Har bir fan bo'yicha maksimal ball shufan uchun o'quv rejasida ajratilgan umumiy dars soatlari miqdoriga teng. Maksimal ballning 70% miqdori joriy va oraliq, 30% miqdori yakuniy nazoratda to'planishi tavsiya etiladi.

Smestr davomida mazkur fan bo'yicha to'plangan ballarga nisbatan talaba bilimi quyidagicha baholanadi:

86- 100 foiz «a'lo»

71- 85 foizi «yaxshi»

56-70 foizi «qoniqarli»

55 va undan kam foiz «qoniqarsiz».

Ishni bajarish tartibi.

Dars o'tkazish metodlari bilan tanishib chiqish. O'quvchi- talabalar bilimini baxolash yo'llari o'rganilsin va o'rgatilsin, tashkil etilgan tizim haqida to'liq ma'lumot keltirilsin.

quyida keltirilgan iboralarning ta'rifi, qoidalari o'rganilib yozilsin:

A) baxolash.

B) to'g'ri baxolash.



V) reyting tizimi.

G) baxo, ball.

D) nazorat baxosi, ball.

O'z-o'zini tekshirish savollari.

1. Talabalarga bilim berish turlari qanday?
2. Reyting tizimi haqida tushunchangiz?
3. Nazorat turlari.





Darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar.

1. 1.A.Karimov. «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyoti poydevori» T. 1997.
2. Kasbiy ta'lim uslubiyoti (O'quv qo'llanma) Olimov K va boshqalar
3. T. 2006 yil.
4. Xodjaboev A. Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi (o'quv qo'llanma) lat. T. fan 2007 yil.
5. 4. Ishmatov K Pedagogik texnologiya (o'quv qo'llanma) 2004 yil Namangan.
6. Mavlonova R , To'raeva O. Pedagogika. T. 2001 yil.
7. . Q.T Olimov, O.A.Abduquddusov, L.P.Uzoqova, M.M.Axmedjanov, D.Ф. Жалолова. Kasb ta'limi uslubiëti: O'quv qo'llanma.- T.: Iqtisod-moliya, 2006.-160 b.
8. Avliyoqulov N.X. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari.- Uslubiy ko'rsatma. Buxoro.: Muallif, 2000.- 100 b.
9. B.L.Farberman, R.G.Musina, F.A.Jumaboeva Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari.- T.: 2002.- 192 b.
10. Батышев С. Профессиональная педагогика. — М.: Профессиональное образование, 1997.-511 с.
11. Подласный И.П. Педагогика. Новый курс. В 2-х книгах, М.: Владос, 2003.-528 с.


Qo'shimcha adabiyotlar

1. Olimov Q.T. va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. -T.: Tafakkur, 2004.- 108 b.
2. Roziqov O.,Og'aeв S.,Maxmudov M., Adizov B., Didaktika –T.: Fan, 1997.- 286 b.
3. Скакун В.А. Преподавание курса «Организация и методика производственного обучения», М.: Высшая школа. 1990, - 236 с.
4. www. inter-pedagogika. Ru
5. www. pedsovet. Org.
6. Oliy o'quv yurtlariga oid barcha o'quv rejalar, namunaviy dasturlar, stendlar.



MUNDARIJA

1. Kasb ta'limining metodologik asoslari va ilmiy tadqiqot metodlari. Kasb ta'limining asosiy tushunchalari	4
2. Kasb ta'limining metodologik asoslari	8
3. Kasb-hunar ta'limining o'quv me'yoriy hujjatlari	12
4. Kasb ta'limining ilmiy tadqiqot metodlari	15
5. Kasb ta'limi tamoyillari va metodlari. Kasb ta'limi tamoyillari.....	20
6. Kasbiy ta'lim metodlari	26
7. Faol o'qitish metodlari	29
8. Ishlab chiqarish ta'lim metodlari	34
9. Kasbiy faoliyatni tashkil etish va o'tkazish. Kasb ta'limini tashkil etish va o'tkazish. O'quv ustaxonalarning jihozlanishi	39
10. Kasb ta'limida o'quv maqsadlarini va mazmunlarini belgilash. O'quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanish	45
11. Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish	52
12. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash metodlari. Kasb-hunar kollejlari mustaqil ishlarni tashkil etish, o'tkazish va baholash	61
13. Kasb-hunar kollejlari darslarni tahlil qilish usullari.....	69
14. Kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning asosiy shakllari	75
15. Kasbiy faoliyatni tashkil etish. Tarbiya - kasbiy faoliyatni tashkil etish vositasi	78
16. O'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda pedagogik mahorat	85
17. Zamonaviy ishlab chiqarish ta'limi ustasining faoliyati to'g'risida. Talabalarni kasbga yo'naltirish	87
18. Kasb-hunar kollejlari ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish metodikasi	92
19. Kasb-hunar kollejlari o'quv rejasini, dasturini tahlil qilish.....	97
20. Mutaxassislik fanlari bo'yicha perspektiv mavzu va dars rejalarini tuzish.....	99
21. Kasb-hunar kollejlari mutaxassislik fanlari bo'yicha darsni kuzatish va tahlil qilish.....	101
22. Mutaxassislik fanlari o'qitish uslubi va ishlab chiqarishni o'rganish bo'yicha namoyish qilinadigan materiallarni qayta ishlash.....	103
23. Mutaxassislik fani bo'yicha nazariy ta'limi va ishlab chiqarish darsi konspektlarini tuzish.....	105
24. O'quvchilarning ishlab chiqarish mashg'ulotlarini o'tkazishda bilim, malaka, ko'nikmalarni tekshirish, baholash uslubiyoti.....	107
25. Kasbiy ta'lim metodikasiga oid xujjatlarni rasmiylashtirish, reja tuzish qoidalari, dars o'tkazish, xujjatlarni rasmiylashtirish metodikasi.....	109
26. Talabalar bilan ishlash metodikasi. auditoriya va dars o'tkazishni boshqarish metodikasi.....	110
27. Berilgan mavzu asosida talabalar tomonidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun uslubiy qo'llanma yaratish.....	111



28. Dars o'tkazish jarayonida talaba- o'qituvchi, o'qituvchi- talaba savol javoblari, fanga oid baxslarni, yuzaga kelgan muammolarni echish metodikasi.....	112
29. Texnologik jarayonlarni tushuntirish metodikasi.....	113
30. Dars o'tkazish va talabalar bilimini baholash metodikasi.....	115
31. Mundarija.....	118

